

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK_____

USMONOV SHERZOD PANJIYEVICH

SAMAR NUROV PROZASI

5A 111201 – o‘zbek tili va adabiyoti

MAGISTR

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

F.f.d. prof. Damin To‘rayev

Qarshi-2013

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. Izlanishlar yo'lida.....	10
1. 1. Davr va ijodkor.....	10
1. 2. Ocherklarda davr muammolari talqini.....	17
I bob bo'yicha xulosa.....	27
II BOB. Hikoya janri va badiiy mahorat.....	28
2. 1. Hikoyalarda hayot va inson madhi.....	28
2. 2. Hikoyachilikdan qissa janriga.....	52
II bob bo'yicha xulosa.....	65
III BOB. Romannavis mahorati.....	67
3.1. Davr muammolari va qahramon.....	67
3.2. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin.....	93
III bob bo'yicha xulosa.....	102
Umumiy xulosalar.....	103
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	106

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Xalqimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, hayotimizning barcha jabhalarida bo'lgani kabi ma'naviy hayotimizda tub o'zgarishlar ro'y berdi. Mustaqilligimiz tobora mustahkamlanib, o'zining ijobiy samaralarini bera boshlagan bugungi kunda xalqimiz oldida hayotning moddiy va ma'naviy asoslaridan kelib chiqadigan ulkan vazifalar turibdiki, ularni amalga oshirishda adabiyot va san'at, umuman ma'naviyatning ahamiyati benihoya kattadir. Zero mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo, insonni tushunish, anglash kerak"¹. Mustaqillik yillarida adabiyotni mafkura vositasi sifatidagina emas, balki san'at hodisasi sifatida o'rganishga alohida ahamiyat berila boshladi. Shu ma'noda alohida ijodkorning badiiy tafakkur tarzi, ijodiy uslubiga xos bo'lgan xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Haqiqatdan ham, " ... yozuvchilik- bu adabiy kasb emas, peshonaga yozilgan taqdir. Uning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo'lsa bir umr hayotning o'zida bo'lish ichida bo'lish, o'z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib yashash haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir"². Yozuvchilikni qismat deb tushungan har bir ijodkor o'z faoliyati davomida xalqining dardu alamiga sherik, o'zi yashayotgan davr va jamiyat bilan ham nafas bo'lib yashaydi.

Har bir davr adabiyoti taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. Bu avvalo, bu adabiyotning o'sha davr g'oyalarini va uning ruhini, davr bunyodkori obrazining yaratilishida ko'rinadi. Albatta bu g'oyalar va obrazlarda xalq ruhining barhayotligini, jamiyat va undagi shaxs ma'naviy olamining ko'rinishlarini aks ettirib kelar ekan o'sha jamiyat taqqiyotining ma'naviy o'sishiga va undagi mafkura tamoyillarining shakllanishiga xizmat qilib keladi. Taniqli yozuvchi Samar Nurov asarlarida ham adabiyotning an'anaviy fazilatlarida yetakchilik qiladi.

¹ Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T "Ma'naviyat" 2008 29-bet

² Karimov I.A "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" T: "O'zbekiston" 2009 17-18 betlar

Samar Nurov o'zining ijodkor tengdoshlari bo'lmish – Xudoyberdi To'xtaboyev, Abduqahhor Ibrohim, Sa'dulla Siyoyev, Farxod Musajonov kabi yozuvchilar bilan o'tgan asrning 60-yillarida adabiyot maydoniga kirib keldi. Bular dastavval lavha va ocherklarini, so'ngra birin – ketin hikoyalari e'lon qilishdi lekin bu yillar mafkuraviy tazyiq endi avj boshlagan davr edi. Shu sababli, davr mafkurasini talab qilgan mavzu va g'oyalar adabiyotimiz mundarijasining asosini tashkil etar edi. Adolat yuzasidan aytish kerakki, ana shu mafkura ta'ziqu ostida yozilishiga qaramasdan bu davr asarlarida ham umuminsoniy g'oyalar insonparvarlik davrning muhim muammolari va haqiqat illatlari ham tarannum etilgan. Va shu badiiy ijtimoiy teran fikrlari tufayli o'z asarlari turli davr kitobxonlari uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Albatta bu xususiyat Samar Nurov ijodiga ham daxldordir.

Samar Nurov o'zining o'nlab ocherk va hikoyalari, qissa va romanlari bilan XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyoti va mustaqillik davri prozasi taraqqiyotiga sezilarli darajada hissa qo'shgan adibdir.

Samar Nurov o'zining qirq besh yillik ijodi mobaynida zamondoshlarining rang – barang, ajoyib obrazlarini yaratdi. Uning qahramonlari hayotning nurli yo'llariga talpinuvchi, o'zida yaxshi insoniylik fazilarlarini mujassam etgan kishilardir. Darhaqiqat Samar Nurov hayotimizdagi muhim va ilg'or tomonlarni, zamondoshlarimizning ijodkorlik va yaratuvchilik kuchini, ularning mehnatga yangicha munosabatini, yuksak ma'naviy qiyofasini ochib berishga o'z ijodiy mahoratini namoyon etgan, bu yo'lda bir qator ijodiy muvaffaqiyatlarga erishgan adib edi. Uning o'zbek prozasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va adabiyotimizda o'z ovozigacha ega bo'lishining boisi shundadir.

Samar Nurovning o'nlab ocherk va hikoyalari, qissa va romanlari o'zining mazmun - mohiyati hamda g'oyaviy – badiiy yetukligi bilan o'z muxlislari va o'quvchilarini topgan asarlardir. Ulardagi umuminsoniy, ijtimoiy, axloqiy – ma'naviy muammolar, milliy qadriyatlarini ulug'lovchi g'oyalar kitobxonni

befarq qoldirmaydi. Adibning qator asarlari rus, ukrain, azarbayjon, tojik, turkman, qozoq, eston, turk, bulg'or, tatar, tillariga tarjima qilingan.

Uning asarlaridagi hayotbaxsh va umumbashariy g'oyalarning ulug'lanishi inson va hayot, vatanga fidokorlik fazilatlarining qo'llanilishi o'z zamondoshlari ma'naviy qiyofasi, xalqimiz tarixini xaqqoniylik asosida aks ettirganligini tahlil etish magistrlik disertatsiyamiz mavzuyining dolzarbligining belgilaydi.

Mavzuning o'rganilish darajasi: XX asr o'zbek adabiyotining barcha davrlari, jumladan 60-yillari o'rtalaridan boshlab asr oxirigacha va mustaqillik davridagi o'zbek nasri taraqqiyot xususiyatlari va muammolari adabiyotshunoslik hamda tanqidchiligimizning doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan. Xususan, Ozod Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, Laziz Qayumov, Naim Karimov, U.Normatov va boshqalar tomonidan muhim tadqiqotlar yaratilib, hozirgi o'zbek prozasining taraqqiyot xususiyatlari va janrlar muammolari bilan bog'liq holda, anashu yillar ijod qilgan yozuvchilarimizning mahorat qirralari haqida ham muhim mulohazalarni bildirishgan. Biroq yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek prozasiga o'zining arzirli asarlari bilan hissa qo'shgan adib, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Samar Nurovning ijod yo'li, prozasiga xos bo'lgan xususiyatlar va badiiy mahorati xususida maxsus tadqiqotlar yaratilmagan dissertatsiyalar yozilmagan.

Shuni ham e'tirof etish kerakki o'tgan asrning 70-yillarida va mustaqillik davrida Samar Nurov ijodi va uning asarlari haqida ham ba'zi ilmiy kuzatishlar e'lon qilindi. Biroq bu kuzatishlar yirik qamrovdagi tadqiqot va monografik xarakterida bo'lmay, ma'lum bir adabiy jarayonning va o'sha jarayondagi janrlar taraqqiyoti masalalarini o'rganishga bag'ishlangan maqolalardagi fikrlardan iboratdir. Xususan, atoqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov o'zining 70-yillar prozasiga bag'ishlangan kitobida adibning "Maysalarni ayoz urmaydi" romanida tasvirlangan hayotiylik prinsipiga qat'iy amal qilinib qishloq hayotidagi muammolarini o'z ziddiyatlari girdobida ochiq ravshan tasvirlaganini alohida

qayd etadi. Ancha talabchan adib filologiya fanlari doktori professor U.Normatov esa qishloq prozasi tahliliga bag'ishlangan maqolasida Samar Nurov hikoyalaridan kishilarning juda yorqin yaratilganini, ba'zi hikoyalarining asosiy ruhiyat tahlil xususiyati janrdagi yangilik sifatida baholandi.¹

Tanniqli adabiyotshunos o'zbek publisistikasining ilmiy - nazariy asoslarini ishlab chiqqan Ochil Tog'ayev muallifning "Oltin vodi" nomli ocherklar to'plamini o'zbek badiiy publisistikasining eng yaxshi namunasi ekanligini alohida ta'kidlaydi.²

Samar Nurov mustaqillik yillarida o'zining jasoratini namoyon etdi. U metin irodali ijodkor sifatida hayot sinovlariga bardosh berdi. Natijada mamlakatimiz yaqin tarixini yaratishga bag'ishlangan "Qora tong" romanini e'lon qildi. Shu munosabat bilan yozuvchining do'sti, uzoq yo'llar gazetalar tahririyatida birga mehnat qilgan O'zbekiston xalq yozuvchisi X.To'xtaboyevning "Ayovsiz haqiqat" nomli mo'jazgina kirish so'zi e'lon qilinib, unda romanning ko'lamdorlik va janr xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan.³

Adib ijodiga ba'g'ishlangan ilmiy tadqiqotlar orasida filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos Damin To'rayevning "Metin irodali ijodkor" nomli maqolasi ⁴ o'zining oxcham portret janriga xosligi bilan ajralib turadi. Adabiyotshunos o'z portretida yuqoridagi tadqiqotlardan o'laroq, ijodiy yo'nalishda fikr yuritib yozuvchining ijodiy yo'li haqida kitobxonga izchil ma'lumot berishga harakat qilgan.

Bu kabi maqola va tadqiqotlardagi ilmiy, nazariy fikrlar Samar Nurov asarlarining hozirgi o'zbek prozasidani o'rnini, ijtimoiy estetik ahamiyatgina belgilab berishda ro'l o'ynaydi. Biroq bularning barchasi Samar Nurovning ijodiy yo'li va uning badiiy mahorati haqida to'liq tassavvur bermaydi. Demak adib ijodining tadrijiylik yoki mavzu rang - barangligi hamda badiiy mahorat

¹Normatov U :Nasrimiz ana'nalari" T: Adabiyot va san'at nashriyoti 1978 yil 155-157 betlar

² Tog'ayev O.Adiblar va janrlar.-T: Adabiyot va san'at nashriyoti 1978, 96-97 betlar

³ Samar Nurov"Qora tong" romani – T: Sharq 2003 3-5 betlar

⁴ To'rayev D."Davriy va ijodiy ma'suliyati" T: Yangi asr avlodi 2010 yil , 109-129 betlar

nuqtai nazaridan keng qamrovli tadqiqot yaratish zaruriyati bordik ko'rinadi. Bu esa adib ijodining hozirgi o'zbek prozasidagi o'rnini aniqlashda va o'z davri adabiyotining taraqqiyot xususiyatlarini o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

Dissertatsiyaning ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi:

Tadqiqot Qarshi Davlat Universiteti, O'zbek adabiyoti kafedrasining istiqbolga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi: Mazkur ishimizning asosiy maqsadi Samar Nurov prozasiga xos bo'lgan xususiyatlarini o'rganish orqali obrazlar

talqini misolida ifodalangan davrning ijtimoiy – ma'naviy muammolarini badiiy estetik idrok qilish va eng muhimi hozirgi o'zbek prozasi taraqqiyotidagi yozuvchi hissasini o'rganish.

Magistrlik disertatsiyaning vazifalari: Yuqorida bayon qilingan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni amalgam oshirish lozim bo'ladi:

- barcha yozuvchilar ijodining tamal toshini belgilovchi davr ruhi va adabiy jarayonga xos bo'lgan xususiyatlarni nazariy jihatdan o'rganish;
- davr muhiti va ijodkor shaxs munosabatlarini tadqiq etish;
- Samar Nurovning izlanishlar yo'lidagi faoliyatini tahlil qilish;
- Samar Nurov yozuvchi sifatida shakllanishida ta'sir ko'rsatgan ijodiy omillar va dastlabki asarlarining o'ziga xos jihatlarini tahlil etish;
- Yozuvchining hikoya janridagi badiiy mahoratini tadqiq etish;
- Hikoyalardagi badiiy talqin etilgan muammolarni o'rganish;
- Adibning qissachilik mahoratini tahlil etish;
- Samar Nurovning romannavislik mahoratiga baho berish;
- Adib romanlarining o'zbek prozasidagi o'rniga baho berish;

Magistrlik disertatsiyasining obykti va predmeti: Disertatsiyada Samar Nurovning dastlabki ocherk va hikoyalaridan tortib “ Rais”, ”Maysarani ayozi urmaydi” va “ Qora tong” kabi qissa va romanlari tadqiq obykti qilib olindi.

Disertatsiyaning metodologik asosi: Ishimizning metodologik asosini falsafiy bilish nazariyasining umumiy qonuniyatlari milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari tashkil etadi. Albatta, Prezidentimiz I.A.Karimovning mamlakatimizda ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirishga milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishga doir qimmatli fikrlari tashkil etadi. Shuningdek Samar Nurov ijodi haqida o'z tadqiqotlarida fikr bildirgan, maqolalar va adabiy portretlar yaratgan yozuvchilar hamda adabiyotshunoslar, xususan O.Sharoffiddinov, Rahmat Fayziy, Ochil Tog'ayev, Xudoyberdi To'xtaboyev, Umarali Normatov, Damin To'rayevlarning ilmiy nazariy xulosalari ushbu ishimizni bajarishga yordam beradi.

Himoyaga olib chiqilayotgan holatlar:

1. Ilmiy- nazariy adabiyotlardagi badiiy mahorat masalasiga murojat qilinib, Samar Nurov ijodining shakllanish jarayoni va bu ijodga XX asrning ikkinchi yarmidagi adabiy muhitning ta'siri ko'rsatib berildi.

2. XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek prozasiga nazar tashlash orqali Samar Nurovning ocherk va hikoyalarida davr talqini tadqiq qilindi.

3. Ijodkor yashagan davr muammolarining badiiy obrazlarda aks etish Samar Nurov yaratgan qahramonlar timsolida tahlil etildi.

4. Tadqiqotda Samar Nurovning katta prozasiga o'tishidagi individual ijodiy uslubi o'rganildi.

5. Yozuvchining “Maysarani ayozi urmaydi” romani misolida davr muammolari va qahramon masalasi tadqiq etildi.

6. Yozuvchi adabiy merosida muhim o'rin tutuvchi, mustaqillik davri ijodining yaxshi namunasi bo'lgan “Qora tong” romani misolida tarixiy xaqiqat va badiiy talqin muammosi tahlil etildi.

7. Mavzuga aloqador barcha masalalar tahlili orqali Samat Nurov prozasining hozirgi o'zbek nasrida tutgan o'rni, badiiy mahorat qirralari tadqiq qilinib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi.

Ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati:

Ishning ilmiy yangiligini hozirgi o'zbek prozasiga munosib hissa qo'shgan Samar Nurov ijodi misolida davr muammolarining talqini va zamondoshlari

obrazini yaratish muammosi ilk bor monografik yo'nalishda yaxlit holda o'rganish belgilaydi. Bu bilan biz mazkur ish keng qamrovli yoki birinchi tadqiqot degan fikrni olg'a surishdan yiroqmiz. Va, aksincha oddiy bir magistr talabaning ilmiy hayotga qo'yayotgan birinchi qadami sifatidagi ushbu ishimizda o'rganmoqchi bo'lgan masalani yoritishda suyanmoqchi bo'lgan – Samar Nurov ijodini keng tahlil etgan ilmiy – tadqiqotlarning kamligini eslamogchimiz. Yozuvchi haqida ilmiy tadqiqotlarning kam yozilganligini, birinchidan adabiyot ilmidagi muammolarning ko'pligi, ikkinchidan talantli va mashhur yozuvchilarning ko'pligi va, nihoyat uchinchi eng asosiysi adabiyotshunoslarimizning e'tiborsizligi bilan izohlash mumkin.

Ishimizning amaliy ahamiyatini hozirgi o'zbek prozasining taraqqiyot xususiyatlarini o'rganishda o'z o'rniga ega.

-Adabiyot ilmini o'rganishda davr muammolari va qahramon talqinini tahlil etishda;

- Hikoya janrining taraqqiyot xususiyatlarini o'rganishda;

- Nasrda “yashab” kelayotgan shingil hikoyalarining janriy xususiyatlarini belgilashda;

- O'zbek nasrida tarixiy voqelikni o'rganish masalasida ham muhim amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi:

Ushbu magistrlik dissertatsiya kirish, olti faslni o'z ichiga olgan uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umimiy hajmi 109 betni tashkil etadi.

I-BOB. Izlanishlar yo'lida.

1.1. Davr va ijodkor

Yozuvchilik qismatining eng murakkabligi kitobxon qalbiga yo'l topish uchun tinimsiz hamda mashaqqatli mehnat bilan badiiy so'zlar shodasida hayot voqeligi va inson faoliyatining rang-barang faoliyatini yuksak estetik mezonlarda tasvirlab berishdadir. Ana shu ma'suliyatni his qilib adabiyotning muqaddas dargohiga qadam qo'ygan har bir ijodkor eng avvalo o'z so'zini aytishga harakat qiladi. Taniqli yozuvchi Samar Nurov (Samar Nuriy) XX asr o'zbek nasri bo'stonida o'z so'zini ayta olgan yozuvchilardan biri edi. U o'zining sermahsul ijodi bilan XX asr o'zbek prozasi taraqqiyotiga kamtarona ulush qo'shdi. Biroq, bu kamtarin ijodkorning yaratgan asarlari xususida adabiy jamoatchilik davralaridagi suhbatlarda va ba'zi adabiyotshunoslarning obzor yo'nalishidagi maqolalarida bildirilgan bir - ikki jumladagi e'tirof xarakteridagi gaplaridan boshqa bir juyali fikrga ega bo'lgan maqolalaru tadqiqotlarni uchratmaymiz. Adabiy tanqidchiligimizda adib ijodiga o'z vaqtida yetarli baxo berilmaganligi haqida O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Davlat mukofoti laureati Xudoyberdi To'xtaboevning ukinch bilan aytgan quyidagi fikrlari adabiy jamoatchilik va ko'p sonli kitobxonlarning dilidagi gaplardir: "Hayot qiziq: ekan-da: kuzi ojiz bo'lib qolganda bitta qissa yozgani uchun Nikolay Ostrovskiyi salkam avliyo sanab, darsliklarga qayta - qayta kiritib, xo'p sajdalar qilgan edik... Butun bir vohaning benazir manzarasini chizish, qalblarning uyg'onishini vohaning o'zidek go'zal asarlarida muhrlagan do'stimizni, e, afsus, deyarli eslamagan ekanmiz. Oshiqning dunyo bilan ishi yo'q deyдилar. Ma'shuqa vasli unga ham ovunch, ham quvonch. Samariddin dasht va dashtliklar oshuftasi. Dildor vaslidan mastu shodon yigitdek behuda bahslarga aralashmay, shon - shuxrat izidan quvmay, fidoyi hamyurtlarining quvonchu tashvishlariga sherik, hamdard bo'lib, masruru halol yashadi".¹

¹ X.To'xtaboev. Ayovsiz haqiqat. Samar Nuriyning "Qora tong" romaniga yozilgan so'z-boshi. T: "Sharq" nashriyoti – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2003, 4-bet

Uning “Chul uyg’oq”, “Durdona”, “Bir uy quvonch”, “Beda hidi”, “Bodom guli”,

“Qur-ey, qur-ey”, “Yaylovdagi gulxanlar”, “Saharxez qushlar» nomli hikoyalar to’plami, “Seni sevaman hayot”, “Chaqmoq “Laylatulqadr”, “Olis yulduzlar”, “Davomli maktublar”, “Rais” qissalari. “Narvon”, “Maysalarni ayoz urmaydi” kabi romanlarida davrning eng dolzarb ma’naviy muammolari, xususan insoniy poklik va halollik, e’tiqod va sadoqat, farzand va ota-ona munosabati, inson va tabiat, burch va mas’uliyat kabi masalalar o’zining badiiy talqinini topgan. Yozuvchi mazkur asarlarida bayon etgan badiiy tafakkuri orqali Qarshi cho’llarining tilsimini ochgan. Qashqa vohasining bag’ri keng va ruhi pok, tanti va mehnatkash odamlari obrazini hamda vohaning o’ziga xos jannatiy va iloxiy tabiati manzaralarini, ruhi va iymoni tasvirini adabiyotga olib kirdi.

Aytish mumkinki Samar Nurovning ijodiy hayoti, ma’naviy va jismoniy irodasi kata jasorat namunasi bo’lib qoldi. Yozuvchi hayotdagi bir tasodifiy falokat tufayli o’ttiz yildan ko’proq vaqtda nogiron bo’lib qolganiga qaramay o’zining metin irodasini, og’riqli, o’kinch va armonlarga to’la hayotini vohaning dolg’ali voqealarga boy tarixini, yurtdoshlarining quvonchu tashvishlarini badiiy yoritishga bag’ishladi.

Samar Nurov 1935-yilda Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanining Jangallik qishlog’ida dehqon oilasida tug’ildi. Qarshi shahridagi Navoiy nomli o’rta maktabni bitirgach mazkur maktabda kashshoflar yetakchisi, keyinchalik viloyat madaniy - oqartiruv boshqarmasida hisobchi. Chimqurg’on suv ombori qurilishida ekskavator mashinistiga yordamchi bo’lib ishladi. O’rta Osiyo Davlat (hozirgi O’zbekiston Milliy) universitetining jurnalistika bo’limida tahsil olgach, “Qashqadaryo haqiqati” gazetasida qishloq, xo’jalik bo’limi mudiri, mas’ul kotib, Respublika radiosining Qashqadaryo viloyatidagi muxbiri, “Sovet O’zbekistoni” (hozirgi “O’zbekiston ovozi”) gazetasining adabiy xodimi va mas’ul kotibi, maxsus muxbiri, “Guliston” jurnalining mas’ul kotibi lavozimlarida faoliyat ko’rsatgan

edi. Uning respublikamizdagi nufuzli gazeta va jurnallarda ishlashi badiiy asar uchun asosiy manba hisoblanuvchi hayotning rang-barang va murakkab qirralarini, odamlar xarakterini, ma'naviy go'zallikning mohiyatini tushunishda katta maktab rolini o'tadi.

Adabiyot dargohida dadil kirib kelgan Samar Nurov ko'p izlandi, badiiy mahorat sirlarini o'zlashtira bordi, ustoz san'atkorlardan ijobiy o'rgandi. Bular o'z navbatida davr talablariga uning hozirjavob ijodkor bo'lib yetishishida hal qiluvchi omillar bo'ldi. Qariyb yarim asrlik vaqt mobaynida Samar Nurov tomonidan prozaning barcha janrlarida ijod qilinib kitobxonlarga taqdim etilganligi ham yuqoridagi fikrlarimizga guvohlik bera oladi.

Samar Nurov ijodining shakllanishida gazeta va jurnallar tahririyatda ishlagan yillar muhim rol o'ynadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek u "Qashqadaryo haqiqati" viloyat gazetasi va "Sovet O'zbekistoni" (hozirgi "O'zbekiston ovozi"), "Guliston" jurnalida asosiy mehnat faoliyatini kechirgan. U tashkilotlarda ishlagan yillari Samar Nurovning yozuvchilik mahoratini egallashda muhim bosqich bo'ldi. U o'zining zamonamiz qahramonlari obrazini tarannum etuvchi o'nlab ocherk va hikoyalari, qissalarini ana shu tahririyatda ishlab yurgan paytlarida yozdi.

Samar Nurov mahorati yil sayin asrdan asrga o'sa bordi, uning ijodi mavzu jihatidagina emas, janr jihatidan rang-barang tus oldi. Bu paytlarda uning bir necha necha kitoblari chop qilindi. Ayniqsa ocherkchilik va hikoyachilikdagi nufuzi orta bordi. Kitobxonlar ommasining mehr-muhabbatiga sazovor bo'lgan qator hikoyalari, qissa va romanlari shu davrda yaratilgan.

Adib asarlarining keng kitobxonlar ommasining e'tiborining qozonishi bejiz emas edi. Chunki Samar Nurov asarlari namunasida badiiy adabiyotning turli masalalari xususida fikr yuritish mumkin edi. Yozuvchi asarlarining yaxlit qatlamlari uning tom ma'nodagi zamonaviyligi, xalqchilligi, milliy o'ziga xosliklarining teranligi o'zining butun g'oyaviy-badiiy quvvatini davr

kishilarining ma'naviy olamini, ruhiy dunyosini ochishga qaratilganligi ham tasvir qobiliyati harakter yaratish san'ati tilidagi o'ziga xos jozibadorlik XX asr o'zbek prozasining ikkinchi yarmi, yanada aniqrog'i so'ngi choragida o'ziga xos o'ringa egaligidan dalolat edi. Ana shu sababli uning asarlari keng kitobxonlar bilan birga ilmiy adabiy jamoatchilikda ham fikr uyg'ota boshladi. Shu fazilatlar sababli ustoz Ozod Sharafiddinov, taniqli adabiyotshunoslar - Ochil Tog'ayev, Umarali Normatov, O'zbekiston xalq yozuvchisi Rahmat Fayziy, professor Damir To'rayevlar o'z tadqiqotlarida adib ijodi haqida iliq fikrlarni bayon qilishgan edi.

Samar Nurovning dastlabki ijodidanoq ko'zga tashlanadigan muhim bir xususiyat mavjudligini qayd etish kerak. Unda davrga hamnafadlik va hozirjavoblik ufurib turadi. Uning asarlarida yurtga, O'zbekiston odamlariga Qashqadaryoning behad rangin manzaralariga maftunlik, Qarshi cho'llarini o'zlashtiruvchi oddiy mehnatkashlar sha'nini ulug'lash mavjud. Shu o'rinda keltirishni lozim topdik. Bu nechog'lik joyiga tushmasin, unda jindek haqiqat borligi ham jahon adabiyotidagi yozuvchilar ijodiga e'tibor bering. Amerikalik yozuvchi Folkner o'z asarlarida Amerikaning janubidagi ulkanlarni, Hemingvay esa Amerika, Ispaniya, Afrika, Parijning maftunkorligi, Dostoyevskiy asarlarida Piterburg, Gogol asarlarida O'rta Rossiyaning va uning odamlarini, Sholoxovning Don odamlari hayotini qanday teran tasvirlaganini eslaylik. Yoki o'zimizning Abdulla Qodiriy uchun Marg'ilon va Qo'qondagi bo'lib o'tgan tarixiy voqealar ilxombaxsh omil bo'lgan. Samar Nurov siz bilan bizdek kitobxon uchun zamondosh bo'lgan Hamid Gulom ijodida Mirzaqul adabiy makonga aylangan edi. Shunday hol Said Ahmad ijodida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Uning deyarli barcha asarlarida Farg'ona va farg'onaliklar bo'y ko'rsatib turadi. Samar Nurov asarlarida esa yuqorida eslatganimiz Qashqadaryo cho'lquvarlarining yaratuvchanlik hayot yo'llari ilhom manbai bo'ldi. U o'zining ilk asarlaridayoq Qashqa vohasi qishloqlari va uning odamlari hayotiga kirib bora boshladi. Asarlarining markazida mehnat va inson masalasini qo'ydi. Hayotni shu masala atrofida tadqiq qildi. Samar Nurov mehnatkash odamni sevishni va qadrlashni

o'rgandi, uning yozuvchi sifatidagi hayotiy rollari hayot falsafasi e'tiqodlari shu muhabbatdan shakllandi. Mehnat kishilari hayotini san'atkorona bir xaqqoniyat bilan gavdalantirishni o'z ijodkorlik burchi deb bildi.

Mehnat qaynagan Qarshi cho'lidagi dalalar jaziramasida mehnat qilayotgan cho'l odamlari go'yo Samar Nurov asarlariga o'ziga xos harorat olib kela boshladi. Uning 70-yillarda yaratgan "Bir uy quvonch", "Bodom guli", "Beda hidi", "Qur-ey, qur-ey", "Baxt", "Tumor", "Saharxez qushlar" nomli hikoyalari mehnat va insoniylikning chambarchas mazmunini ochishga qaratilganligi bilan e'tibor qozondi.

Samar Nurov ocherk va hikoyachilikda ancha tajrida to'plagach katta prozaga qadam qo'ydi. Buni badiiy ijoddagi havas deyish mumkin edi. Ana shu havas keyinchalik katta ijodiy intilishga aylandi. Samar Nurov katta prozaga kirib kelganda unga ustoz sanaluvchi yoki undan katta avlod vakillari hisoblangan Said Ahmad, Mirmuhsin, Odil Yoqubov, Hamid A'zam, Asqad Muxtor, Rahmat Fayziy, Ibrohim Rahim, Primqul Qodirovlarning faol ijodi o'zbek prozasining bezab turgan edi.

Buning ustiga bu davr, ya'ni Samar Nurov adabiyotga kirib kelgach 60-yillar adabiyotni, qolaversa prozani chuqur zamonaviylik sari yetaklamoqda edi. Yaratuvchi, quruvchi, bunyodkor katta ko'lamli inson prozaning bosh qahramoniga aylanib borayotgan edi. Eng muhimi prozimiz bilan hayot o'rtasidagi, hayot bilan ijodkor o'rtasidagi munosabatlar har qachongidan ham yaqin va mustahkam bo'lib borayotgan edi. Bu hol o'z navbatida prozimizning realistik qudratini yanada mustahkamladi.

Yozuvchi Asqad Muxtor aytganidek zamonaviy bo'lish yozuvchining imtiyozi emas. Bu yozuvchining burchi, mas'uliyatidir. Anashu burch va mas'uliyatni anglagan har bir davr san'atkori hamisha zamonaviylikka intiladi. Albatta zamonaviylik faqat mavzu yoki yozuvchining faolligini o'z ichiga olmaydi. Balki, u juda ham keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, adabiy an'analar sohasidagi

yangiliklarni ham ayni paytda asarning g'oyaviy- badiiy darajasini singdiradi, yozuvchi mahoratini belgilaydi. Yana eng muhimi asardagi zamonaviylik davrga, kelajakka qay darajada xizmat eta olishi bilan belgilanadi. Shu ma'noda hozirgi o'zbek prozasi, xususan mustaqillik davri nasri ham g'oyaviy- badiiy xususiyatlari bilan zamonaviylikning tobora chuqurlashib borayotganligiga yo'l ochadi.

Samar Nurov ham barcha zamondosh yozuvchilar singari davr va jamiyat talabidagi mavzu va muammolarni munosib yoritish sohasida bir umr samarali ijod qildi. Samar Nurov ocherk va hikoya yozadimi, qissa yoki roman yozadimi, ularning saviyasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ularni bir narsa birlashtirib turadi.

Samar Nurov o'z hayoti va ijodiy faoliyati davomida o'zining metin irodali ijodkor sifatidagi irodasini namoyon etdi. Tasodif falokat tufayli ajal bilan kurashib hayotga qaytgach, Qashqadaryo viloyatiga o'zi tug'ilib o'sgan yurtga kelib ijod qildi. Yarim nogiron bo'lishiga qaramay mardonalarcha ijod qildi. Adibning faoliyatiga Qashqadaryo viloyatiga adabiy mehnatni shakllantirish va uni oyoqqa turitish muhim o'rin tutadi. U viloyatda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi bo'limi faoliyatiga asos soldi va uni ber necha yillar boshqardi. Adib Qashqadaryoga kelgan dastlab kunlardayoq adabiyotshunos Damin To'rayev bilan qilgan suhbatda quyidagilarni qayd etgan edi: "Vohada katta bir tashnalik bor. Bu tashnalikni qondirishga chorak asr yetmaydi. Yillar o'tgan sayin bu tashnalik oshib boraveradi. Adabiyot va san'atga, go'zallik va nafosatga, madaniyatga tashnalik. Qarshi qo'rig'i ochildi. Lekin dashtda mo'jiza yaratayotganlarning hayoti, taqdiri, urf-odat munosabatlari, ruhiy va ma'naviy dunyosi ham qo'l urilmagan katta qo'riq bo'lib turibdi. Odil aka bir maqolasida yozganidek, cho'lquvarlarning qahramonona mehnati hali ham o'z solnomachilarini kutib turibdi".

Vohamizning Qarshi va Shaxrisabz shaharlari O'rta Osiyoning qadimiy madaniy beshiklaridan bo'lgan. Bu joylarda yashab ijod etgan donishmandlar, shoirlar naaqqosh va tarixnavislar, musiqachilar adabiyotimiz va madaniyatimiz

tarixiga , rivojiga munosib xissa qo'shgan. Alisher Navoiy “ Majolis un- nafois” asarida ko'pgina hamshahar shoirlarni hurmat bilan tilga oladi.

Lekin Qashqadaryoda Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Toshkentdagidek qadimdan uzviy shakllangan adabiy muhit an'analari, tajridali solnomachilar kam bo'lgan demak , orada uzilishlar , susayishlarni ko'rish mumkin. Lekin shunisi quvichlik endi shakllanib kelayotgan yangi bo'g'in adib va shoirlari zahmatkash yurtdoshlarining dilidagi va tilidagini aytishga urinmoqdalar”.¹

Darhaqiqat, u voha madaniy hayotida ancha xayrli ishlarni amalgam oshirdi. Bular orasida uning sa'yi – harakati bilan viloyat yozuvchilar bo'limining tashkil etilishi va unga vohadagi iqtidorli yoshlarning jalb qilinishi alohida e'tiborga molik ishlardan edi. Yozuvchi ijodiy maktabida adabiyot bo'stoniga kirib kelgan Ne'mat Arslonov, Muhammad Ochil, O'roz Haydar, Sharofat Ashurova, Amir Xudoyberdiyev kabi istedod egalari bugungi kunda Respublikamizning eng taniqli va o'qimishli ijodkorlaridan. Eng muhimi u umrining oxiriga (2003) cha, o'lim changalida hayot kechirsa – da “ hayotga odamlar va ularning taqdiriga, voqealarga, hatto yovlarimizga ham biz sog'larga nisbatan teranroq” (X.To'xtaboyev) munosabatda bo'lib ijod namunasini ko'rsatdi, tahlilu e'tiroflarga arzigulik adabiy meros qoldirdi. Adib jasoratli mehnati uchun “ O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoniga sazovor bo'lgan edi.

Taniqli o'zbek adibi – Samar Nurovning bir qator hikoyalari asosida kinofilmlar ishlangan. Uning asarlari sobiq ittifoqning “ Sovetskiy pisatel “ nashriyoti “Drujba narodov” jurnallarida chop etilgan hamda rus, bolgar, ukrain, azarbayjon, turkman, tatar, qozoq, turk, tojik va eston tillariga tarjima qilingan.

Buyuk rus demokrat tanqidchisi N.B. Chernishevskiy adabiyotni hayot darsligi deb atagan edi. Adabiyotning mohiyatini teran tushungan adibimiz o'z asarlari bilan zamondoshlariga hayot haqida badiiy estetik zavq berish bilan birga, ular ruhiy olamini boyitishga, qalblarida ma'naviy e'tiqodlarining ravnaq topishida mas'uliyat bilan ijod qildi.

¹ Yozuvchining suhbatlari professor D.To'rayevning shaxsiy arxividan olindi.

1.2. Ocherklarda davr muammolari talqini.

XX asrning 70-yillarida Respublikamiz va xalqimiz hayotida o'ziga xos voqealar, bunyodkorlik ishlari yuz berdi; necha-necha shaharlar va qishloqlar bunyod etildi, sanoat korxonalari barpo qilindi, qurilishlar ko'kka bo'y cho'zdi. Mirzacho'ldan keyin bepoyon Qarshi cho'lini bog'u bo'stonga aylantirish boshlandi. Bunday olamshumul, katta ko'lamdagi ishlar jarayonida hayotga yangicha qarovchi, yangicha ideallarni o'zida mujassam etgan odamlar avlodi voyaga yetdi.

Bu avlod xarakterida mehnatga muhabbat, hayotni chin qalbdan sevisish kabi ajoyib xislat va fazilatlar yaqqol jilo topa bordi. Bularning hammasi esa, tabiiy ravishda badiiy adabiyotda o'z aksini topa bordi.

Shu bilan birga adabiyotning zamon bilan, xalq hayoti bilan aloqasi mustahkamlana bordi. Hayotdagi yangiliklar, odamlar ongida yuz berayotgan tub o'zgarishlar, ularning ichki dunyosi badiiy ijodda toboro kengroq va chuqurroq ifodalana bordi. O'sha yillari o'zbek adabiyotida ham zamonaviy mavzuga bag'ishlangan davrning eng muhim, eng dolzarb masalalarini dadillik va hozirjavoblik bilan ko'tarib chiqqan ko'plab asarlar yaratildi.

Albatta, bular orasida ocherk muhim ro'l o'ynadi. Ocherk badiiy publisistik janrdir. M.Gorkiy sho'ro ocherkchiligining asoschilaridan biri yozgan xatida ocherkning publisistika bilan sug'orilganini, ocherk tadqiqot bilan hikoya orasidagi o'ziga xos muayyan janr ekanini alohida ta'kidlagan edi. Publisistik tadqiqot ocherkning yetakchi xususiyatlaridandir. Bu hol ocherk janrining hayotiy aks ettirishdagi o'ziga xosligini ham ko'rsatadi.

Ocherkda kishilar obrazlari yetakchi darajada individuallashtirilgan bo'lishiga qaramay unda ijtimoiy publisistik tadqiqot xususiyati hamda muallifning masalaga faol munosabati; jo'shqin гражданлик pafosi bilan diqqatga sazovordir. O'zbek adabiyotida Abdulla Qahhor, I. Rahim, Y.Shoshamsharov, N. Safarov, H. Nazir, Y. Muqimov ocherklari shu jihatdan e'tiborlidir.

Bu ocherkchilarning asarlaridagi qahramonlar ijtimoiy yangiligi, hayotga tadqiqot ko'zi bilan qarash xususiyati, umum manfaatni birinchi o'ringa qoyganliklari kabi yetakchi xarakter belgilari bilan jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga faol ta'sir ko'rsatgan kishilardir.

O'zbek ocherkchiligida zamondoshlarimizning yorqin qiyofasini badiiy boyoqlarda mohirlik bilan chizgan yozuvchilardan biri Samar Nurovdir.

Samar Nurov 70-yillarning boshlarida zabardast ocherkchi sifatida tanildi. Uning davrimizning muhim masalalariga bag'ishlangan g'oyaviy baquvvat badiiy pishiq ocherklari respublika gazeta jurnallarida tez –tez ko'rinib turdi, to'plamlar holida chop etildi.

Hayotda shunday voqealar bo'ladiki, o'z mohiyati, ibrati faolligi etibori bilan bu haqda asar yozishni, voqeaning tub mazmunini ko'rsatib berishni taqozo etadi.

Ammo bu qisqa muddatda bo'ladigan ish emas. O'rganish, izlanishni, uzoq vaqtni talab qiladi. Voqea esa davr nafasi ufurib turgani uchun ham oxorini tushirmay, tezroq kitobxonlar ommasiga yetkazishni talab etadi. Ana shunday paytda ocherk janri qo'l keladi. Qisqa hajmli ocherkda qahramonlarning badiiy portretlari chiziladi, imkon boricha ularning ichki dunyosi ochib beriladi, voqeaning kelib chiqishi, ahamiyati badiiy so'z vositasida qisqa muddatda keng kitobxonlarga yetib boradi, ommalashadi. Ocherkning o'zi esa muallifning navbatdagi asariga xamir turish bo'ladiki, yirik proza asarlari yaratishda buning ahamiyati binihoya kattadir. Ocherk operativ, jangovor, hozirjavob janr bo'lishi bilan birga katta badiiy asarning xamir turishi hamdir.

Samar Nurovning respublikamizning eng nufuzli gazeta va jurnallarida faoliyat ko'rsatishining o'zi ham bu hozir javob janrda ijod qilishni taqozo qilardi. Bu o'rinda juda ko'p o'zbek adiblari, xususan, H.Olimjon, Oybek, A. Qahhor, N.Safarov, H. Nazir, S. Norboyev singari yozuvchilar gazeta va

jurnallarda ishlab, o'z ijodlarini lavhalar va ocherklar yozishdan boshlaganligini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Samar Nurov o'z zamondoshlari obrazini chizib berishni o'z ijodining asosiy yo'nalishi deb bildi. Shu sababli muallifning ocherkchilik faoliyati o'z vaqtida ilmiy – adabiy jamoatchilik e'tiborini tortdi. Xususan, o'zbek publisistikasi janrlari – nazariyotchisi, taniqli adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori professor Ochil Tog'ayevning fikrlarini keltirish o'rinlidir. U yozadi: “Samar Nurov o'ziga xos badiiy – publisistik talantga ega bo'lgan ziyrak, oychan, ocherkchidir. Bu voqelikni ijtimoiy idrok etish talantidir. Uning ijtimoiy publisistik oy– fikrlari ba'zi jurnalistlarning mulohazalari kabi serko'pik emas. S.Nurovning oy va mulohazalari hamma vaqt yangi, bama'ni, obrazlidir. U obektni loqayd kuzatuvchi sifatida emas, qalbdan his etadi, unga aktiv munosabatda bo'ladi. Uning oy – fikrlarida aql bilan hissiyot mutanosibligi hukmron. Bunday ijodiy hislatlar voqelikni o'ziga xos badiiy – publisistik kashf etadi.”¹

Haqiqatdan ham uning ocherklarida obrazli fikr, qahramon obrazidagi, uning ma'naviyatidagi bosh xususiyatni tasvirlash orqali davr va jamiyatning muhim voqealar taraqqiyoti tamoyillarini ko'rsatib beradi. Uning ko'pgina ocherklari Qarshi cho'li va uni o'zlashtirayotganlar haqida hikoya qiladi. Ularda saraton qizig'ida, kunning tig'ida mehnat qilayotgan, quruq va bo'z yerlarini o'zlashtirib, cho'lda hayot yaratayotgan cho'lquvarlar mehnati ulug'lanadi. Uning “Oltin vodiylar” to'plamiga kirgan ocherklarining aksariyati ana shunday xarakterda.

Darhaqiqat Amudaryo etaklarida ikki million gektarli ulkan Qarshi dashti estanib yotishini ko'pchilik biladi. O'zbek xalqi ana shu qadimgi daryo – Amudaryo suvini cho'lga oqizish, sahroda oltin vodiylar buniyod etishni asrlar boyi orzu qilib keldi. Lekin o'tmishda bu istak sarobdek yo'q bo'lib ketdi, royobga chiqmadi.

¹ O.Tog'ayev. Abidlar va janrlar. T. Adabiyot va san'at nashriyoti 1975. 94-95 betlar

1971–1975–yillarning o‘zidagina Qarshi cho‘lining birinchi navbatda sug‘orish va o‘zlashtirish uchun olti yuz o‘ttiz million (o‘sha davrdagi sobiq sovet davri qiymatidagi) so‘m capital mablag‘ ajratildi. Hozirda Qashqa vohasining katta qismini obihayot bilan ta‘minlab turgan Qarshi mashina kanali trassasida ishlar boshlangan edi.

Biz yuqorida taniqli ocherkshunos Ochil Tog‘ayevning Samar Nurovning ocherknavisligi bama‘ni obrazlilik bilan ajralib turadi degan fikrini keltirgan edik. Uning isbotini biz yozuvchining suv qo‘shig‘i nomli ocherkida ko‘rishimiz mumkin.” Kumishdek chayqalib, to‘lg‘anib ana suv parisi” – Amu oqmoqda. Bolalaligimda cho‘lda qoy boqib yurgan kezlarimdayoq uning qirg‘oqlarini yalab, hayqirib oqishga maftun qolganman. Daryoning ikki sohili esa dashti malik osmondek bepoyon, befayz, bo‘m – bo‘sh cho‘l tabiatan ham bu ikki oshiqning bir – biri bilan qovushishiga rashq qilgandek ularni intizorlik o‘tida qovurib qoyibdi. Qaqragan yerlar daryoga intilganidek Amu ham qirg‘oqqa sapchib, sevgilisiga qo‘li yetmagach, zarda qilgandek alam bilan Orolga burilib ketadi” (“Oltin vodiylar”, 3-bet).

Mazkur ocherk bizningcha, esse xarakterida. Chunki unda muallifning suv haqidagi falsafiy qarashlari, uning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni haqidagi qarashlari ham bayon etilgan. U o‘z qarashlarida o‘zbeklarning yer yuzidagi eng qadimiy bobo dehqon xalqlardan ekanligi, Temuriylar, Somoniylar davridagi bu o‘lkadagi dehqonchilik qanday holda ekanligini qayd etadi. Muallif, ocherk janriga xos bo‘lgan hujjatlilik va tadqiqotchilikni asosiy mezon sifatida his qiladi. Shu sababli ocherkda ko‘tarilgan asosiy muammo- o‘lka hayotidagi suv masalasini V.V. Bartoldning “Turkistonda sug‘orish ishlari tarixi”, L.V.Dudin Barkavekiyning “Qadimiy eski Anhor kanali va undan hozirgi paytda foydalanish” asari, Ahmad Donishning Amu Buxoro kanali loyihasidan, S. Ayniyning “Qullar” romanidan foydalangan holda yoritadi. Ocherk muallifi Amu bilan Qarshi cho‘lini bir-biriga “oshiq va intizor” deya ta‘riflar ekan kitobxonni bu ikki oshiq tarjimai holi bilan tanishtiradi. Va, bu tanishtiruvda yana bir muhim hujjatga murojaat

etadi. Bu hujjat dunyoni kezib chiqqan fransuz olimi Elize Reklyu (1830-1905)ning 1906-yilda Sank-Peterburgda nashr etilgan “Chelovek i zemlya”(“Yer va inson”) kitobi edi. Qashqadaryo haqida izlanishlar olib borar ekan E.Reklyuning kitobini titkilab kalavaning uchini topgandek bo’ladi va kitobxonlarni olimning kitobida quyidagi ko’chirmani keltiradi: “Hisor tog’ining janubiy yonbag’ridan Amudaryogacha bepoyon tekisliklar, qumliklar yastanib, – deb yozadi Elize Reklyu “Yer va inson” degan kitobida. – Bu yerlarni Qashqadaryo sug’oradi... Vohada g’alla, meva, tamaki, paxta yetishtiriladi.

Qarshi vohadagi muhim shahar. U bepoyon tekislikning qoq o’rtasida joylashgan. Aylanasi 9 km, aholisi 25 ming jon. Shahar Yevropa uslubida Qashqadaryoning ikki yoqasida qurilgan. Ko’chalarda gulzorlar, kumush yaproqli teraklar o’sgan. Buxoro, Samarqand, Balxga o’tadigan yo’llar shu yerda birlashadi. Qarshi bilan Amudaryo oralig’ida qumliklar bo’lib, Qashqadaryo (qashqa) ekinzorlarni sug’orib, Amuga borib quyilgan”. (“Oltin vodi”, 11-bet).

Ocherkning so’nggi sahifalarida Qarshi, Koson, tumanlaridagi bir qator bobo dehqonlarning vohaga suv olib kelishidagi jonbozliklari, Eski Anhor kanalining ishga tushirilishdagi xalq qahramonlikgi bilan tanishamiz.

Samar Nurov ocherklari mavzu va muammo nuqtai nazaridan ham bir-birini to’ldiradi. Uning “Chin mavjlari” va “Tug’ilish” nomli ocherklarida cho’lning qaqragan siynasini yashnatish uchun bunyod etilgan yirik suv inshootlari – Chimqo’rg’on va Pachkamar suv omborlari qurilishi va bu qurilishda jonbozlik ko’rsatgan mehnat pahlavonlari haqida hikoya qilinadi. Ocherkning bosh qahramoni Safar aka ombor qurilishida “qirq hunar egasi”ga aylanadi. U ham buldozerchi, skreyperchi, greyderchi, ekskavatorchi. Turli millat vakillaridan bo’lgan Do’stlari bilan cho’l qoynida yangi dengiz bunyod etadi. Ocherkda Safar akaning fidoiyligi ishonarli tasvirlangan. Buni Sardor akaning gapidan ham yaqqol sezsa bo’ladi: “Ha , dengiz bo’ladi; gapga aralashdi Safar aka suhbatga yakun yasab, - to’g’oni yeti kilometr, balandligi o’ttiz yeti metr keladi, dengizimiz kunchiqarga qarab ellik kilometrga cho’ziladi, unda yarim milliard kubometr

toshqin suv yig'iladi. Qani, dengiz bo'lganda ham haqiqiy dengiz demasdan ko'rvhi, oshno..."

Ocherkda tasvirlanayotgan voqea muallif tilidan hikoya qilinadi. Muallif obrazining berilishi va uning tilidan hikoya qilinishining esa o'z asosi bor. Chunki "Chim mavjlari"da tasvirlanayotgan voqealar, unda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari Suv ombori sifatida tanlangan joy – "dengiz"ning tagida qolib ketgan qishloqlar va bu qishloqlar aholisining boshqa hududga ko'chirtirilishi muallif ko'z o'ngida sodir bo'lgan. Yanada aniqrog'i muallif Chimqo'rg'on suv ombori qurilshida ekskavator mashinistining yordamchisi bo'lib ishlagan.

"Tug'ilish" ocherkida muallif Pachkamar suv omborining cho'l o'zlashtirilishi borasidagi o'rni haqida hikoya qilar ekan, tog' ustida dengiz yaratish jarayonida o'z zamondoshlaridan birining qayta tug'ilishini hikoya qiladi. Xususan, Davlatning hayotda qayta tug'ilishi jarayoni orqali, Mehnatning inson hayotidagi o'rni, jamoaning tarbiyasi ishonchli tasvirlangan. Ocherkda epizodik tarzda berilgan suv ombori qurilishining boshlig'i Respublikada xizmat ko'rsatgan irrigator, mehnat qahramoni M.Sherbakovning quyidagi so'zlari orqali uning rahbarlik qiyofasini kitobxon ko'z o'ngida jonlantiradi:

"Boshliq yigitning bir oz mayus, chiroyli qora ko'zlariga yana tikildi: "Odamning yomoni yo'q, tarbiyaning yomoni bor. Yoshligida biror yo'l ko'rsatuvchi odam bo'lmagan, inson mehri, himmatini ko'rmay o'sgan. Qum orasidan chiqqan oltinday yaltillab ketsa ajab emas. Eng muhim, ishlayman, mehnat bilan dog'ni yuvaman deb kelgan yaxshi so'z, ishonchning gadosi. Ishonmasang butun umri odamlarga ishonmay ketishi mumkin... Qing'ir qo'l, dog'li vijdon bilan sahroda ravon kanal qazib, toza suv keltirib bo'lmaydi" ("Oltin vodi", 20-bet).

Hayotga sinchkovlik, san'atkor ko'zi bilan qarash, turmushdagi muhim voqea-hodisalarni payqay olish uning "Sardobalar qissasi", "Samalyotdagi suhbat", "Besh suhbat", "Dil torlari" kabi ocherklarida yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan,

muallif “Sardobalar qissasi” ocherkida uning etnograf mutaxassis sifatidagi qarashlari ko’zga tashlanadi.

Ma’lumki, suv tanqis hududlarda suvni to’plash va saqlash uchun gumbaz shaklidagi maxsus qurilgan hovuz o’rta va yaqin Sharq mamlakatlarda ko’plab uchraydi. Bu hovuzni sharqliklar Sardoba deb atashadi. U 12-13 metr kenglik va 10-15 metr chuqurlikda bo’lib hovuz yuzasi yer sathi bilan bir tekisda bo’ladi. Pishiq g’isht tiklangan bu inshootda suv toza saqlanadi. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda Movarounnahrda 44 ta Sardoba bo’lib, shundan 29 tasi Qarshi cho’lida joylashgan. Endi yozuvchi hikoyasiga quloq tutaylik: “O’tmishda suvga yetolmay qonlarda bug’lanib, tomirlari qovjirab, tillari shishibm ochiq ko’zlarida sarob aks etib sahro jazirasida qolib ketgan karvonlarni esladim. Suvga yetib, ko’zi suvga toymay, chelakdagi suvga boshini botirib o’lganlarni oyladim. Qarshi, Buxoro cho’llaridagi “ipak yo’llari”dagi g’isht va ganchdan ishlangan sardobalarni go’zal suv qo’shig’i deyish mumkin” (“oltin vodi”, 26-bet).

Bir e’tibor qiling. Yozuvchining mazkur ocherki XX asrning 70-yillarida, bundan qariyb 45-yil muqaddam yaratilgan. Bu yillar sobiq sovet tuzumining totalitar boshqaruvi avjiga chiqqan, turg’unlik yillari deb atalmish davr (epoxa)ning boshlanishi edi. Yurtimiz Mustaqillikka chiqqandan keyingina “biz mamlakatimizning dunyoning jannatmakonlaridan bir ekanligini, uning mashhur “Buyuk ipak yo’li” ustida joylashganini endi endi baralla aytayapmiz. Samar Nurov esa bunday fahrlanish hislarini hali aytganimizdek bundan qariyb 45 yil burun bayon qilgan edi. Ocherkning nomlanishidan ham ko’rinayaptiki, muallif o’ziga xos-xususiyatidan xabardor qilish. Shu maqsadda asar personajlarining nutqi va dialoglari orqali qadimdan xalqni obihayot bilan ta’minlab kelayotgan bu inshootni tavsifini berishga harakat qiladi:

“ – Sardobalarning eng kaloni ana shu, bizning Kasbi Qamashi sardobamiz, - dedi ota eshagini tushovlab. U cho’lliklarga xos vazmin, hech shoshmasdi. Har bir harakati puxta, aniq, oldindan oylab qoyilgandi.

- Ichkariga kiraylik, dedim.

- Shoshma, - Bozor otaning ko'zi ufq shu'lasidan qizg'ish ko'rindi.

- Issiqdan birdan salqinga kirsang tomirlaring lat yeydi. Chatnab turganda suv ham ichma. Hozir kirsang ichging keladi. – U sardoba eshigini to'sdi va vaqt o'tkazish uchun bizni gapga tutdi.

- Ha, bu atrofda bunaqa katta sardoba yo'q. Yoz boyi uch-to'rt ming kishi suv ichadi, suruv-suruv qoy-qo'zi sug'oriladi. Bolaligimda es-es eslayman, bobom aytgan edilar, faqat g'ishtini pishirishga ellik ming sarjin yantoq yoqilgan ekan. To'rt yuz ming pishiq g'isht, g'isht bilan ganch o'rtasiga qoyish uchun to'rt yuzta qalin kigiz ketgan. Bir tomchi suv sardobadan sizib ham chiqmaydi, bir tomchi yer osti suvi sizib ham kirmaydi. Chor tomonda to'rtta yer osti "Minorasi" qurishib, sardoba ana shu "qoziq"larga g'ishtin devor – "zanjir"lar bilan tortib "bog'lab" tirab qoyilgan, u to'rt-besh yuz yildan buyon qimir etmay turibdi. Gumbazning to'rt tomonida to'rtta darcha bor. Ko'lmak suvlari yoki ariq suvi shu darcha orqali sardobaga oqadi. Undan havo kirib turadi. Suv buzilmaydi. Toza, salqin turadi.

Yuqorida kichikroq childirmadek tuynuk. –Sardoba bitgach, bosh usta shu tuynuk devoriga osilib silkingan, - dedi Bozor ota Mosharipov, -Usta me'mor ishining puxtaligi, halolligiga hayotini, vijdonini, kasb-korini, nevarachevaralarining orini garovga tikkan. U silkinganda biror g'isht ko'chsa yoki ganch sinza usta jahannamga tushib ketadi. So'ng uning urug'-aymog'idan biror kishi bu kasbga qo'l urolmaydi. Nasl-nasabi qallob degan malomatga qolib ketadi..." ("Oltin vodiy", 26-27-betlar).

Bu tasvirlarda suvga tashna bo'lib yashagan xalqning zahmatli mehnatidan tortib kelgusi avlodlarga namuna bo'laoladigan milliy qadriyatlarga asos bo'lgan xususiyatlar ham jamlangani e'tirofga loyiqdir. Ocherk kuchli publitsistik ruh bilan yozilgan. Yozuvchi fotograf ham, reportyor ham emas. U milliy-tarixiy asarlardan o'qib o'rganganlarini xalqning avloddan-avlodga o'tib, aytilib kelgan naqllari, hikoyalaridan bilib olganlarini, ko'rgan narsalarini, guvoh bo'lgan voqealarni shundaygina qayd qilib qolmasdan, ular haqida mushohada qiladi, to'g'ri xulosa

muammolar oylantiradi. Orolni saqlab qolish loyihalaridan biri Sibir daryolarini O'rta Osiyoga oqizish muammosidir. Bu juda katta iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatga egadir. Sobiq Ittifoq rahbariyatining tadbirlaridan edi. Katta avlod vakillari yaxshi eslasalar kerak: bu tadbir o'z paytida ancha –muncha bahsga sabab bo'lgan edi. Sobiq Ittifoq matbuotida Rossiyalik mutaxassislardan ham, O'zbekistonlik mutaxassislardan ham bu tadbirni loyihani qo'llab-quvvatlovchilar bilan birga bu loyihaning zararli tomonlari haqida bot-bot maqolalar fikrlar e'lon qilingan edi. Sobiq Ittifoq tarqalib ketgach, bu masala unchalik ham kun tartibiga qoyilmadi. Chunki, bu ikki-uch mustaqil mamlakatlarning ichki va tashqi siyosatiga bog'liq bo'lgan va tashqi siyosatiga bog'liq bo'lgan xalqaro muammo tusini oldi.

Ocherkchi Samar Nurov o'sha vaqtning o'zidayoq o'z asarida Sibir daryolarini O'rta Osiyoga oqizishdan iborat bu muammoli tadbirning ma'lum qiyinchiliklarini uning tabiiy, obektiv oqibatlarini ham hisobga olish zarurligini uqtirga edi. Lekin tabiat bilan hazillashib bo'lmaydi. Buncha suv kelsa, yer osti suvlari ko'tarilibm tuproqdagi tuzlar sizib chiqib, hozirgi ekinzorlardan ham ajrab qolmaymizmi? Ha, muammolar juda ko'p. Bu masalalar bilan 25 ta ilmiy-tadqiqot va loyihalash instituti shug'ullanadi.

I- BOB bo'yicha xulosalar:

-Samar Nurov Orol muammoasiga mustaqil paxtakor O'zbekistonning kelajaginuqtai nazaridan Orol grajdanlik ruhi bilan munosabat bildirgan va bu muammoni hozirgi davr ilmiy-texnika muvaffaqiyatlari hal etishi mumkin bo'lgan darajada tadqiq etilgan.

- Samar Nurov ocherklarida u qaysi muammo bo'lmasin-,a'naviy-axloqiymi yoki ijtimoiy-iqtisodiy muammoni uni ma'naviy-psixologik tadqiqot hamda obrazli yo'sinda badiiy talqin etish yetakchlik qiladi.

–Taniqli o'zbek adibi – Samar Nurovning bir qator hikoyalari asosida kinofilmlar ishlangan. Uning asarlari sobiq ittifoqning “ Sovetskiy pisatel “ nashriyoti “Drujba narodov” jurnallarida chop etilgan hamda rus, bolgar, ukrain, azarbayjon, turkman, tatar, qozoq, turk, tojik va eston tillariga tarjima qilingan.

–Adabiyotning mohiyatini teran tushungan adibimiz o'z asarlari bilan zamondoshlariga hayot haqida badiiy estetik zavq berish bilan birga, ular ruhiy olamini boyitishga, qalblarida ma'naviy e'tiqodlarining ravnaq topishida mas'uliyat bilan ijod qildi.

II.BOB. HIKOYA VA BADIY MAHORAT

2.1. Hikoyalarda hayot va inson madhi

XX asrning 70-yillarida o'zbek adabiyotida hikoyachilik janrida faol qalam tebratganlardan biri Samar Nurov bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmas. U bu davrga kelib yozuvchilik sirlarini ancha o'zlashtirib olgan ko'rinadi. Chunki u ocherk va hikoya kabi kichik-kichik epik janrda tajriba orttirgan edi. Shu tufayli ham uning o'sha davrdagi, xususan 70-yillardagi ijodi adabiy va ilmiy jamoatchilik e'tiborini qozondi. Bu o'rinda ustoz Ozod Sharofiddinov va R.Fayzli, X.To'xtaboyevlarning fikrlarini eslash o'rinlidir. Adib bu davr ichida "CHO'l uyg'oq", "Durdona", "Bir uy quvonch", "Beda hidi", "Bodom guli", "Qur-ey, qur-ey", "Yaylovdagi gulxanlar", "Saharxez qushlar" nomi hikoyalar to'plamlarini nashr qildirdi, gazeta va jurnallar sahifalarida hikoyalari bilan qatnashib turdi.

Yozuvchining mehnatkash xalqi erishayotgan muhim voqealar, xususan ularning milliy qadriyatlarimizga bo'lgan muhabbati, paxtakorlik va chorvachilik kasbiga bo'lgan mehr, yoshlarning o'z avlodlari udumini o'zlashtirishlariga bo'lgan qiziqishlari ilhomlantiradi, ularga nisbatan iftixor tuyg'ularini uyg'otadi, qalbini hayajonga soladi. Darhaqiqat, har doim ham davrning ko'z-qulog'i bo'lib, turadigan, xalq hayoti bilan hamnafas bo'lgan qalam sohiblari mas'uliyat va faollik bilan ijod qilganlar.

Samar Nurov ana shunday yozuvchilar safiga mansub adib, bo'lib yetishdi, shu tufayli ham o'z hikoyalarida zamondoshlarining yaratuvchilik mehnati, ma'naviy qiyofasi yangicha xulq-atvorini badiiy aks ettirishga astoyidil kirishdi. Bo'yo'lda hayotni va undagi voqelikni chuqur o'rgandi, badiiy tahlil etdi, uni haqqoniy badiiy ifodalash uchun izlandi. Mahorat–sirlarini qunt bilan egallay bordi. Boshqa yozuvchilar kabi Samar Nurovga ijodiy yuksalishida jahon va o'zbek hikoyachilik maktabi bitmas-tuganmas xazina, ijod maktabi bo'lganligi shubhasizdir.

Bu intilish va harakatlarning hammasi Samar Nurovni ilk hikoyalaridanoq o'quvchiga manzur asarlar yozishga olib keldi. Adibning yuqorida qayd etganimiz-hikoyalar to'plamlaridagi asarlaridayoq muhim hayotiy voqealar, ijtimoiy

masalalar ko'tarilib chiqilgan. Bu asarlarni o'qigan kitobxon beixtiyor o'yga toladi, hikoyalar qahramonlariga ergashib, mushohadaga beriladi.

Har bir janrda bo'lganidek, hikoyachilik mahorati ham mavzu tanlashdan boshlanadi. "Mavzu tanlay bilish hikoyachilik texnikasining asosini tashkil etadi, – deydi dominikan yozuvchisi Xuan Bosh. Har qanday hodisa hikoya uchun material bo'lavermaydi. Hikoya, so'zsiz, qandaydir muhim faktning tasviridan iborat. Agar hikoya asosida yotgan hodisa arziyas bir narsa bo'lsa, uning ifodasi hikoya emas, shunchaki bir lavha bo'lib, o'tgan voqening oddiygina bayoni bo'lib qolaveradi".¹

Buyuk rus tanqidchisi V.Belinskiy ham hikoya janri haqida gapirganda hikoya uchun olinadigan materialning xarakteri masalasini alohida ta'kidlab o'tgan edi. U yozadi: "Qachondir va qayerdadir "povest"²—bu kishilik taqdirining poyonsiz poemasidan epizod" deb juda yaxshi aytilgan edi. Bu juda to'g'ri fikr;—Ha, povest qismlarga, minglab bo'laklarga bo'lingan romandir; romandan olingan boblardir...Shunday voqealar, shunday hodisalar borki, ular drama uchun kifoya qilmaydi, ulardan roman chiqmaydi deyish mumkin; biroq ular nihoyatda – chuqur, asrlar davomida unutish mumkin bo'lmagan hayot haqiqatini shundoq o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi, povest ana shunday voqea va hodisani tanlab oldi va o'zining tor ramkasida ifoda etadi".³

Samar Nurovning hikoyalari samiymligi, zamondoshlari qalbiga ezgulik tuyg'ulari va insoniylik fazilatlarini singdirish xususiyatlari hamda davrning muhim ijtimoiy masalalarining qalamga olinishi bilan kitobxon diqqatini tortadi. Uning "Bodom guli" hikoyalar to'plami ana shunday fazilatlarga ega bo'lib unda inson va jamiyat, tabiat va inson, farzand va ota-ona munosabati kabi ijtimoiy – ma'naviy masalalar qalamga olingan. Masalan, "Shu'la" hikoyasini olib qaraylik. Unda o'z davrning eng muhim muammolaridan biri ilmiy-texnika taraqqiyoti qishloq turmushiga kirib kelishi hamda uning odamlarning ma'naviy hayotiga o'tkazayotgan tasviri berilgan. Katta xo'jalikka ko'p yillar rahbarlik qilgan Ahmad

¹ Xuan Bosh. Vozmojnosti rasskazi "Inostrannaya literaturnaya" 1963, 8-son, 233-bet.

² Belinskiy davrida povest va hikoya bir janr sifatida qaralgan. Bu o'rinda Belinskiy hozirgi tushunchadagi povestni emas, hikoyani nazarda tutadi.

³ V.G. Belinskiy. Tanlangan asarlar. T.: O'zadabiy nashr, 1955, 112-113-betlar.

polvon – hikoyaning bosh qahramoni. U xizmatlari evaziga katta obro‘ orttirgan. Mehnat qahramoni bo‘lgan. Shunday obro‘li rahbar birdaniga ixtiyoriy ravishda raislikdan voz kechib, tuman rahbariyatidan o‘z o‘rniga yosh agronomni tavsiya qiladi. Agronom yosh bo‘lsa-da paxta ilmini yaxshi bilgan mutaxassis. Boshqa asarlardagi kabi ular o‘rtasida mansab uchun kurash zamiridagi ijtimoiy konflikt yo‘q.

Hikoyada tasvirlanishicha rayonning birinchi rahbari Jamolov tomonidan “Sharq” xo‘jaligining hisobot saylov yig‘ilishi vakil qilib yuborilgan Asadov kutilmagan voqeaning ustidan chiqadi. Xo‘jalik rahbari jamoa uning o‘zini qayta saylashni taklif qilsa ham rozi bo‘lmaydi. Bu holda gangib qolgan vakil bu voqeadan tumanning birinchi rahbarini xabardor qilish uchun shoshilinch ravishda telefon qiladi:

– O‘zi nima gap? Aniqroq ayting.

– Ariza, rais ariza berdi. Partkomga, umumiy yig‘ilishga, bittasini raykomga ham yozib qo‘yibdi.

– Ahad polvon-a?

– Ha...Bo‘ldi, deydi. Sababini aytmadi. Bu charaqlab turgan bulutsiz osmondan birdan qor yog‘ayotganday gap edi.

– O‘zi sog‘mi?

– Otday.

– Oldinroq aytmabsiz-da.

–Majlis boshlanishida aytdi o‘ziyam. Shov-shuv nima kerak, rayonda ham keyin bilishar, o‘zlaring hal qilinglar, dedi.

– O‘rniga kimni saylashmoqchi?

– Polvon, Jo‘ra qolsin o‘rniga, deyapti.

– Kolhozchilarchi?

–Polvonning salobati bosdimi, oldin, o‘zingiz qoling, deyishdi-yu, so‘ng indashmadi.

Jamolov o‘ylanib qoldi. Trubkadan Asadovning nafas olgani eshitilib turardi. So‘ng vazminlik bilan:

Mayli bo‘lar ish bo‘pti,-dedi”. (“Bodom guli” 7-8-betlar)

Yuqorida aytganimizdek, aslida badiiy konflikt yo‘q. Biroq hikoya boshlanishidagi tasvirda guyo voqealar dramatik tusda davom etadigandek tuyuladi. Chunki tasvirda berilgan dialogdagi vaziyat guyo dramatism bilan sug‘orilgandek. Biroq bu yerda Samar Nurovning tasvir usuliga xos muhim xususiyat ko‘zga tashlanadi. Hikoya qahramoni Ahmad polvon va uning nutqi, ichki kechinmalari orqali bayon qilingan tasvirlarda muammoni konfliktsiz amalga oshiriladigan munosabat mavjud. Bu munosabat hikoya qahramoni Ahmad polvonning xarakter talqinida ochib beriladi.

Yozuvchi uslubiga xos yana bir muhim xususiyat tasvirlanayotgan voqea-kolxoz hisobot-saylov yig‘ilishida ishtirok etmagan tuman rahbari Jamolovning Ahmad polvon obrazini xarakterlashga qodir munosabatini berishda ko‘rinadi: “Polvonning shunday odati bor. Oldin bir narsani aytmaydi. Aytsa-qaytmaydi. Ammo...Xo‘jalik katta, sertarmoq. Yosh yigit qiynalib qolmasmikan?

Obbo chol-ey! Yo‘q, chol emas. Erkak kishi oltmishda qarimaydi. Sog‘ligi ham yomon emas. Oltin Yulduz oldi. .deputat. planlar to‘lgan. Obro‘yim borida chetga surilib chiqay, debdi-da. Qarilikni bo‘yniga olibdida.

Qiziq, u og‘irning ustidan, yengilning ostidan yuradigan kishilar toifasidan emas edi–ku. Og‘ir yo‘llarda ham bir og‘iz nolimagan. Kolxoz endi ravon yo‘lga chiqib olib, butun respublikaga tanilganda...Yo‘q biron voqea bo‘lgan. Polvonki ariza beribdi, demak, bir gap bo‘lgan! Ba’zi raislar ketish oldidan mashina olib, hovliga garaj qurdirib, uy-joyini sozlab qo‘yardi. Polvon bu taraddudni ham ko‘rmadi. Borib o‘zi bilan gaplashish yuragidagi dardni bilish kerak” (“Bodom guli”, 8-bet).

Kitobxon tuman rahbarining bo‘ so‘zlarini o‘qib u bilan birga Ahmad polvonning iste’fosi masalasiga qiziqib qoladi. Ahmad polvonning hayoti, raislik faoliyati bilan tanishgach, insonning yashash va yaratmoq orzusidagi xayollariga

hamdard bo‘ladi. Chunki, inson hayotida taqdirida yangilikni o‘zlashtirish, o‘zgartirish, kerak bo‘lgan ijtimoiy muhit ta’sirida yangiliklar ixtirochisi bo‘lishi xususida o‘yga toladi.

Chunki inson hayotining taraqqiyot bosqichlarida o‘zining faoliyati va dunyoqarashida yangicha ijtimoiy belgilar, xususiyatlar kasb etadi. Ruhan va ma’nan yangilanish asosida hayotda uning ijtimoiy faolligi va ma’suliyati oshadi. Hikoyadagi o‘ziga xoslik va samimiylik shu yerdaki, muallif ilmiy-texnik taraqqiyot davridagi zamon bilan qadam tashlashda o‘zining bilim tajribasi va ko‘nikmasi yetarli bo‘lmagan rahbarning yangilanishlar yo‘lida g‘ov bo‘lmaslik kabi ma’naviy yuksakligini zamondoshlariga namuna sifatida tasvirlangan edi. “Ota bilan bola”, “Ko‘rnamak”, “Bodom gullaydi”, “Bir uy quvonch” kabi hikoyalari ham kitobxon qalbiga iliqlik bag‘ishlaydi.

Shuni aytish kerakki, otalar va farzandlar masalasi, xususan, ota va bola munosabati masalasi adabiyotimizda eng ko‘p tasvirlanib eng ko‘p talqin qilinib kelayotgan masalalaridan hisoblanadi. Ayniqsa, ota obrazi, ota bo‘lganda ham butun umrini farzandlar tarbiyasiga, ayniqsa o‘g‘il farzandlarining hayotdan o‘z o‘rnini topishida butun borlig‘ini bag‘ishlagan, yoshi bir joyga borib qolgan otalar obrazi yozuvchi asarlarida, xususan, hikoyalarida tasvirlanishi uning ijodiy uslubiga xos xususiyatdir. Buning yorqin misoli sifatida uning “Ota va bola”, “Ko‘rnamak” hikoyalarini olish mumkin. Eng e’tiborlisi har ikki hikoyada yaratilgan ota obrazlari ikki xil qiyofadagi kishilardir. Har ikkala hikoya asosida ham hayotiy voqea yotadi. Birinchi hikoyada cholning mehrga to‘la qiyofasi, farzandning esa beoqibat fe’l atvori kitobxon ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi.

Soqijonni otasi bor-budini ayamadan, yugurib yelib o‘qitadi. U o‘qishni tugatib, shaharda ishda qoladi. Ota-onasi, ukalarining ahvoli uni qiziqdirmaydi. Hikoyada ota va bola psixologi juda hayotiy chizilgan. Chol-ota shaharlik o‘g‘lidan darak bo‘lmagach, kampiri bilan maslahatlashib ikki ko‘zi to‘la xurjunni yelkalab uzoq shaharga otlanadi: “Tongda katta yo‘ldan temir yo‘l bekatiga qatnaydigan birinchi mashinaga yetib olmoqchi. Bo‘lmasa poyezddan qolib

ketadi...Chol tez-tez nafas ola boshladi. Yelkalari zirqiradi. “Qaribman, Soqijon institutda o‘qib yurgan kezlarda bundan ikki barobar ko‘p yukni katta yo‘lgacha dam olmay ko‘tarib borardim. Hozir bir xurjunga o‘pkam tomog‘imga kelib yopishdi. Yaxshiyam quvvat, borida Soqijonni o‘qitib olgan ekanman. Ukalariga endi o‘zi, qarashar” (“Bodom guli” 20-bet).

Ana shu orzu-umidlarda farzand o‘stirgan otaning butun niyatlari sarobga aylanadi. Shaharlik o‘g‘il mehr-murruvat o‘rniga otaga bepisandlik bilan munosabatda bo‘ladi. Kayf bilan uyga kelgach ota bilan dardlashish, hol-ahvol so‘rash o‘rniga, til uchida muamola qiladi, xotini bilan kinoteatrga ketadi, tomoshadan kelgach, “yo‘lda charchab kelgansiz, endi yoting, ota” deya muamolada bo‘ladi. O‘g‘ilning bu “odamgarchiligidan” bezgan ota kelinning bir-ikki kun qoling deyishiga ham e‘tibor bermay qishloqqa qaytadi. Kitobxon cholning qiyofasida va ichki dunyosida yuzaga kelgan afsus-nadomatni ham, vajohatni ham anglab yetadi: “Chol tunda keldi. Xurjun va to‘rvani ayvonga qo‘yib, tomoq qirib yo‘taladi. Chiroq yoqilgan undan kampir shoshilib chiqdi...

–Qani, shaharlar tinchmi?-cholning xayolini kampir buzdi.–O‘g‘il, nevaralaringiz sog‘mi?

–Hammasi sihat-salomat, o‘ynab-kulib yurishibdi.–Cholning tovushi bir oz bo‘g‘ilibroq eshitildi. Kampir shundayoq uning vajohati bir oz buzilibroq qaytganini. Unga bergan savoli ortiqchaligini sezib jim bo‘ldi. “Kelin biror nojo‘ya gap aytib, xafa qilganmikan? YO...” Issiq choy qo‘yib, piyolani uzatdi:

–Iching charchab kelgansiz.

–Kech bo‘lsa ham to‘yga borib kelay, chol yuziga fotiha tortib, o‘rnidan turdi. Kovushini kiyib, darvoza tomon yudi. Kampir cholning ko‘ngli nimadan xira tortganini bila olmay, orqasidan tashvishli termulib qoldi”. (“Bodom guli”, 27-bet).

Kitobxon yozuvchining “Ko‘rnamak” hikoyasida esa “Ota va bola” da tasvirlangan voqeaning aksini ko‘radi. Hikoyada hayotiy voqea qalamga olingan. Biroq unda qalamga olingan voqealar ko‘lami ancha zalvorli. Hikoya asosida farzandlar tarbiyasida o‘z burchini unutgan insonning qiyofasi chizib berilgan.

Asardagi Abdurasul hayotidagi voqealar bayoni orqali insoniylik fazilatlari anchayin ishonarli va ta'sirli lavhalarda beriladi. Ma'lum bo'lishicha Abdurasulning yoshligida onasi qazo bo'lgach, otasi Jannatxon ismli ayolga uylandi. "Onang o'gay bo'lsa otang begona" deganlaridek Abdurasulga ota begona bo'lib qoladi. O'gay ona Abdurasulni farzand o'rnida emas, yugurdak o'rnida ko'radi. O'z otasi va o'gay onaning zug'umidan bezor bo'lgan o'n ikki yoshlik Abdurasul uzoq bir qishloqdagi tog'asinikidan qo'nim topadi. Ilm va kasbga tirishqoqligi bilan hayotdan o'z o'rnini topadi. Tog'asi uni qo'shnisining mo'mingina qiziga uylantiradi. Otasidan ko'rmagan mehr-oqibatni u qaynona-qaynotasidan topadi.

Shu orada tog'asi qazo qiladi. Tog'asidan ko'rgan muruvvatga javoban va odamgarchilik fazilatlari bilan uning oilasidagi tashvishlarni ham o'z yelkasiga oladi. O'qib agranom-muhandislik diplomini oladi. Qishloq ahli o'rtasida hurmat qozonib tuman va viloyat kengashga deputat bo'ladi, Respublikada xizmat ko'rsatgan mexanizator unvoniga sazovor bo'ladi. Uning hayotidagi bu muvaffaqiyatlardan xabar topgan ota xotini bilan Abdurasulnikiga mehmonga kelishadi.

Hikoyada yozuvchi Abdurasulning boshidan kechirgan voqealarini, ayniqsa uning ichki kechinmalarini birma-bir yorita boradi: "Xurрак eshitildi. Abdulasul par yostiqa osmonga qarab yotgan cholning qurigan maysadek tikkayib turgan bir tutam soqoliga qaradi, otasimi shu odam? Ota...bu so'z qulog'iga begonadek eshitildi. Bu so'zni aytganda "ona" deganidek iliq bir hisdan tipirchilamadi. Ehtimol, bu odam bola ko'ngliga ota so'zi bilan birga iliq mehr-muhabbatni qo'shib sola olmagan uchundir. Otaning mehri ham onaning muhabbatidek issiq, yoniq bo'ladi, deydilar – ku! Nega...

Abdurasul o'zi ham tushunmaydigan bir xil bilan o'rnidan turdi. Ko'rpa olib chiqib, otasidan nariroqqa joy solib yotdi" ("Bodom guli" 31-bet).

Bizning hikoya bosh qahramoni Abdurasulning ana shu kechinmasi kitobxon uchun asar syujetidagi tugunni ham, voqea rivojini ham, va hatto kulminatsiyasini ham topib bergandek badiiy quvvatga ega.

Boshqa xotin bilan o‘z huzur-halovatini o‘ylab hayot kechirgan otaning o‘g‘il uyiga mehmonga kelishi, uning katta izzat-ikrom bilan kutib olinishi esa xalqimiz ma’naviyatiga xos fazilatlarining, undagi milliy qadriyatlarning barhayotligiga ishoradir. Asar yechimi esa bu bemehr otaning ko‘rnamakligini ochish bilan yakun topadi. Katta hurmat sovg‘a-salomlar bilan kuzatilgan ota bir oylar chamasi vaqtdan keyin o‘g‘li Abdurasul ustidan tegishli tashkilotlarga “o‘g‘lim yordam bermaydi, yetti jon bilan yolg‘iz o‘zimni tashlab qo‘ydi” deb shikoyat xati yozadi:

“Abdurasul titrab o‘rnidan turdi. Qog‘oz barmoqlari orasidan sirg‘alib, stulga tushdi. Qulog‘i ostida bundan yigirma to‘qqiz yil avval aytilgan qarg‘ishlar jaranglab ketdi: “O‘z onangni boshini o‘zing...” “Badbaxt”.

Uni shu paytgacha tug‘ilgan qishlog‘iga, otasiga qarindoshlariga tortib turgan yuragidagi mayingina ip uzilgandek bo‘ldi.

“Endi xotini, qaynota-qaynonasi, bolalari, hamqishloqlari ko‘ziga qaysi yuz bilan qaraydi?” (“Bodom guli” 36-bet)

Samar Nurovning bu hikoyasi odob-axloq, oila va farzandlar oldidagi burch masalalariga bag‘ishlanganligi, odamiylikni asrash kerakligini uqtirish bilan birga hayotda ahyon-ahyonda bo‘lsada ana shunday ko‘rnamaklar ham mavjudligidan o‘z zamondoshlarini ogoh etadi.

Onalar oborazini yaratish ulardagi milliy qiyofani jonlantirish, bolajonligini ulug‘lash Samar Nurov hikoyalarining yetakchi motivlaridan hisoblanadi. Uning ba’zi hikoyalaridagi voqealarning xarakteri – asar ekspozitsiyasidan ko‘zga tashlanib, ayrim voqealarni qahramonning ruhiy holatidan boshlab tasvirlash lozim bo‘lsa, boshqa birlarini xarakterli peysaj bilan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ba’zi hikoyalarda voqeani dialog bilan boshlashni afzal ko‘radi. Yana boshqasida bevosita hikoyadagi personajning adabiy makon ichidagi xarakterini ko‘rsatish bilan boshlaydi. Ana shu fikrlarimizning isbotini adibning “Bir uy quvonch”,

“Onalar” kabi hikoyalarida ko‘rishimiz mumkin. “Bir uy quvonch” ekspozitsiyadayoq asar qahramoni Tunuq momoning odamshavanda va bolajon xarakteri bilan tanishamiz. U shahardagi nevaralarini sog‘ingan. Biroq qish cho‘zilib ketgani uchun kunlar ilib ketishini kutadi. Va nihoyat Qashqadaryo qirg‘oqlari maysalar bilan bezangach katta keliniga ismaloq somsa, yog‘li kulcha yoptirib yo‘lga otlanadi. Yozuvchi asar ekspozitsiyasidagi personajlar dialogida Tunuq momo fe’li-atvoriga xos chizgilarni bera boshlaydi:

–Kuzatgani qo‘ni-qo‘shnilar, qarindoshlar kelishadi.

–Mullo oyim, aeroplonda uchasizmi?

–Yo‘g‘-e, bolojonim. Oyog‘i yerga tegmaydigan narsaga ishonib bo‘larmidi.

Moshin, poyezddan tinchi yo‘q.

–Noskadini unitmang, xumori tutib yo‘lovchilar bilan urishib yurmang yana...

Kampir kelinini chaqirdi..Ha, nima demoqchi edim!? Nevaralarimdan boxabar bo‘l. Aeroplondan g‘o‘zalarga dori sepishsa ariqda cho‘milishmasin. Mevalarni yuvib yenglar: Darslarini qilmasa ham ko‘p urishma. Yuragi o‘ksib, o‘smay qolishadi” (“Bodom guli”, 36-bet).

Hikoyada tasvirlanishicha, kampirning katta o‘g‘li Toshkentga ukasi Kamolga kolxoz idorasidagi telefondan qo‘ng‘iroq qilib xabar qiladi. Biroq texnik nosozlik tufayli kampirning qaysi vagonda kelayotgani Kamoljonga eshitilmay qoladi. Xullas, poyezd Toshkentga kelgach, vokzalda ona-bola topisha olmaydi. Taksi mashinasi shofyori Tunuq momoni manziliga yetkazish maqsadida Toshkentni aylanib chiqadi. Biroq adresi noaniq bo‘lgach, Kamoljonning manzilini topolmaydi. Ancha axtarishlardan keyin kampirni o‘z uyiga olib keladi.

Yozuvchining voqea tasviri davomidagi o‘ziga xos badiiy mahorati shundaki, bitta oddiy badiiy detal-telefonning texnik nosozligi tufayli syujet chizig‘idagi holatni taranglashtiradi. Kitobxon Tunuq momo sarguzashti va xarakteri orqali o‘zbek xonadoniga xos bo‘lgan muhim fazilat mehmondo‘stlik, insonni-qariyalarni qadrlash duogo‘ylarimizning hayotligida izzat-ikromini joyiga qo‘yish, ko‘zlari nursizlanib, qaddi-qomati dol bo‘lsada o‘z jigarbandi sog‘inchida yashayotgan

keksalarning qadriga yetish masalasi ko'tarilayotganidan voqif bo'ladi. Kampirni o'z uyiga qo'ygach, mashinasini garajga joylashtirib qaytgan taksichining quyidagi kechinmalari aynan yuqoridagi qayd etganimiz farzandlik tuyg'ularining ifodasidir:

“Yigit qaytib kelganda kampir lo'labolishga suyanib uxlab qolgan edi. Ko'k tomirlari bo'rtib turgan oriq qo'lida yaltiroq noskadi. Oppoq sochlari ro'moli ostidan chiqib, quloqlarini yopib turibdi. Oyog'ida yangi maxsi. “Bu bosh nimalarni ko'rmagan? Shunday bo'lsa ham boladay sodda-ya! Yigit kampirning ustiga ko'rpacha yopib, yuziga qaradi. Kampirning ajin bosgan beozor chehrasida mayus bir mehr, soddalik bo'rtib turardi”. Juda g'alati yo'lovchi topibman. Qani endi mening ham shunday onam bo'lsa. Boshimda ko'tarib yurardim. Afsuski, dunyoda ota-ona yolg'iz bo'ladi. Yigit ertalab kampirning yonidan o'tib ketmaganiga suyunadi. “Qayerlarda ovora bo'lib yurardi hozir. Mening ko'nglim ham tinchimasdi”.

Yigit katta uyga kirdi. Bolalarning biri qurut, biri yong'oq hovuchlab o'ynab yurishardi. Xonadonga kampir bilan fayz kirganday. “Yo'lovchi emas, bir uy quvonch keltirgan ekanman”, deb o'yladi yigit suyunib” (“Bodom guli”, 40-bet).

Ushbu hikoyaning birgina o'zidan yozuvchining badiiy detaldan foydalanish mahoratini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, detal (fransuzcha-tafsilot, maydachuyda) “badiiy asarda muayyan mazmun ifodalovchi, g'oyaviy-badiiy yukni tashuvchi tafsilot. Avvalo, detal badiiy voqelikni yaratish vositasi-ashyosi bo'lib, u tasvirlanayotgan narsa-hodisani konkretlashtiradi, uni hissiy idrok qilish mumkin bo'lgan tarzda gavdalantiradi. Boshqacha aytsak, detal asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi (ya'ni u hamisha predmetlikni ko'zda tutadi), detallarning birikuvi natijasida o'sha obraz ko'z oldimizda butun holda namoyon bo'ladi. Badiiy detal ortida ma'lum bir real mavjud: Maishiy turmush yoki joy tafsilotlari, portret chizgilar va shu kabilar. Shuningdek, personajning imo-

ishoralari (test) tana holati (proza), xatti-harakati, gap soʻzlari ham detal sanaladi, ular bari birgalikda konkret inson obrazini gavdalantiradi”.¹

Badiiy asarda xususan hikoyada detaldan qanday foydalanish kerakligini mumtoz hikoyanavisimiz A. Qahhor oʻzining “Anor”, “Ming bir jon”, “Toʻyda aza”, “Igʻvogar”, “Dahshat” kabi asarlarida benazir misolini bergan. Samar Nurovda ham badiiy detaldan foydalanishda ustozlar ijodiy tajribalaridan foydalanganligini koʻrishimiz mumkin. Uning “Bir uy quvonch” hikoyasidagi Tunuq momoning portretidagi baʼzi chizgilar ismaloq somsa, yogʻli kulcha, tugunchasidagi qurut, xoʻrozqand kabi detallar uning xarakter qiyofasini shundoq gavdalantirib berish bilan birga, ayni vaqtida hikoya sarlavhasida – yozuvchi ijodiy niyatidagi mohiyatni ochib beradi.

Yozuvchining “Onalar” hikoyasida qoʻllanilgan badiiy detal ham asar mohiyatini ochishga qaratilgan. Xususan, hikoyadagi barcha voqealar, albatta detal oʻrnida keltirilgan epizodik voqealar ham asar markazida turgan Ona obrazini ulugʻlashga qaratilgan. Bu fikrimizni misollar asosida isbotlashga harakat qilamiz. Hikoya qahramoni Iristoy Muborak neft-gaz ekspeditsiyasida shofyor boʻlib ishlaydi.

Uning Mugʻlonda yakkayu-yagona buvisi bor. Har zamonda momosini koʻrgani keladi. Yozuvchi uning momosining portretini chizib oʻtirmaydi. Momoning nutqidan farzand oromi, uning kelajagini oʻylovchi Ona qalbining sadosi sezilib turadi: “Meni unutma. Koʻmgani kelgin”. Koʻzlarimni shu qoʻllaring bilan yumasan,—kampir nevarasining katta qoʻllarini ushlab, yuzlariga koʻzlariga surtdi...”

Hikoyaning “Onalar” deb atalishi bejiz emas. Bu hikoyani shartli ravishda onalar haqidagi ikki qismdan iborat asar deb ham atash mumkin. Negaki, hikoyaning har ikki qismida ham oʻzbek xalqi ayollarining, onalarimizning farzand baxt-saodatini oʻylaydigan, saxovatli vakillari obrazi yaratilgan. Hikoyaning har ikki qismdagi asosiy obraz – Iristoy. Uning birinchi qismida Iristoyning bolajon

¹ D. Quronov va b. Adabiyotshunoslik lugʻati. T., 2010, 89-bet

buvisi qiyofasi chizilgan bo'lsa, ikkinchi qismida cho'ldagi o'tovda Qodir choli bilan chorvachilik qilayotgan Oysha xola qiyofasi chizib beriladi. Bu qismda tasvirlanishicha Iristoy cho'lda adashib qoladi. Yozuvchi voqea oqimini yanada taranglashtirish maqsadida ana oldin bo'lib o'tgan voqea tafsilotining qisqacha bayonini beradi. Unda tasvirlanishicha Iristoy Qodir cholning Toshkentdagi aspirant o'g'li Solihni bu kimsasiz cho'lga mashinada mindirib kelgani, bu mehmonning boshidan qo'loqchinini olgach, tanib qolgani, uni samimiylik bilan mehmon qilgani chol-kampirning mehr va minnatdorchilikka to'la odamgarchiligi bayon etiladi. "Oysha xola Iristoyga joy soldi:

—Bu yoqqa o'tib cho'zil, bolam. Aytganday, ostingda mashinang bor. Tez-tez shahar borib turasan. Solihjonni ko'rsang ayt, nevaralarimni olib, bir kelib ketsin. Biz onalar kuta-kuta ko'nikib ketganmiz. Juda bo'lmasa ko'z yoshi bilan yurakni sovitib olamiz. Otangga qiyin. Juda sog'ingan o'g'lini. Menga bildirmaydi-yu, it vovillasa ham, mashina o'tsa, ham, yo'lga tikiladi. O'g'limni ko'rib qolsang, qo'log'iga shipshitib qo'y...

Iristoy uxlab qoldi. Tushida buvisini ko'ribdi. U darvoza oldiga chiqib, yo'lga tikilib turgan emish. Ertalab Oysha xola unga bir klsa go'sht, ikkita nonni ro'molga tugib berdi. Ona qor dengizi ustidan so'zib borayotgan mashinaga termilib qoldi ". ("Bodom guli", 54-55).

O'zbekiston xalq yozuvchisi Rahmat Fayziy yozuvchi hikoyachiligi haqida shunday degan edi: "Samar shingil hikoyalari bilan o'zbek adabiyotida unitilayotgan janrga qayta jon bag'ishladi". Haqiqatdan ham u bir qator hikoyalarda katta ma'no tashuvchi falsafiy xulosalar chiqardi. Xususan, "Elak" nomli hikoyasidagi ona va bola suhbatini orqali hayotiy falsafa talqin etiladi. Hikoyada unni elakdan o'tkazish misolida jamiyatda nopok kishilarning ozmi-ko'pmi borligi ogoh etilib, yaxshilar ichida o'ralashib yurgan nopok kishilarning ham elaydigan elak bo'lishini istagan bola savoliga onaning javobi bilan hayotning o'zi elak ekanligi uqtirilgan.

Asar g'oyasi yozuvchi tomonidan quyidagicha ifodalanadi: "Supra yozib, qopdan un olib, elakdan o'tkazar onam, qipiq, qiltiq, xas-xashakni bir chetga to'kib:

—Olib bor, oxurga sol. Sigirga tortiq — deydi.

Saralangan oppoq uning yumshoq xamiri tandirdan oltin rang, xushbuy kulcha bo'lib chiqadi.

—Koshkiydi,— deyman,—odamlarni ham saralaydigan shunday elak bo'lsa.

—Bor,—deydi onam,—so'zi, ishi odamlarning elagi, ham toshu-tarozisi.

Shingil hikoyalarining ko'pchiligi kitobxonni xalqning hayotiy tajribasi asosda to'plangan hikmatomuz, umrboqiy qadriyatlari bilan tanishtiradi, ularni hayot haqida o'ylashga, mushohadakorlikka yetaklaydi. Ularning ko'pchiligida voqea harakati yoki personaj faoliyati ko'zga tashlanmaydi. Hikoya asosidagi poetik g'oya muallifning nutqidagi talqini orqali bayon qilinadi.

Yuqorida to'xtaganimiz "Elak" hikoyasida yozuvchi odamlarni ham saralaydigan elak bo'lishini niyat qilgan bo'lsa, "Yong'oq" da uning mag'zi bekorga odam miyasidan andoza olinmagani, "Ko'zing qaro bo'lsin, mayli..."da esa inson ko'zi qanday rangda bo'lishidan qat'iy nazar qalbi pok niyati to'g'ri bo'lishini, "Safarda" odamzodning joni halqumiga kelgandagina "Ona" deb iltijo qilishini — doimiylikda ko'rishini istaydi.. endi ushbu hikoyalarda yozuvchi pozitsiyasini ifodalovchi asar qahramonlari—"men"i orqali aytilgan falsafiy qarashlarga e'tibor beraylik.

...Shapaloqday barglar orasidan yong'oq topib, chaqdim. O'g'lim so'radi:

—Puchmi-to'qmi?

—To'q mag'iz. Odam miyasiga o'xsharkan. Agar shu yong'oq ichiga kirmasa, u bunchalik mukammal bo'lmasdi. Yovvoyi, ko'r, tish sindiruvchi tosh bo'lib qolardi. Uni sermag'iz, sermaza, qog'oti qilgan inson miyasi.

Tabiat-bu mo'jizakor ekin-yong'oqqa odam miyasidan bekorga andoza olmagan.". ("Yong'oq").

"Farzandingni eslab, dam-badam xotiningni tushda ko'rasan.

Mijja qoqmay kutgan onangni-chi? Faqat boshga kulfat tushganda, dard xalqumingdan bo'g'ganda:

–Ona!–deysan, ko'zing ochilib. Bola ham, tankda kuygan oqsoch askar ham, hayot bergan ona bu hayotni himoya qila olishiga ishonadi:

–Ona!!!” (“Safarda”).

“Oqda hikmat ko'p. Ona suti–oq. Olma guli–oq. Dono bobom sochi, do'stning qalbi–oq. Osuda subhidam, yaxshi niyat–oq.

Qaynonaning qizi so'raydi:

–Qaro qoshim, shahlo ko'zlarim yoqmadimi?

–Mayli deyman,–ko'zing qaro bo'lsin. Qilmishingdan qaro bo'lmasin. Qilmishingdan qaro ko'zlar yoshga to'lmasin” (“Ko'zing qqaro bo'lsin, mayli...”).

Adibning “Yo'llar” shingil hikoyaidagi poetik g'oya ham badiiy va estetik jihatdan ancha zalvorli. Unda insonning bu boqiy dunyodagi hayot yo'llarining mazmun-mohiyati falsafiy talqin etiladi:

“Umr–yo'lga o'xshaydi. Uchrashuvlar quvonchi, ayriliq dardi. Dust va dushman. To'y va aza, yiqilish, turish. Qishu yoz, yomg'iru oftob–hammasini ko'rasan bunda.

Olam uyiga kirganday sof. Xayr, deb ketayotganingda odamlar desa:

–Odam bo'lib yashadi, u go'dakdek sof ketdi–bu umr yo'llariga eng oliy baho”.

Biz ushbu faslning o'rtarog'ida, yanada aniqrog'i, adibning shingil hikoyalari tahlilining boshlanishida O'zbekiston xalq yozuvchisi Rahmat Fayziyning fikrlarini bejizga eslamagan edik. Afsuslar bo'lsinki, adibning ana shu to'q mag'izli hikoyalari haqida adabiy tanqidchilik lom–mim demadi. Balki bu yozuvchining markazda emas, viloyatda turib ijod qilish bilan izohlanar.

Yana tahlilga qaytaylik. Samar Nurovning yana bir guruh shingil hikoyalari xos bo'lgan xususiyatlardan biri ularda personajlarning bo'y ko'rsatib turishi va ularning xalqchilligidir. Ana shunday fazilatlar, ayniqsa yozuvchining “Mehr bulog'i”, “Yangi rais” hikoyalari bo'rtib turadi. Bu hikoyalarning qahramonlari

oddiy, mehnatkash, zahmatkash, xokisor odamlar. Ulardagi personajlarning hayotiy va insoning ezgulik amallari haqida o'ziga xos dunyoqarashlari bor.

“Mehr bo'log'i” hikoyasining personaji Ismoil boboning insoniylik fazilati, ezgulikka baxshida faoliyati kitobxonda unga nisbatan samimiylilik va mehr uyg'otadi:

“Ismoil bobo birdan ko'zga ko'rinmay qoldi...Oradan necha kunlar o'tdi. Kishilarning Ismoil bobo bilan ishlari ham bo'lmay qoldi. Jaziramada yoz kunlarining birida odamlar ikki qoya o'rtasidagi o'ngirdan kumushdek yaltillagan arg'amchi qishloq tomon o'rmalab kelayotganining guvohi bo'ladilar. Ismoil bobo tog' ustidagi jarlikda ko'makcha bo'lib yotgan buloqni “tutqinlik” dan xalos etib, yangi yo'lga boshqarib yuborgan edi”.

Shu tariqa ko'z oldimizda Ismoil boboning el tashvishi bilan yashovchi ma'naviy qiyofasi bilan paydo bo'ladi. Hikoya xotimasida qishloq ahlining Ismoil boboning mehr bulog'idan bahramand bo'layotgani, ota olamdan o'tgan bo'lsa-da, uning xotirasi shirin suvli buloqday abadiy yashayotganligi bayon qilinadi.

“Yangi rais” hikoyasidagi Muazzam xola hayoti talqinida o'z umrining kuchga to'lgan davrini el farovonligi yo'lida o'tkazgan inson taqdiri masalasi yotadi. Shingil tasvirida kitobxon xo'jalikka kelgan yangi rais faoliyatidagi odamgarchilik va saxovatlikni ko'rib hayotni go'zal qiluvchi va uni bezovchi odamlar borligidan ko'ngli taskin topadi.

Muallifning ba'zi hikoyalarida faqat o'zigagina bo'lgan topqirlik, orginallikka intilish ko'zga tashlanadi. Bu borada u xalq rivoyatlari va udumlariga murojaat qiladi. Ma'lumki, xalqimiz darvozalari peshonasiga otning taqasini qoqib qo'yishadi. Buning juda xilma-xil variantlari bor. Ulardagi umumiy xulosa baxtli va badavlat bo'lish. Yozuvchi “Baxt” nomli shingil hikoyasida bobo va nevara suhbatida bunga o'z davri mazmunini olib kirgan.

“Shodmon ota polizga suv ochayotgan edi. Shiypon orqasidagi terim mashinalari oldida uymalashib yurgan nevarasi chopib yoniga keldi:

–Bobo, bobo!

–Labbay, bo‘talog‘im!

–Mana – ko‘zlari quvonchdan porlagan bola zanglagan taqani bobosiga ko‘rsatdi.

–Ot nag‘ali ekan. Nima qilasan?

–Darvozamizning bo‘ sag‘asiga osib qo‘yaman. Baxt keltiradi.

–Kim aytdi?

–Bibim aytuvdila...

Bola “baxt yasagan”i yugurib ketdi!!”

Muallifning shingil hikoyalarini o‘qib shunday xulosaga kelish mumkinki, janrning bu kabi kichik shaklida ham yozuvchining dunyoqarashi va fikrlay olish qobiliyati, ya’ni badiiy tafakkuri muhim rol o‘ynaydi. Chunki bunday kichik shaklda zalvorli fikr bayon qilishning o‘zi bo‘lmaydi. Kitobxon adibning shingil hikoyalarini o‘qib so‘z san‘atining⁷ qudratli kuchini his qiladi, adabiyotning mehnatkash xalqning kundalik turmushga, uning dardu tashvishlariga yaqinligini anglaydi.

Umuman aytilganda, hikoyalardagi qaynoq hayot tasviri, davr tomiri urishlarining tabiiy talqini, xalqimizning urf-odatlarini, ezgu-niyatlarining puxta syujetda berilishi yozuvchini janrning taniqli vakillaridan biriga aylantirdi. Ayniqsa, uning so‘nggi yillarda yaratgan hikoyalari qatida hikmatlar, xalqona donishmandlik nafasi sezila boshladi. Yozuvchining hikoyalarini o‘qir ekansiz, bu hikoyalarni shartli ravishda “zamidida ulkan hikoyatlarni jam etgan ” hikoyalar deb atagingiz keladi. Chindan ham yozuvchi har bir hikoyasida o‘ziga xos donishmand, nuroniy zot qiyofasida jonlanadi. Mana uning “Tumor” hikoyasi. Ochil (hikoya qahramoni)ning sevgan qizi boshqaga turmushga chiqib ketadi. Hech qayerga uyiga, qishlog‘iga, qishloqdoshlari orasiga sig‘may qolgan Ochil uzoq-uzoqlarga bosh olib ketadi. Onasi, singlisini zor qaqshatib ketadi. Oradan ancha yillar o‘tdi. U qishloqdoshlarining esidan chiqdi. Onasi olamdan o‘tdi. Va nihoyat qaytib keldi.

“Eh-h birodarlarim. Ko‘rgan-bilganlarim, boshdan kechirganlarimning qaysi birin so‘ylay sizlarga!– uning o‘pkasi to‘lib, ichidan tutun chiqib, ko‘zlari tumanlashdi. Tinglovchilardan ayrimlarining unga rahmi keldi, ayrimlarining havasi.– Tundra o‘rmonlarini aytaymi, Okeanlardagi aysberglarnimi, Seylon choyzorlari, Toj Mahalnimi, Amazonka changalzorlari, Niagara sharsharasinimi? Yoki dunyodiga eng suluv yapon malikalarini tariflaymi?..” Ochil shunday qahramon, uni “sayyoh desa ham, hoji desa ham, qalandar desa ham, jahongashta desa ham” bo‘ladi. Tabiiyki, Ochilni qishlokdoshlari turlicha qarshi olishdi. Ba’zilar uning o‘tmishiga achinishsa, ba’zilar hamma ayb o‘zida deb hisoblashdi. Unga ta’na qilganlar ham bo‘ladi; “Musofir o‘zga yurtda shoh bo‘lsa ham yelkasi qisq, degan gap bor. O‘z uying–o‘lan to‘shaging. Qara, changga, yumushlarga ko‘milib yotgan qishloqqa qaytib, qadrdonlaringni ko‘rishing bilan chehrang ochilib, yuzlaringga qon yugurdi. Ildizsiz ekin ham yo‘q, hosil ham”.

Abdulla Qahhor yozuvchilik mahorati haqida so‘zlab, jumladan, ushbularni qayd etgan edi: “Mahorat har bir so‘z ustida uzoq ter to‘kib ishlashda emas aynan o‘sha so‘zni topa bilishdadir”.¹ Samar Nurov qahramoni hayotda barcha narsani boy berib bo‘lgan. U dunyoning turli maskanlarida bo‘ldi, sodda va to‘pori hamqishloqlarining uxlab tushida ham ko‘ra olmagan ajoyibotlarni ko‘rdi. Hayotning, dunyoga kelishning maqsadi nima o‘zi? Hoyu havas bilan yashashmi yoki zahar zaqqum yutishmi? Vatandan, kindik qoni to‘kilgan tuproqdan boshqa joyda baxt, huzur– halovat yo‘qmi? Ochil boshida -o‘sha yigitlik chog‘larida ushbu savollarga o‘zicha javob topgan zdi. Mana endi “chakaklari va ingichka iyagini soqol– mo‘ylov qoplagan”, “mayus ko‘zlari sog‘inchdan” javdirayotgan Ochilning shafqatsiz xulosasi: “-Ha, - Ochilning a’zoyi badani qaltirab ketdi. Men shonu shuhratsiz, zarsiz qaytib keldim. Umr bo‘yi qidirgan narsamni shu yerdan topgandayman.

¹ Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida T., Qofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987 yil, 120-bet

Umrimdan bo'lsa yasharman qadrdon dalalardan nafas olib, bo'lmasa yana o'zlaring ustimga tuproq..."

Ushbu o'rinda qayd etganimiz Abdulla Qahhorning mahorat haqidagi so'zlarini eslashning o'zi, kifoY. Negaki, Ochilning butun vujudiga, yuragi va aql tafakkuri-yu keksaygan hissiyotlariga azob berayotgan tasvirni ifodalash uchun yuqoridagidek horg'in, bosiq va ma'sum ifoda usuli kerak. Yozuvchi buni uddalay olgan.

Ma'lumki, hikoya janri qisqalikni talab qiladi. Qisqalik hajmda, mavzuda, obrazlardagina o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Ammo g'oya uchun bu xulosani berib bo'lmaydi. Yozuvchining hikoyadan ko'zlagan niyati, tabiiyki, Ochilning, Ochilga o'xshash kishilarning hayotini so'zlab berish emas. Hikoyada qishloq, qishloq odamlari, tabiati, qishloqcha yashash tarzi haqida gap boradi. Lekin muhimi bu emas. Muhimi boshqa narsa—bu tumor. Onasi Ochil qishloqni tark etayotganda unga tumor qilib bergan edi. Tumor yomon ko'zdan asrash uchun emas, "yurtdan tuz nasibasi uzilmasligi" uchun qilingan edi. Hamqishloqlari Ochilni insonga bir martagina beriladigan umrdan ham muhimroq Vatan, onani unutmaganlikda aybladilar. "Ummonlarning sho'r shamollari qoraytirgan yuzlariga qoraytirgan yuzlariga ayanchli nimtabassum paydo bo'lib, ko'zlarining qorachig'ida sham shu'lasidek ojiz nur miltilladi... Ikki barmog'ini ko'ylak yoqasiga suqib, uchburchakli tumorni ipidan tortib chiqardi: Hamma narsani yo'qotsam ham, buni bo'ynimga osib, yuragimning ustida asrab keldim yoki yurgimni bu asradi. Orqamda tog'day tayanchim— yurtim borligini bu eslatib yurdi".

Badiiy asarda hech bir narsa jonli jonsiz timsollar, voqea, katta—kichik badiiy unsur(detall)lar, so'z va hatto tovushlarning ham zimmasiga yuklatilgan o'z vazifasi bo'ladi. Ana shu vazifa meyorida udalanganida asar chinakam badiiy asar darajasida, deb hisoblanadi. Chunonchi, jahon adabiyotining mohir hikoyanavislaridan biri A.P.Chexov "Hikoyada hech bir narsa ortiqcha bo'lmasligi kerak, Mabodo hikoyaning boshida devorda miltiq

osilgan bo'lsa, voqea davomida u albatta, otilishi shart" degan edi. Samar Nurov hikoyasi davomida onda sonda eslatilgan tumor voqea so'ngida asosiy badiiy timsol darajasiga ko'tariladi. Tumor ichiga bir dona chigit, bir chimdim tuproq, isiriq urug'i solingan ekan. Buni hamqishloqlar shunday tushunishdi: "Chanoqning bir chigiti bir yigitga tog'day tayanch bo'lgan bo'lsa, o'zbek tuprog'ida unayotgan milliard - milliard chanoqlar butun yer kurrasi taqdiriga payvasta bo'lib ketgan ekan-da. Bu tumorga butun bir yurt jo bo'lgan ekan-da".

Samar Nurovning "Tumor" hikoyasi 1982 yilda yozilgan. Shunisi ravshanki, ijtimoiy hayotdagi har bitta hodisa nasriy janrlardan hikoyada dastavval o'z ifodasini topadi. Chunki, bu janr hozirjavob janrlar sirasiga kiradi. Tez va qisqa fursatda yozilgani uchun ham, ehtimol, bu janrda yozilgan asarlarning aksariyati yirik nasriy janrdagi asarlarga nisbatan tez unutilar. Bunga juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Ammo bu fikrni "Tumor"ga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Bizningcha, hikoya o'zining ikkinchi umrini yashash uchun qayta tug'ilganday. Zero, istiqbolga erishgan millatning MILLIY mafkurasida Vatanparvarlik, yurtga fidoyilik, o'z ona xalqiga mehr muhabbat bosh harflar bilan yoziladigan tushunchalardir. "Tumor"da ayni shu narsa qalamga olingan. Shunday emasmi?

Samar Nurovning boshqa hikoyalari, jumladan, "Saharxez qushlar", "Qo'shiq", "Dov" singari hikoyalarida ham zohiran kompozitsiadagi soddalik kuzatiladi. "Saharxez qqushlar"dagi Nemat otani o'g'li nomzodlik dissertatsiyasining himoyasida ishtirok etish uchun shaharga olib kelishadi. Restoranda salobatli kishilarning nutqlarini tinglab hatto o'z o'g'lini ham tanimay qoladi: "Bobotog'ni ura talqon qiladigan kelbati bo'lsa kerak. Aflotunday kallali odam ekan-da. Yoki Ulug'ning domlasimikin ? Domlasi bilan nomi uyqash ekan-da o'g'limning?".

Hikoya uch qismdan iborat. Uch qismda hikoya– qahramoni Ne'mat ota uch xil vaziyatda tasvirlanadi. Avvaliga u-qishlokda, kundalik yumushlari bilan band. Chorbog'idan o't o'radi, qo'ylariga qaraydi. Ikkinchi qismda u shaharga keldi. O'g'li to'g'risida hamdusanoga o'xshash maqtovu olqishlarni eshitdi. Uchinchi qismda esa erta tongda uyg'ongan Ne'mat chol ko'p qavatli uylarning hovlisiga chiqadi va o'g'lining uyini topa olmay adashib qoladi. Hikoya mohiyatini ochish uchun tanlangan voqea–shu. Ko'rinadiki, yozuvchi Ne'mat cholning na qishloqdagi barchaga o'xshash hayotini ko'rsatmoqchi, na shaharga borib adashib qolganini hangoma qilmoqchi. Shuningdek, shahardagi ulkan o'zgarishlarni, shu o'zgarishlar barobarida odamlarning ham o'zgarib borayotganini tasvirlamoqchi emas. Agar shunday xulosalanadigan bo'lsa, bunday xulosa nihoyatda primitiv xulosaga aylanib qoladi. Yozuvchining maqsadi saharxez qushlarni, ha, o'sha, qishloqda ham, shaharda ham bir xil, o'zgarmaydigan qadrdon qushlar haqidagi haqiqatni bayon qilishdan iborat: “Gulzordan, ariqchalardan, daraxtlardan ko'tarilgan xushbo'y shabada otaning qizigan badaniga, dimog'iga xush yoqdi. Ro'paradagi shoxlari tarvaqaylab ketgan azim tut darxtiga qo'ngan saharxez qorayaloqlar bir-biriga “tez bo'l” deganday ming kuyda chug'urlashadi. Osmonning kunchiqar etagi yorisha boshlaganda qushlar birdan tinib, Qashqa yoqalariga, Qo'ng'irot etaklariga uchib ketishdi...Qushlar uchib ketgan daryo tomonga, kulrang tog' etaklariga havas va armon bilan tikildi. Na odam tovushi, na qo'ylarning “ba-ba” si, na xo'roz qichqirig'i eshitaladi. Bu tovushlarsiz tong juda g'arib otarkan”.

“Beda hidi” hikoyasida Nusratbekning bir kunlik turmushi tasvirga olingan. U bir paytlar qishloqda yashardi. Endi mana tupa-tuzuk shaharlikka aylandi. Uning uyiga onasiday bo'lib qolgan xolasi, tog'asi Ahmad birgadir kelishdi. Umuman olganda ularda Nusratnikiga kelishdan hech qanday jiddiy niyat yo'q. Shunday yo'l-yo'lakay shaharga tushishdi-yu, uni ko'rib o'tmoqchi bo'lishdi. Nusratning yashash tarzida, garchi barchasi muhayyo

bo'lsa ham, ular omonatday tuyuldi. Uning "shahanshohlar turadigan uyi" sirtidan bo'lsa ham ko'pchilik havas qiladigan yor-do'stlari, o'zi sevib ardoqlaydigan kasbi-kori bor. Lekin ta'kidlanganidek, bularning barchasi omonatday gap. Uy-davlatniki (xoxlasa tortib olishi mumkin), do'stlarning munosabatida ham jiddiy soxtalikni sezish qiyin emas, xotindan ham yolchimagan: o'z qarindosh-urug'lari kelganda yayrab-yashnab o'tiradigan xotini, Nusratni yo'qlab kelganlarni jini suymaydi. Bugun ham shunday bo'ldi. Nusratga aloqador barcha nara omonat bo'lsa, demak, uning o'zi ham omonat ekanda!? Shaharga intilganda hammasini boy berib qo'yishi mumkinligini nahot o'ylamagan bo'lsa? Nima shahar shunchalik yomon joyimi? Unda yashayotganlarning hammasi nahotki o'zligini ututgan bo'lsa? Bu javobi mushkul savollar Nusratning xayolida qachon tug'ila qoldi? Beda hidi dimog'iga urilganidami? Ha, o'sha Ahmad birgadir belbog'ini yoyganda kelgan beda hidi Nusratning tuyg'ularini ostin-ustin qilib yubordi. "Xotini shishib uxlayotgan uyga qaytib kirgisi kelmay, kimsasiz xiyobonlarni aylandi. Yo'l chetidagi mayda bargli gullarning yaprog'ini titkilab o'tayotganida kungaboqar dumbulning hidi anqidi. Hayron bo'lib atrofga qaradi, quyoshga ta'zim qiluvchi kungaboqarning sap-sariq kulchasini javdirab qidirdi. Xrizantemaning yaprog'ini uzib, hidladi".

"Beda hidi" hikoyasida ham xuddi "Tumor" da bo'lgandek yozuvchiga xos xususiyatni kuzatish qiyin emas. Hikoyada go'yo har kungidek hayot qalamga olingandek. Uyga mehmon kelishi, bu mehmonning kim uchundir kutilgan, km uchundir malol bo'lishi, do'stlarning past-baland so'zlari, ichkilik, ulfatchilik, boy berilayotgan vaqt-hammasi tabiiy. Bundan katta fikrni kutish ham joiz emas. Ammo hikoya so'nggidagi atrofni tutgan beda hidi asar mohiyatiga kuchli ma'no yuklaydi. U-buyuk tarbiyachi. U Nusratni qayta tarbiyalaydi. Nusratbek zohiran inson, yashash tarzi jihatidan, aql-idroki jihatidan inson, oilasi, yor-do'stlari borligi jihatidan, xullas, odamlar orasida yashayotgani bilan inson. Biroq qalban u inson degan tushunchadan

ancha uzoqlashib ketgan. Uning qalbi yo‘q. Qalbi o‘lib bo‘lganligini beda hidi uning yodiga soldi...

Atoqli adabiyotshunos Umarali Normatov “Beda hidi” xususida batafsilroq to‘xtab uni hikoya janrining bizda nisbatan sustroq taraqqiy etgan kayfiyat hikoya xilidan ekanligini alohida qayd etadi. Haqiqatdan ham asar qahramoni nusratbek bilan jamoa xo‘jaligi raisi orasida bir vaqtlar bo‘lib o‘tgan kelishmovchiliklar haqidagi xotirani, shuningdek, Ahmad birgadir bilan mehmon o‘rtasida kayfchilikda yuz bergan “Endi-bidi”larni mustasno qilganda hikoyada jiddiy konflikt-olishuv, to‘qnashuv yo‘qdek. Nusratbeknikiga qishloqdagi qarindoshlari, shahardagi hamkasblari mehmon bo‘lib kelishadi, odatdagi oddiy mehmondorchilik, suhbat so‘ngra xayr-ma’ruza. Bor-yo‘q, voqea guyo shundan iboratdek. “Avtorning yutug‘i shundaki, u sirtidan silliqina kechgan mana shu hodisa zamirida teran ma’no ko‘radi,—deb yozadi,— adabiyotshunos,—yozuvchi hodisaning ichki, pinhoni dramasi ochishga intiladi; bunda u odamlarning maishiy hayot tarzini, kayfiyatini, ruhiyatini ko‘rsatish yo‘lidan boradi; ko‘rsatganda ham muallif bamisoli tilmuxbirday ham suratini, ham gap-so‘zlarni xoli turib lentaga tushirganday bo‘ladi. Personajlar suratiga qarab, kayfiyat bilan tanishib, gap-so‘zlarni eshitib, biz hozirgi shahar hamda qishloq hayotidagi juda muhim jarayonlardan ogoh bo‘lamiz...”¹

Adabiyotshunos to‘g‘ri ta’kidlaganidek, kitobxon hikoyani o‘qigach jiddiy hayotiy mushohadalarga duch keladi. Xususan, mehmonlar mehmondorchilikdan ko‘ngli to‘lib uy-uylariga tarqalishadi, ichiqora odamdan ranjigan Ahmad brigadir ham oxirgi ginalarni unutib yo‘lga otlanadi; bosh qahramon-sobiq agranom Nusrat esa o‘zini qiynagan jumboqlarga javob topadi, o‘z o‘rni ziyoli tabiat bachkana kimsalar orasida emas, qaynoq hayot qo‘ynida ekanligini to‘la anglab yetadi; yozuvchining “Makri” shundaki, “personajlar ishi”ni hal etadi-yu, panada turib kitobxon ko‘ngliga g‘ulg‘ula solib qo‘yadi, hikoyadagi pinhoni dramalarning davomi endi sezgir o‘quvchi ruhiyatida kechadi.

¹ U. Normatov. Nasrimiz an‘analari. T., Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978, 155-156-betlar

Darhaqiqat, mehmondorchilikda yuz bergan mojarolarni hal etish mumkinu suhbatda tilga olingan personajlar ruhiyati, kayfiyati bilan bog'liq muammolarni bir hamla bilan bir yoqlik qilish nihoyatda mushkul. Ular bir chekkasi jamiyat umumiy taraqqiyoti dialektikasi, qvimezatsiya, fan-texnika revalyusiyasi bilan aloqador muammolardir; zamonning tezkor sur'ati tufayli kechagina sof tabiat qo'ynida yashagan odamlarning bugungi kunda yuksak sivilizatsiya quchog'iga ko'chish, fan-texnika olamiga kirib borishi tufayli tug'ilayotgan dramalardir; kishi ongining ijtimoiy taraqqiyotdan bir oz orqada yurishdan tug'iladigan ziddiyatlardir; qolaversa bular yozuvchi zamondoshlarining hayotga faol munosabatidan kelib chiqadigan muammolardir.

Shuning uchun ham kitobxon "Beda hidi" personajlariga qo'shilib shahar hayoti qulayliklaridan, qishloqdagi o'zgarishlardan astoyidil quvonadi, ayni paytda ko'p qavatli uylardagi tabiatdan uzoqroq siqiq hayotning, industrial va aqliy mehnatning, shahar madaniyati taqozo etayotgan urf-odatlar va udumlarning ba'zi jumboqlari ustida fikrga toladi; qishloq bolalarining o'qishi, tarbiyasi, qishloq xo'jaligidagi kimyoviy dorilardan foydalanishning salbiy tomonlari haqida o'ylab ketadi...

S. Nurov ham qishloq, ham shahar hayotini yaxshi biladi, ham qishloq, ham shahar odamlari ruhiyatini nozik his etadi; bu xislat, ayniqsa "Beda hidi" da juda yaqqol namoyon bo'lgan. Hikoyadagi mehmon xola, qiz, Ahmad brigadir xatti-harakatlari, gap-so'zlari, ruhiyati, tabiati naqadar aniq, betakror, jonli ifoda etilgan. Shaharlik mehmonlar, xususan, masit, ichiqora yigitning qiyofasi naqadar tabiiy chiqqan! Ayniqsa, hikoyanavis xuddi o'sha o'zi kabi qishloqdan chiqqan ziyoli yigitning o'y va kechinmalarini, shuningdek, kelin portretini samimiy tasvirlaydi.

Samar Nurovning hikoyalari haqidagi muxtasar tahlilimizni yakunlar ekanmiz, ulardagi quyidagi uchta muhim fazilatni qayd etishni istadik:

Birinchidan bu hikoyalar asosidagi syujet asosida oddiy mehnatkash-oddiy kasb egalari turmushi yotadi; ikkinchidan, ularda shu oddiy, kamsuqim zahmatkash mehnat ahliga xos ma'naviy fazilatlar ulug'lanadi; uchinchidan, va eng muhimi

ularning qahramonlari umumbashar va milliylikka xos bo'lgan insoniy dard bilan nafas oluvchi oddiy kishilar, bu asarlar shu oddiy mehnat ahlining tashvishlariga hamdardlik tuyg'usi, insoniy mehr va gumanizm bilan yo'g'rilgan.

Umuman, Samar Nurov hikoyalarning har bir ana shunday "og'ir yuk"ni zimmasiga olgan hikoyalardir. To'g'ri bugungi istiqlol davri uning hikoyalaridan ayrim qahramonlarni, detallarni, voqealarni, xarakterlarni chiqarib tashlashi aniq. Ammo hikoyalarning qat-qatiga singdirilgan Samar Nurovgagina xos bo'lgan topqirlik, donishmandlik va hikmatlar uzoq yillar yashab qoladi.

2.2.Hikoyachilikdan qissa janriga

Adib ijodining tadrijiy yo‘liga e‘tibor berilsa, u har bir yangi asarida mahorat qirralarini egallab borganltgini kuzatish mumkin. Uning har bir yangi asarida davr talablariga mos g‘oyaviy mazmundorlik va badiiy barkamollik kuchaydi, yangi obrazlar paydo bo‘la boshladi. Bunday xususiyatlar uning qissa va romanlarida bo‘rtib turadi. Ayniqsa uning qissalarida cho‘l voqealari va cho‘l odamlari taqdiri qiziqarli vaziyatlarda, murakkab hayot quchog‘ida ko‘rsatiladi. Oddiy mehnatkash insonning ma‘naviy dunyosi, uning ruhiy olami, xullas butun qiyofasi badiiy tadqiq obyekti qilib olinadi. Natijada hikoyalarida bizga tanish bo‘lgan qiyofalar shundoqqina gavdalanib turadi. Buni dastavval muallifning katta janrdagi birinchi asari– “Seni sevaman, hayot” qissasida ko‘rishimiz mumkin. Qissadagi Sunnatillo bobo, Lazokat xola, Shoyimqul akalar qiyofasida cho‘l odamlari xarakterlaridagi fazilatlar tipiklashtirib berilgan.

Samar Nurovning “Chaqmoq” qissasini o‘zbek hujjatli prozasini boyitgan asarlar qatoriga kiritish mumkin. Unda qashqadaryolik birinchi qishloq o‘qituvchisi, jasur qiz Jamila Jumayevaning jo‘shqin va hayratomuz hayoti to‘g‘risida hikoya qilinadi. Uning qisqa hayoti chaqmoq misolida Qashqa vohasining ma‘rifiy osmonida o‘chmas yulduz bo‘lib qolganini muallif hujjatli manbalar asosida realistik tasvir va realistik obraz talqinida beradi.

Maqolamizning avvalida yozuvchining asarlariga xos bo‘lgan umumiy bir mushtaraklik – ularda cho‘l odamlarining, xususan Qashqa vohasi odamlari qiyofasi, ulardagi to‘porilik va tantilik soddalik va bag‘rikenglik kabi fazilatlar, cho‘l tabiati, uning fayazli oqshomlari yuz ko‘rsatib turishini eslatgan edik. Yozuvchi asarlariga sinchiklab e‘tibor berilsa, uning asarlariga xos mushtaraklikning ikkinchi bir fazilati ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, “Rais” va “Maysalarni ayoz urmaydi” kabi yirik janrdagi asarlar qahramonlarining ko‘pchiligi bilan biz uning qator

hikoyalarida uchrashib cho‘l siynasida birga kezishgan edik. Bu qahramonlar adibning qissa va romanlarida yanada aql–zakovat va ma’naviy jihatdan yanada kamolot sari qadam tashlashadi. Qolaversa, adabiy tanqidchilik o‘z paytida yozuvchi ijodiy laboratoriyasini o‘rganganda Qarshi cho‘lini o‘zlashtirishda qahramonlik va fidoyilik namunalarini ko‘rsatgan yurtdoshlarimizning hayotdagi prototiplari bilan tanishgan bo‘lardik...

Samar Nurovning prozasiga xos bo‘lgan uning individual ijodiy qiyofasini belgilovchi omilda, yani uning voqelikka estetik munosabatida hayotning nosoz tomonlarini dramatik keskinlik negizida yuzaga chiquvchi tasvirlar asosida ochib berish, estetik tanqid orqali tasdiqlash, turmush voqealarining butun ziddiyatini, ichki murakkabligini ko‘proq odamlar taqdiri fonida berish usulida badiiy – ijtimoiy tiplar yaratish san’ati ustivor o‘ringa chiqadi. Uning zamonaviy mavzuda yaratilgan “Rais” qissasida ham ana shu individual uslub qirrasini ko‘zga ochiq tashlanadi. Bu xususiyat asardagi Mamajon, Qurbon aka, Chori ota va Bek aka kabi obrazlar kashfiyotida namoyon bo‘ladi.

Qissadagi bu obrazlar o‘zlarini har bir ish uchun, kishilar taqdiri uchun javobgar deb his qiladilar. Umar atrofdagi voqealarga befarq qaray olmaydilar. Qissa-qishloq kishilari hayoti haqida hikoya qiluvchi asar. To‘g‘ri, XX asr o‘zbek adabiyotining barcha taraqqiyot bosqichlarida qishloq kishilarining hayotini aks ettiruvchi bir qator badiiy asarlar mavjud edi. Xususan, Oybek, A.Qahhor, Rahmat Fayziy, Said Ahmad va Hamid G‘ulomning roman, hikoya va qissalarida ham qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtiruvchi zamondoshlarimizning sermazmun hayoti, jasorati o‘zining badiiy ifodasini topgan edi. Biz Samar Nurov asarlarida ana shu ijodiy tajribalardan ma’lum darajada foydalanganini ko‘ramiz.

Qissadagi tasvirda o‘tgan asrning 70-yillaridagi Qashqa vohasining yirik paxtachilik xo‘jaligi taraqqiyotining istiqboli

masalasi asosiy o'rinda bo'lib, rahbarlik masalasi ana shu taraqqiyotni belgilovchi asosiy omil sifatida tanlangan. Shuni aytish kerakki, qissadagi Mamajon orazi, adabiyotimizdagi, xususan nasrimizda yaratilgan Qalandaroq, Otaqo'zi kabi raislardan farq qiladi va o'z navbatida o'zining ularga o'xshamaydigan xarakteri bilan ular safini to'ldirgan. Uning yoshligiga berilgan qisqagina ta'rifiga e'tirof beraylik: "Urushdan keyingi og'ir yillar...Kolxoz idorasida mushtdekkina bir bola stolda hisob-kitob ishlari bilan mashg'ul. Uning chiydek-chiydek oyoqlari yerga tegmay osilib turibdi..." Ana shu mittigina bola ulg'ayib kattakon bir jamoa xo'jaligiga rais bo'ladi. Xo'jalikni oyoqqa turg'azish uchun bor kuchini, mahoratini ayamayjdi. U bu yo'lda adashadi ham, ba'zan manmanlikka ham boradi.

Yozuvchining o'quvchini bosh qahramonning o'tmishi bilan tanishtirar ekan, unin hayot to'fonlarida tez ulg'ayganiga alohida urg'u beradi: "Kichik deraza oldidagi stulda bo'yni ingichka, oriq, o'n-o'n bir yoshlardagi qoragina bola ostiga choponini qatbab qo'yib, o'tiribdi. Oldida katta daftar. Chap qo'lida yo'nilaverib chaqoloqning chimchilog'iday bo'lib qolgan qalam, o'ng qo'lida, yonida schyot. Stolga boshi tekkuday egilib, rang yuqi barmoqlari bilan katta daftarga nimalarnidir qirtillatib yozyapti. Har zamonda ruchkani siyohdonga "to'q-to'q" botirib oladi. Shift boloridagi mixga ilingan kerosin chirog'ining shishasi, gardishi qoraygan. Tuprog'i ko'chib turgan poldan, ohaklanmagan somonshuvoq devordan zax hidi keladi. Bola sharpani sezib boshini ko'taradi. Uzun bo'yni ni cho'zib eshikka qaradi. Katta qora ko'zlari mehmonga sinchiklab qaradi. Stuldan chaqqon sakrab tushdi. Linikasini ikki qo'li bilan ushlab, kutardi.

–Keling, amaki, assalom,–tovushi ingichka, yoqimli edi”.¹

Yozuvchining bu tanishtiruv va tavsifidan biz nafaqat asar bosh qahramonining yoshligi, u o‘tib-ulg‘aygan oila muhiti, balki ikkinchi jahon urushi davri ijtimoiy hayot manzarasi, xususan qishloq ahlining erkaklarni frontga jo‘natish jarayoni, otasi Haqberdiyevdan urush o‘rtalarida “qora xat” kelgani, bu qadar hijron, fil ko‘tarolmaydigan ayriliq va tashvishlardan onasining jigari xun bo‘lib, yotib qolgani, to‘rtinchi sinfni bitirib, tabelchi bo‘lib ishlayotgani sabablari ochila boradi.

Mamajon tumanning birinchi rahbari tomonidan Quybotdi qishlog‘ida joylashgan “Sharq” jamoa xo‘jaligi raisligiga tavsiya etildi. Bu xo‘jalikdagi ishlar o‘lda-jo‘ldaligini, ancha yillardan buyon bir joyda deysinib yotganini tuman va viloyat rahbariyati bilar edi. Hatto man-man degan odamlar ham bu xo‘jalikning ishini o‘nglay olmagan. Mamajon–xo‘jalikka kelgan kundanoq dastavval vaziyat bilan, jamoaning hayoti bilan chuqurroq tanishadi. Uning yoshlik o‘spirin yillaridagi hayotdagi chiniqishi, o‘n to‘rt yoshida tabelchi, so‘ng brigadir, rais muovini bo‘lib ishlash tajribasi qo‘l keldi. Butun vujudi bilan xo‘jalikni oyoqqa turitishi, xalqning yashash farovonligini oshirishga bag‘ishladi. U bu borada xo‘jalikdagi faollar bilan bamaslahat ish tutdi.

Asar bosh qahramoni faoliyatda bo‘layotgan, o‘zgarishlar, uning ko‘zlagan rejasini amalga oshirayotgan kezlardagi paydo bo‘layotgan qaram-qarshiliklar, uy-xayolidan kechayotgan kechinmalar muallif tomonidan tadrijiy holda tasvirlanib beriladi. Bu tasvirda biz Mamajonning xo‘jalikni oyoqqa turg‘azish borasida ancha hayotiy tajribaga ega bo‘lgan brigadr Bek aka bilan qilgan dastlabki muloqalarini eslaylik. Bek akaning “Qattiqqo‘l bo‘l uka. Kelinni

¹ Samar Nurov. Real. Qissa.–T., Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981, 35-36-betlar.

birinchi kunidan qattiq ushlaganday, kolxozning planini ham brinchi kundanoq qattiq ushla! Ko‘z-quloq bo‘lib, boshida yong‘oq chaqib turmasang ishlamaydiganlar bor” (74-bet) degan gapi unga ma‘qul kelmagandek tuyuladi: “Mamajonning g‘ashi keldi. Meni olib kelgunicha, shuncha aql” bilan shuning o‘zini saylab qo‘yishsa bo‘larkan raislikka. Topgan gapini qara: “Jilovini qattiq ushla! Boshida yong‘oq chaqib tur!” (75-bet).

To‘g‘ri, Bek aka Mamajonga xo‘jalikning hayoti va ahvoli haqida, unda mehnat qilayotgan odamlarning jonkuyarligi-yu aravani quruqqa olib qocharlari haqida o‘z qarashlarini so‘zlab bergan edi. Lekin Mamajon ham xo‘jalikning iqtisodiy ahvolidan tortib odamlarning yashash sharoitlarigacha to‘liq bilmas edi. Shuning uchun ham shuni nimadan boshlash haqida ancha boshi qotdi. Ana shunday maslahatli suhbatlardan so‘ng xhjalikdagi ahvolni obdon o‘rganib chiqqach, Bek akaning oq sochli xum kallasiga, qo‘y ko‘zlariga, shamchiroqdek yonib turgan yonoqlari, ixcham tuzalgan moshguruch soqol-mo‘yloviga qarab Mamajonning g‘ashini qo‘zg‘atgan bu odam unga yoqa boshlaydi.

Yeng shimarib raislik faoliyatini boshlagan Mamajon ishni xo‘jalik iqtisodini belgilashda muhim omil hisoblangan yo‘l qurilishidan boshlaydi. Xo‘jalik yerini o‘z foydasi uchun talon-taroj qilib yuruvchilardan qaytarib oldi. Hosildorlikni oshirish yo‘llarini qidirdi. Yerga o‘g‘it solish, urug‘ni vaqtida solib tuproqqa meyorida ishlov berishni, suv bilan ta‘minlanishni tashkil etdi. Xullas, yerdan palapartish, xo‘jasizlarcha foydalanishga chek qo‘ydi.

Yozuvchi asarning bosh qahramoni Mamajonning faol faoliyati uchun zamin tayyorlaydi. Uni turli-tuman qarashdagi odamlar bilan uchrashtiradi. U atrofdagi o‘ziga nisbatan noto‘g‘ri munosabatda bo‘lganlarni ko‘rib, o‘zini har bir ish uchun javobgar–mas‘uliyatli

his qiladi. Undagi bu xususiyat, ayniqsa tuman suv xo‘jaligi mirobi bilan bo‘lgan dialogda yaqqol ochib bergan:

“Rayon suv xo‘jaligi bo‘limining mirobi kolxozning besh gektariga sholi ekib yurgan ekan. Yerni o‘lchab ketishgach, u pravleniyaga borib po‘pisa qildi:

–Rais menga tegma!

–Nega?

–Bu kolxozni Aflotun bo‘lganida ham bari bir oyoqqa turg‘aza olmaysan. Erta-indin juftakni rostlab ketasan. Men bilan g‘ijillashganing qoladi bekorga.

–Ketish uchun kelganim yo‘q edi-ku bu yerga. Kolxozchilar ishonib saylashdi.

–Bunaqa balanparvoz gaplarni ilgarigi raislar ham bekam-ko‘st aytishgan. Xo‘p-p,–u qo‘li bo‘g‘zini ko‘rsatdi,–to‘yganmiz va‘dalardan...

–“Xo‘p-p to‘ygan” bo‘lsang endi yerni kolxozga ber.

–Men o‘g‘it solganman, upaday qilib ishlaganman. Yer ishlaganniki! Lenin ham shunday degan!

–Ishlagan bo‘lsang sholisini ham pullagansan rosa. Kolxozga yetti yillik hosildan ulush to‘laysan...!” (79-80-betlar)

Kitobxonga ma’lumki, yozuvchining ushbu qissasida tasvirlangan voqealar XX asrning so‘nggi choragiga tegishli. Badiiy adabiyotdagi adabiy makon va zamon nuqtai-nazaridan yondoshilganda ham u o‘z hayotiy-reallik xususiyatiga ega. Biroq, bugungi mustaqillik davri turmush tarzimidagi ba’zi tamoyillar xususiyatidan kelib fikr yuritadigan bo‘lsak, yozuvchi tomonidan bundan ancha yillar olg‘a surilgan badiiy g‘oyalarning hayotiyiligini e’tirof etishga to‘g‘ri keladi. Vaholanki, davlat mulki daxilsizligi-yu shaxsiy daromaddan

davlatga ulush to'lash har bir jamiyatning qonun-qoidasida qayd etib qo'yilgan.

Yana asar tahliliga qaytaylik. Shu tariqa qissada Mamajon obrazi tadrijiy ravishda o'sib boradi. U hayotni, odamlarni o'rganish bilan o'zi ham ma'naviy yuksala bordi. Bu ma'naviy kamolot sari o'sishi uning va xo'jalik taraqqiyoti yo'lida to'g'anoq bo'lgan tiplarga qarshi kurashida o'zining ifodasini topadi.

Mamajon faqatgina jamoa xo'jaligi taraqqiyoti uchungina o'zida javobgarlik hissini sezib qolmaydi, balki atrofidagi kishilar taqdiri uchun ham jon koyitadi. Xo'jalikdagi deyarli barcha sohaning ahvolini o'nglashga harakat qiladi. Xo'jalik hududidagi maktab o'quvchilari va o'qituvchilarining ahvoli bilan qiziqadi. Chekka qishloqdagi bolalarning maktabga qiynalib ketganini ko'rib tumanning birinchi rahbari Qurbon akaga bolalarni maktabga olib keladigan avtobus masalasida yordam berishini so'rab murojaat qiladi.

Gapning aslini aytganda, Mamajon, o'zining mehribon va elparvarligi bilan Quybotdi qishlog'ining odamiga aylangan edi. Samar Nurov voqealar talqini bilan bog'liq holda Mamajon obrazidagi insoniy fazilatlarni ocha beradi. Mamajonda tevarakatrofidagilarni o'ziga tortadigan, yaqinlashtiradigan qandaydir joziba bor. Asr qahramonidan jozibadorik–kitobxonni unga “bog'lab” qo'yuvchi, uni sevishga majbur qiluvchi, xarakter mohiyatini tasavvur qilishga, qalbiga tafakkur olamiga kirib borishiga imkon beruvchi insoniy fazilatlardir. Ba'zi asarlarda qahramon jozibadorlik fazilatidan mahrum holda tasvirlanadiki, bu o'z-o'zidan asarning qashshoqlanishiga ta'sir etadi, uning ta'sirchanligiga putur yetkazadi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, qahramonlarga bog'lab turuvchi narsadan mahrum qiladi. Yozuvchi Mamajon obrazini

yaratishda unga jozibadorlik bag'ishlay olgan. Tasvir jarayonida uning Quyibotdi qishlog'idagi xo'jalikka rahbar bo'lib kelganini yoqtirmaganlar va unga qarshi kurash olib borganlar ham asta-sekinlik bilan unga yon bosishlari ishonchli holda beriadi: "Bu yerda besh-o'n yildan buyon ishlaydigan iqtisodchi, hisobchilar bugun birinchi marta bosh buxgalter Isoxonning kulganini ko'rishdi. Uning oriq, bug'doyrang yuzi, ajinli yupqa labiga iljayishga o'xshash xiyol tabassum yugurdi:

—Nima desanglar deyaveringlar, lekin bu rais biz kutgan odam ekan, jigar. Bundoq hisoblab qarang, yilda ellik ikki hafta bor. Ilgarigi raislar har shanbada uyiga ketib, dushanbada kuni tushda yoki kechda kelardi. Tonna-tonna yonilg'i, oylik, mashinaga g'ildira, ot-ulov, yem...yana kolxozimiz bir yilda yuz-to'rt kun (rayon, oblastda bo'ladigan yig'ilishlarga ketganini bundan mustasno) raissiz qolardi, jigar.

Hamma Isoxon hisobga tangri bunga ham tabassum in'om etgan ekan-ku, deganday hayron bo'lib termilib turardi. Isoxonki mamnun bo'libdi, demak, Qo'ybotdining ishlari chindan ham yurishibdi, jigar..." (87-bet).

Agar asarda ko'tarilgan masalalarga bugungi kun nuqtai nazaridan nazar tashlasak, unda muallifning hayotga, tiyraklik bilan qarab, ya'ni o'sha davrdagi borliqni haqqoniylik nurlari bilan tadqiq etganini, qahramonlar taqdiri va faoliyatida zamon keltirib chiqargan illatlar silsilasi, davrning o'ziga xos tamoyillarini chizib berganini ko'ramiz. Davrning qahramoni darajasiga ko'tarilgan Mamajon o'z rahbarlik qobiliyati bilan tuman va viloyatda shuhrat taratadi. Xususan, jamoani ezgu niyatlar yo'lida yetaklab obodonlashtirish ishlarini yo'lga qo'yadi, yangi ko'priklar va yo'llar quradi, paxta rejalarini qo'shimcha foiz bilan uddalab jamoaning davlatdan qarzini uzish va boyishida fidoyilik ko'rsatadi. Natijada u manmanlikka berilib

ketadi. Ortirilgan obro‘ va unvonlar evaziga atrofdagilarni, hatto ustozlarini mensimay qo‘yadi, axloqiy xudbinlikka yuz tutadi. Xullas, bu obraz ancha hayotiylikka ega. Mamajon shaxsiyatidagi barcha xususiyatlar orqali kitobxon ko‘z o‘ngida sobiq sho‘ro davri yillaridagi rais rahbarning ma’naviy qiyofasi paydo bo‘ladi. Kitobxonda Mamajonning xarakteridagi, ayniqsa uning raislik faoliyatidagi dastlabki yillardagi fidoyiliklari sabab, odamlarga bo‘lgan mehr- muruvvatlarini ko‘rib unga mehr uyg‘onsa, undagi kishilar g‘ashiga tegadigan manmanlik va eski raislardan bo‘lgan, xalq oqsoqoli Chori otaning xotini Xosiyat ayaning bemorlik holatidagi muomalalari nafrat uyg‘otadi. Uning xarakteridagi ana shu ikki qutb mavjudligi ham yozuvchining ijtimoiy tiplar tanlashidagi mahoratidan Mamajon xarakterining bir tomonida uning ijodiy fazilatlarini mujassam edi. Kitobxon uning faoliyatidagi ishchanlik, butun borlig‘ini kolxoz taraqqiyotiga bag‘ishlanganini sahifama-sahifa kuzatib boradi. Uning hukumat tomonidan Mehnat qahramoni bo‘lganidan sevinadi: “Diktor Sovet Prezidiumining qishloq xo‘jalik ilg‘orlaridan bir guruhiga Mehnat Qahramoni unvoni berilganligi to‘g‘risidagi farmonini o‘qib eshitirayotgan ekan. Bu ro‘yxatda butun bir vohadan faqat Mamajonning ismi-sharifi bor edi. Keyin Farmon qozoq, tojik, tatar tillarida ham takror eshittirildi. Mamajon g‘alati kayfiyat bilan o‘rnidan turib yuvindi. Momoxon bu xabarni eshitmagan shekilli, uyga kirmadi. Mamajon kiyinib, nonushta qilmay, Bek akanikiga saroftob oshiga ketdi. To‘ydagilar eshitgan ekan, raisni tabriklab, muborakbod etishdi. Bek akaning o‘g‘il to‘yi Mamajonning to‘yiga aylanib ketganday bo‘ldi.”(118-bet).

Hali aytganimizdek, bu yutuqlar Mamajonni ancha havoyilatib yuboradi. Yozuvchi uning xarakterida yuzaga kelgan manmanlik, hattoki ana shu havoyilik tufayli Saltanat bilan ilakishib qolganligini tasvirda badiiy dalillab bergan. Shu o‘rinda uning Chori otaning o‘g‘li

Nizomjonning yangi uy qurish munosabati bilan qilgan muomalasi, o‘z ustozlari Qurbon akaning rayonning birinchi rahbarligidan ketayotgan chog‘ida “Sen o‘zingga ehtiyot bo‘l, gapdan toyma. Har holda, mening kadrim hisoblanasan, bir “cho‘qilab” ko‘rishsa kerak hali seni ham” deya nasihat qilganida “Men hozircha o‘z yo‘limni o‘zim topib yura olaman” deb bepisandlik bilan qarashini eslash kifoY.

Yozuvchi Mamajon xarakterining shakillanishi va kamolotga yetishuvini asarning koflikti bilan, dramatik to‘qnashuvlar bilan bog‘lik holda ochishga erishgan. Yana bir muhim xususiyat:Muallifning bosh qahramon Mamajonning ijtimoiy faoliyatini yoritish barobarida, uning shaxsiy hayotini tasvirlashga, hayotidagi rang-barang qirralarni ham ochishga harakat qilganini eslash joiz. Ana shu ijodiy usul tufayli kitobxon uning xatini Momoxol va onasi qiyofalari bilan muhabbati bilan bog‘liq bo‘lgan yordamchi syujet chizig‘idagi voqealar tasviridan voqif bo‘ladi.

Samar Nurov rais obrazini Mamajon obrazini yaratishda o‘ziga xos ijodiy yo‘l tutgan. Biz faslning yuqori qismida o‘zbek prozasida yaratilgan raislar-ya’ni xo‘jalik rahbarlari obrazlarini eslatgan edik. Mamajon ularga o‘xshasa-da, o‘zining individual xususiyatlari bilan, yozuvchining qahramon “taqdirini” qanday (ya’ni o‘ziga xos) holda “hal” qilinishi bilan ajralib turadi. Menga yangi tayinlangan birinchi rahbar va tumandagi u bilan xo‘jalikni yuritish sohasida tortishib yurgan ba’zi rahbarlar uning ustozlari-tumanning birinchi rahbari Qurbon akaning ishdan ketgach ko‘zlagan niyatlariga yetolmaydilar. U partiyadano‘chirib, vazifasidan ozod qilish maqsadini amalga oshiraolmaydilar. Uqattiq xayfsan bilan o‘z vazifasida qoladi. Bu esa bosh qahramon xarakteridgi ijobiy fazilatlarning ustivorligining belgisi bo‘lishi bilan birga asar muallifining hayot haqiqatini tasvirlashdagi o‘ziga xos individual uslubining namoyon bo‘lishi hamdir.

Eng muhimi, qissa syujetidagi barcha voqealar va na shu voqealarni harakatga keltiruvchi kuchlar—obrazlar Mamajonga kelib taqaladi. Bu o‘rinda Qurbon aka va Chori ota obrazlari ajralib turadi. Mazkur obrazlar Mamajonning rahbarlik faoliyatining shakllanishida, hayotda to‘g‘ri yo‘lni topib olishida, dadil harakat qilishida muhim rol o‘ynagan shaxslar sifatida talqin etiladi. Bunga muallif ularning hayot yo‘li faoliyatlar, so‘zlari—o‘gitlari Mamajonning kurashiga va xarakteriga qanday ta’sir ko‘rsatganini ochib berish orqali erishiladi. Misol tariqasida Qurbon akaning rayonning birinchi rahbari yillaridagi faoliyati tasvirlangan lavhani olaylik:

“Qurbon aka qishloqqa tushdan keyin yetib borgan edi...Kichkina deraza oldidagi stulda bo‘yni ingichka, oriq, o‘n-o‘n bir yoshlardagi qoragina bola ostiga choponini qatlab qo‘yib, o‘tiribdi. Oldida katta daftar.

—Kimning o‘g‘lisan o‘zi?

—Haqberdiyevni.

—Qaysi, haligi mol do‘xtirinimi? Bola ha, deb boshini qimirlatdi.

—Ana xolos. Otang bilan birga ishlaganmiz, do‘st edik. Onang boshqa... Sen nima qilib o‘tiribsan bu yerda yolg‘iz?

—Bosh tabelchiman.

—Hali shundoq degin?!—u bolaning yalang oyog‘idagi eski kalish, egnidagi olacha ishton, uzun bo‘z ko‘ylak, boshidagi po‘pakli, girdiga jiyak tutilgan chit qalpoqqa, razm soladi.

—Meni tanidingmi?!

Bola, yo‘q, deyishga tortinib indamay o‘tirardi.

—Qurbon amakingman, raykom sekretari. Sening oting nimaydi?

—Mamajon,—dedi bola o‘tirgan joyida odati bo‘yicha ikki qo‘li bilan ishtonining lippasidan ushlab ko‘tarar ekan. Burnini tortib, yengi bilan artdi. (36-37-betlar)

Qurbon aka xarakterini yaratishda yozuvchi tasvirda izchillik pirinsipiga rioya qiladi. Bu obraz faoliyatining talqini misolida tuman qishloq xo‘jaligining taraqqiyoti masalasi, Qo‘yibotdagi “Sharq” jamoa xo‘jaligidagi ahvolning nochorligi, raislarning qo‘nimsizlik sabablari ochib berilgan.

Qurbon aka yozuvchining g‘oyaviy pozitsiyasini asar pafosini ifodalaydigan markaziy obrazlardan biridir. U tumanda uzoq yillar birinchi rahbar bo‘lib ishlagan. Davr zayli bilan raykom kotibligadan bo‘shab, tuman maishiy xizmat ko‘rsatish kombinatiga rahbar bo‘ladi. Mamajonniyoshligidan bilgani uchun ham uni Qo‘yibotdi qishlog‘iga – “Sharq” jamoa xo‘jaligiga raislikka tavsiya qiladi. Unda rahbarga xos bo‘lgan tadbirkorlik va bag‘rikenglik, halol va qataiylik kabi fazilatlar mavjud. U tumaning pastu balandini, odamlarning o‘ziga xos fe‘lu-atvorini besh barmog‘iday biladi. Ana shu obraz orqali bosh qahramon Mamajonning barcha yutuq va kamchiliklarini yuzaga chiqargan xarakter ochila boradi. Kutilmaganda viloyat va tuman rahbarlariga Mamajonning raislik faoliyatidagi manmalik va talon–tarojchiliklar xaqida kekxa dehqon Chori ota nomi qo‘yilib yozilgan imzosiz xatni tekshirishga tuman rahbariyati tekshirish uchun Qurbon akani Qo‘yibotdi qishlog‘iga yuboradi. Bu tafsilotlar tasviri asar syujetining tugunini tashkil etish bilan birga Qurbon akadagi hayotga va uning bunyodkori odamlarga bo‘lgan munosabatni ham ko‘rsatadi: “Chori ota o‘zini oldirmabdi. Yer odami-da, bir meyorda qimirlab ishlaydi ochiq havoda. Dehqonni yer davolaydi. Urug‘ bilan birga orzu, dard hasrat, quvonchlarini ham yerga to‘kadi. Yerning qulog‘i ummon, bardoshi – tog‘, jimgina tinglaydi, e‘tiroz bildirmaydi. Men... orzu bilan umrni o‘tkazib yubordim-a qog‘ozlarga o‘ralashib, yig‘ilishlarda o‘tiraverib...”.

Yozuvchi Qurbon aka obrazi yonida davr muammolarining xo‘jalik taraqqiyotini nurli yo‘lga olib chiqishda va Mamajonning asov kuchini jilovlay oladigan Chori ota obrazini yaratishi ham asarda olg‘a surilgan g‘oyani aks ettirishda qo‘l kelgan. Chori ota hayoti va oilasi tasviri

berilgan syujet chizig'ida hayotdagi osuda qaltis haqiqat, qo'li kalta oddiy xalqning qismati o'z aksini topgan. Butun umrini shu jamoaga bag'ishlagan, paxta hosildorligi yo'lida bor kuchini ayamagan Chori ota taqdiri va tongda dalaga ketib, terga botib ketmon chopgan shomda bir bog' o't ko'tarib kelib, hech narsadan nolimasdan, o'zi kasal bo'lsada eri va bolalarini o'ylaydigan, natijada, o'zini asrab avaylamagan xotini Xosiyatning o'limi voqealari tasviri turg'unlik yillaridagi azob – uqubatli hayot kartinalaridir.

Barcha yozuvchilar ijodida bo'lgani singari Samar Nurov ham ijobiy qahramonlar yaratish yo'lida izlangan. U obrazlarning tabiiyligi, asar mavzusining ma'rifiy ta'sirchanligini va asarda olg'a surilayotgan g'oyaning yuzaga chiqishini ta'minlash maqsadida Qurbon aka va Chori ota kabi ijobiy obrazlar yaratgan. Bu ikki obraz Mamajon obrazining to'liq ochilishida muhim rol o'ynaydi. Bularning har ikkisi ham asar boshidan oxirigacha bo'lgan syujet oqimida ishtirok etadi.

Xarakterning milliyligi masalasi har doim ham adabiyotning muhim masalasi bo'lib kelgan. Bu hol sobiq sho'ro davri adabiyotiga ham xos bo'lgan xarakterda muayyan millatning o'ziga xos xususiyatlari, hayotidagi yangiliklar, ilg'or o'zgarishlar qanday mujassamlashgani aks etadi. Shu nutai-nazardan Chori ota obrazi e'tiborlidir. Yozuvchi bu obrazni guyo Mamajonni tergab turish, uni to'g'ri yo'lga boshqarish uchun yaratgan. Aslini olganda ham u xo'jalik hayotidagi o'zgarishlardan tortib el orasidagi ahvolgacha, ekin-tekindan tortib odamlarning yashash sharoitigacha qiziqadi. Fikrimizning dalili sifatida ba'zi epizodlarni eslaylik. Chori ota raisligida ham o'z oilasidan ko'ra xo'jalik ahlining farovonligini o'ylaydi. Yoki xo'jalik a'zolarini rag'batlantirish, mukofatlash bo'lsa ham el dardini birinchi o'ringa qo'yadi. Yoyinki Mamajon dehqon bozorida Chori otaga savdo ochib berib ko'nglini olmoqchi bo'lganida “bir kamim endi bozorda savdogarchilik qilish qoluvdimi?!. Teplitsa qurib bergan ishchilarga kilosini besh-olti so'mdan sotamanmi?” deya orlanadi.

Chori ota mulohazakor inson. Uning dehqonchasiga chiqargan xulosalari umumbashar va milliy qadriyatlar haqida o‘ylashga undaydi:”–Menimcha yer katta jondir. O‘rmonlar uning pati, juni. Daryo, soylar–tomirlari. Biz ham shu katta jonivorning ustidagi qurt-qumursqa...Hayot abadiy. Agar dehqon o‘z dardiga o‘ralashib, urug‘ tashlash, bola tug‘dirishni unutsa, sigir sog‘ilma qolsa-hayotning kasbi qir qilgani shu! Odam kitob o‘qimasa, musiqa tinglamasa, oyga qo‘nib, yulduzlarni bezovta qilmasa osmon uzilib yerga tushmaydi, bu yeru zamin dahshatli titramaydi. Agar dehqon urug‘ ekmay qo‘ysa falokat bu, oxirat!”(191-192-betlar).

Chori otaning hayot va uning abadiyligi, dehqon va uning yerga munosabati, insonning yaratuvchanlik salohiyati haqidagi o‘ylari, ta’bir joiz bo‘lsa mashhur qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning “Momo Yer”idagi To‘lg‘onoyning dardlarini yodga soladi.

Yozvchi bu asosiy qissaga xo‘jalik va tumanda istiqomat qiluvchi xalqning turli qatlamlarini ham olib kirgan. Bu qatlamlar hayotiga, shaxsiy faoliyatiga va o‘y-xayollariga oid tasvirlarni ham yorqin ifodalaydi.

Qissada oilaviy munosabatlar jamiyatning muhim ustunlaridan biri sifatida ta’kidlanishi ham e’tiborlidir. Bu masala Mamajonning oilasi isolida o‘z talqiniga ega. Kitobxon Mamajonning onasi va xotini Momaxollar xarakterida o‘zbek millatiga xos bo‘lgan oilaparvarlik, ayollik nazokati va oila burchi masalalarini o‘z ma’naviy dunyosi orqali idrok etadi.

“Momaxol tayyorlab, dazmollab, stul suyanchig‘iga osib qo‘yilgan kiyimni kiyib, ovqatlanib ketganicha tun yarimida qaytadi. Momaxol choy damlab kelib, uning yoniga o‘tiradi, u–budan gaplashmoqchi bo‘ladi. Mamajonning ko‘zlari yumilib, ayolining gaplarini eshitmay:

–Ha-ha...–deydiyu, katta boshi bo‘yniga og‘irlik qilayotgandek ko‘ksiga osilib tushaveradi.

Mamajonning tik turganicha bunday uxlashi Momaxolning jahlini qo‘zhaydi. Keyin bu jahl rahm-shafqatga aylanadi: “Ishi ko‘p, horisa nima qilsin?” joyini to‘shab kelib, sekin yelkasidan turtadi:

–Divanga borib yoting, uyqungiz bo‘zilmay.

–Ha-ya,–Mamajon uyqusirab o‘rnidan dovdirab turadi.

Obro‘li rais, direktorlarning xotinlari erlaridan ham oldin bo‘xcha bo‘lib, dimog‘i ko‘tarilib, o‘zlariga bino qo‘yib, bosar tusarini bilmay qolishadi. Momaxolning esa erining “ob-havosi” ta’sir etmagan, hamon qizligidagiday chaqqon, harakatchan, sodda erini kutadi. uxlamaydi” (86-87-betlar).

Kitobxon asar intihosida Mamajon obrazi timsolida insonning mehnat tufayli qanday shon-shuhratga erishgani va keyinchalik erishgan shon-shuhratini ko‘tarolmay tanazzulga yuz tutgani ishonarli hayotiy voqealar asosida tasvirlanganining guvohi bo‘ladi. Qissa syujetining yechimida berilgan Mamajonning oilasi fonidagi tasvir va uning ichki kechinmalari tasvirida yozuvchi xalq ommasining qudrati, oilaviy totuvlikning va el-yurt baxt-saodati yo‘lida ter to‘kkanlarning istiqboli porloq bo‘lishi ta’kidlanadi.

II. bob bo‘yicha xulosalar

1. Samar Nurov XX asrning so‘nggi choragidagi o‘zbek hikoyachiligi taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shdi. Bu davrda uning bir necha hikoyalar to‘plamlari chop etildi.

2. Uning hikoyalarida hayot va inson madhi ulug‘lanadi. Xususan zamondoshlarining yaratuvchanlik mehnati, ma’naviy qiyofasi, milliy koloritini ta’minlaydigan ma’naviy qiyofasi va xulq-atvorini o‘z hikoyalarida tasvirlay oldi.

3. Uning hikoyachiligiga xos bo‘lgan muhim xususiyatlaridan biri, shingil hikoyalar turkumini yaratganligidir. Uning ijodidagi bu fazilatni adabiyotimizning yetakchi hikoyanavislardan tortib taniqli adabiyotshunoslargacha e’tirof etishlari ham buning isbotidir.

4. Adib o'z hikoyalarida muhim ijtimoiy va milliy masalalarni ko'tarib chiqdi. Bu hikoyalar samimiyligi va zamondoshlari qalbiga ezgulik, insoniylik tuyg'ularini singdirish bilan e'tiroflidir.

5. Samar Nurovning hikoyalaridagi topqirlik, donishmandlik keyingi yillar kitobxoni uchun ham estetik va ma'naviy saboq beradi.

6. Hikoya janridagi ijodiy tajribalari va izlanishlar uning qissa-roman janrlariga ham asos bo'ldi deyishimiz mumkin.

7. U hayotning nosoz tomonlarini dramatik keskinlik negizida yuzaga chiquvchi tasvirlar asosida ochib bera boshladi. Uning bu boradagi individual mahorati "Rais" qissasida yorqin ko'zga tashlanadi.

8. Bu qissani o'qigan kitobxon guyo Qarshi cho'lini o'zlashtirishda fidoyilik ko'rsatgan yurtdosh paxtakorlarni qurgandek bo'lishadi.

9. Adibning "Rais" qissasiga bugungi kun nuqtai-nazaridan nazar tashlasa, muallifning hayotga tiyraklik bilan qarab, davrning o'ziga xos tamoillarini ochib berganligining guvohi bo'lamiz.

III.BOB. ROMANNAVIS MAHORATI

3.1.Davr muammolari va qahramon

Davrning muammolari badiiy adabiyotning taraqqiyoti jarayonida, xususan davr qahramonlari taqdirida ham hal qiluvchi, ayni paytda uning ma'naviy dunyosini namoyon etuvchi mezonlardan hisoblanadi.

Badiiy adabiyotdagi bosh qahramon talqinida davrning dolzarb muammolarini mujassam etish ijodning asosiy masalalaridan bo'lib kelgani ayon masala. Zotan har bir badiiy asar o'z davri ijtimoiy ongi qatlamlarigi yangiliklardan yaralar ekan, yozuvchi o'z ijobiy qahramon saviyasi bilan ma'rifiy yuksakligida turishi kerak.

XX asrning so'nggi choragiga kelib o'zbek romanchiligi davr qahramonlarini yaratishda va ularda hayotning murakkab muammolarini, turmushning eng muhim ijtimoiy qatlamlardagi siljishlarni zamondoshlarni umumlashtirib, idivuallashtirib berish sohasida bir qadar muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Xususan, Odil Yoqubov "Diyonat", "Oq qushlar, oppoq qushlar", P. Qodirov "Olmos kamar", O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi", O'ktam Usmonov "Girdob" romanlarida o'z qahramonlari xarakterlarini yaratish jarayonida turmushda uchrab turuvchi tasodifiy xususiyatlar va muammolarini emas, aksincha inson shaxsning tub mohiyati va o'zagini tashkil etuvchi, nisbatan barqaror va davr bilan birgalikda unga hamohang ravishda boradigan xususiyatlarga, ijtimoiy turmush va muhit ta'sirida tarkib topgan asosiy iroda yo'nalishini belgilovchi yetakchi jihatlarni ko'rsatishdi.

O'tgan asrning 70 yillar oxirida yozuvchi Samar Nurov tomonidan yaratilgan "Maysalarni ayoz urmaydi" romani shu nuqtai nazardan e'tiborga loyiq asarlardan biridir. Asar xususidagi tahlilimizni boshlashdan avval shuni eslatib o'tishimiz lozimki, mazkur asar muallif tomonidan 1986 yilda G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida chop etilgan "Narvon" nomli kitobida qissa deb e'lon qilingan. Asar "Maysalarni ayoz urmaydi" nomi bilan alohida nashr etilganida roman¹ deb havola etilgan. O'sha nashrdagi mo'jazzgina maqola bilan

¹ Samar Nurov. Maysalarni ayoz urmaydi

ishtirok etgan ustoz adabiyotshunos Ozod Sharofiddinov ham asar janrini roman¹ deya tahlil etgan. Shuningdek, adib ijodi “Metin irodali ijodkor” nomli ixcham adabiy portret² yozgan filologiya fanlari doktori, professor Damin To‘rayev ham ushbu asarni roman janrining namunasi sifatida baholaydi. Bizningcha, mazkur asar roman janri talablariga to‘liq javob beradi. Chunki asardagi voqea va xarakterlarning epik ko‘lamdorlikdagi badiiy talqini, undagi syujet va kompozitsiya tuzilishi, personajlarning son va fikrlarimiz bilan mazkur asarni O.Yoqubov, O‘.Usmonov, P.Qodirov, O‘.Hoshimov romanlari darajasidagi badiiy kashfiyot sifatidan qayd etishdan uzoqlashamiz. Biroq davr muammolari talqini jihatdan S.Nurovning ushbu asari yuqorida qayd etilgan romanlar sonini to‘ldiradi.

Adabiyotshunos M.Baxtining ta’rifi bilan aytganda, “Mualliflarning shaxsi va uning zamondoshlari eng – avvalo, o‘zlari yashayotgan kunlarga aloqador voqealarni ko‘rishadi, tushunishadi va baholashadi. Shu bilan birga muallif o‘z davri va o‘z zamonasining asiridir”.³ Demak ijodkorning asarida hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda qo‘llangan uslubiy ranglar mavzuning va hayot muammolarining zamondoshlari uchun qanchalik qadr-qimmatli hamda ahamiyatli ekanligi, g‘oyaviy bahoning aktualligi yetakchi o‘rinda turishi kerak. Shu bilan birga har bir davr mavzusi haqida mulohaza yuritayotgan tanqidchi va adabiyotshunos ham ana shu davrning, yozuvchi yashab ijod etgan zamonning “asiri” ekanligini unutmaslik kerak.

Endi ana shu nuqtai nazaridan yozuvchi Samar Nurovning “Maysalarni ayoz urmaydi” romaniga yondashaylik. Avvalo, bu roman ham yuqoridagi romanlar kabi davr va jamiyat kishilari haqidagi mushohadalarimizni bir qadar boyitish, qudratiga molik asarlardan. Unda ham o‘sha totalitar tuzum sovet davridagi turg‘unlik yillari xalqimiz hayotida sodir bo‘lgan muammolar aks ettirilgan. Unda ham muallif badiiy tafakkur ko‘zi bilan hayotni tadqiq etish, davr muammolari girdobida yashayotgan qahramonlar taqdiri va faoliyatida turg‘unlik davri keltirib

¹ Ozod Sharofiddinov

² Qarang: To‘rayev D. Davr va ijod mas’uliyati T., Yangi asr avlodi, 2004

³ L. N. Selkova. Sovremennim. M., Izd. “Znaniye”, 1987, str-6

chiqargan turmush ziddiyatlari silsilasi, o'sha zamonning o'ziga xos ijtimoiy muhitning tamoyillari chizib beriladi.

Badiiy asar mavzu ijtimoiy mohiyati bilan ta'sirbaxsh yoritilgan chog'dagina adabiyot uchun zarur va qadrlidir. Chunki mavzuning katta-kichikligi emas, balki u orqali asarda ifodalangan g'oyaviy konsepsiyaning davrga mansub ilg'or axloqiy-psixologik xususiyatlarga hamohangligi, salmog'i, san'atkorona yetkazilishi hal etiladi. Boshqacha aytganda, mavzu muallif ko'nglida uzoq ardoqlanib yetilgan g'oyani amalda badiiy kashf etish maydonidir. Buning misolini yozuvchining zamonaviy mavzuda yozilgan "Maysalarni ayoz urmaydi" nomli romani tajribasida ko'rish mumkin. Darhaqiqat, o'z paytida adabiy hayotimizda katta bahslarga sabab bo'lib adabiy – ilmiy jaoatchilik tomonidan ijobiy baholangan mazkur romanda yozuvchi individual uslubiga xos yangi qirralari, ya'ni maqsadni dramatik mohiyatli holatlar tasvirida ifodalash mahorati alohida ko'zgatashlanib turadi. Yozuvchi ijodidagi bu fazilatni to'g'ri payqagan va unga munosib baho bergan atoqli adabiyotshunos Ozod Sharofiddinov roman nashrida taqrizchi sifatida ishtirok etib quyidagilarni yozgan edi: "Samar qishloq hayotini tasvirlar ekan, ayrim yozuvchilar singari bir yoqlamalikka berilib ketmaydi, chuchmal hayot manzaralarini chizmaydi, idilliya yaratmaydi. Aksincha, asarda u hayotiylik prinsipiga qat'iy amal qiladi. Qishloq hayotidagi bugungi muhim ziddiyatlarni ochiq–ravshan ko'rsatadi". Yozuvchi romanda hayotdagi ana shu muhim ziddiyatlarni haqqoniy tasvirlash maqsadida o'z qahramonlarini Qishloq xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti olimlari va qishloq paxtakorlari orasidan tanlaydi. Asar qahramonlari ilmiy kashfiyotlar, haqiqat uchun kurashish va izlanishga, ona tabiatni ko'z qorachig'iday pok saqlash yo'lidagi ziddiyatli, og'ir va murakkab turmush chorrahalaridagi to'siqlarni yengib o'tishga to'g'ri keladi. Kitobxon asardagi ilmiy–tadqiqot institut olimlari va shu institut tajriba maydoni joylashgan xo'jalik rahbarlari hamda paxtakorlari faoliyati, ular o'rtasidagi munosabatlar, kurashlar orqali "inson bo'lib qolishi kerak!..."degan g'oyanig ijtimoiy mohiyatini anglab yetadi.

Romandagi sobiq sho‘ro davrining turg‘unlik yillari bo‘lib qolgan 70-yillar ikkinchi yarmi voqealari tasviri orqali jamiyatning o‘ziga xos muhitini va muhit asar qahramonlari xarakterlarida o‘z muhrini qoldirganligi haqqoniy aks etgan. Biroq ana shu jamiyatning vakillari bo‘lgan shaxslar o‘zlarining fe‘l-atvorlariga, qalb kechinmalariga, o‘sib ulg‘aygan muhit va egallagan mavqelariga muvofiq atrofda-ya’ni institut va xo‘jalik hayotida kechayotgan hodisalarga, odamlarga turlicha munosabatda bo‘ladilar. Asar qahramoni Nusratbek cho‘ldagi zamonaviy jamoa xo‘jaligining shaharchasida joylashgan ilmiy-tadqiqot institutida ishlab g‘o‘za parvarishiga oid ilmiy ishlar olib boradi. Uning zararli hashoratlarni yo‘qotish yo‘lidagi ilmiy tajriba o‘tkazishda institut xodimlaridan Ashir Haqqulov, institut partiya tashkilotining kotibi va jamoa xo‘jaligining ilg‘or brigada boshlig‘i Ahmad tog‘a ko‘mak berishadi.

Shu tariqa ijtimoiy muhit hozirlangan tipik sharoit ichida kichik muhit va undan kelib chiquvchi sharoitlar paydo bo‘ladi. Ular romanda aniq insoniy xarakterlar darajasiga yetgan obrazlardan tashkil topadi. Shunday holatni katta muhit-tipik sharoit ichidagi ijobiy kuchlar muhiti va vakillari faoliyatida ham kuzatamiz. Turmush murakkabliklari va oilaviy qiyinchiliklarni yengishda Nusratbekka dalda va ko‘mak beruvchi davrning katta va ilg‘or muhitini aks ettiruvchi Ahmad brigadir, ilmiy xodim Ashir Haqqulov, keksa paxtakor Xola guruhidagi kishilardir. Romanda shu muhitga mansub obralar biroz zaifroq gavdalanitirilganligini aytib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Shunga qaramay, ikkala muhit vakillari o‘zlari uchun hayotda sharioit yaratishga intiladilar, manfaatlari yo‘lida bir – birlariga qarshi kurash olib boradilar va o‘z xarakterlari qirralarini, asardagi muallifning g‘oyaviy konsepsiyasini badiiy ifodalaydi.

“Maysalarniayoz urmaydi”dagi ziddiyat xarakterlararo kurash va uning oqibatidan kelib chiqadigan ruhiy holatlarning tez-tez o‘rin almashib, biri ikkinchisini taqoza qilib turishi mantiqida kechadi. Bu hol ayniqsa Nusratbek, Xolisa, Gulxayri, Ahmad tog‘a va Xola obrazlar talqinida yorqin ko‘zga

tashlanadi. Shu sababli romanda obrazlar xarakterlararo kurash shaklidagi konflikt vositasida tipiklashtiriladi, individual xususiyatlar bilan ta'minlanadi.

Romandagi ba'zi obrazlar xarakterini, birinchi galda Nusratbekni izohlaydigan bo'lsak, u o'zining tipik va individualligi, qolaversa originalligi bilan asarning hayotiy va realistik ta'sirini, yozuvchi mahoratini ko'rsatuvchi xarakter saviyasida gavdalanganligini aytish o'rinlidir. Darhaqiqat, Nusratbek o'zini el farzandi sifatida bilgan, ilmiy izlanishlar yo'lida uchragan iqtisodiy qiyinchiliklar, oilaviy hayotidagi ko'ngilsizliklarni chidam bilan yengib o'tgan iqtidorli yosh olimlarning umumlashma va tipik xakteri bo'lib gavdalanadi.

Payg'amovning qayinsinglisi Gulxayriga ilakishib qolishi Nusratbek obrazidagi o'ziga xoslikni yanada jonlantiradi va hayotiylik bag'ishlaydi. Kitobxon roman nihoyasida asar qahramonining ilm va hayotdagi faoliyatida o'zining mehnatkash hamqishloqlari va ona zaminga tayanib hayotga bo'lgan munosabatidan xursand bo'ladi: "Nusratbek oyog'i ostidagi mehnatkash zamin qadim qonuniga binoan aylanib turganini, tegrasida buyuk vaqt, davr oqimi shiddat bilan oqayotganini sezib turibdi. Goho Nusratbekning ko'ziga zulmat, soyalar juda bahaybat, vahimali ko'rinib, nurni, yashil maysalarni yutib yuboradigandek tuyulardi. Aslida ular g'arib, mo'rt ildizsiz, beqaror ekanini shu tobda jismu jonida bir titroq bilan idrok etmoqda edi". Asar qahramonining qalb kechinmalari tasvirlangan bu parchada nafaqat uning hayotga bo'lgan munosabati, balki qadim zaminning donishmand qiyofasi, hayotning mazmuni va nafosati hamda insonning yashash zavqi uchun kerak bo'lgan tabiat in'omlarining juda o'rinli qayd etganidek, muallif o'zbek qishlog'i hayotini, odamlarni besh panjasidek yaxshi biladi. Shu sababli u qishloq hayoti tasviriga bag'ishlangan sahifalarni o'z qalbining teran mehri bilan bezaydi. Bu ayniqsa qahramonlar taqdiri va oddiy mehnatkashlar hayoti tasviriga aloqador lavhalarda, xususan, ularning kasb-kori, to'y-marosimlari, urf-odatlari tasviridagi o'ziga xoslikda ko'rinadi. Xullas, yozuvchining ushbu romani uning e'tirof etishga arzigulik mahorat imkoniyatlarini namoyon etdi.

“Maysalarni ayoz urmaydi” romanini o‘qib tugatgan har bir kitobxon voqelik badiiy ijodning bitmas-tuganmas tasvir obyekti, takrorlanmas tipik xarakterlar yaratishning manbai ekanligiga amin bo‘ladi. Chunki Samar Nurovning ushbu asari ham yuqorida qayta-qayta takror eslatganimiz – XX asrning so‘nggi choragida yaratilgan romanlarida tasvirlangan davr muammolari va davr qahramonlariga o‘xshash tasvirga ega. Biroq har bir talantli yozuvchi o‘z zamonasida sodir bo‘lgan har bir voqelikni ijodkorga xos o‘tkir nigoh, yuksak did va kuchli hissiyot dardi bilan kuzatib boradi. Hayotda bo‘lgan va paydo bo‘layotgan, istiqbolli yangiliklarni, davr taraqqiyotiga to‘g‘anoq bo‘layotgan turmush hodisalarini ham ziyraklik bilan ajratib olib, badiiy talqinga olib o‘tadi, tipik voqealar va xarakterlar orqali uni qaytadan ixtiro etadi.

Yozuvchi yaratgan qahramonlarda unga zamondosh bo‘lgan kishilarning fazilatlari, xulq-atvorlari, ma’naviy qiyofalarigina emas, balki davrning yetakchi alomatlari ham mujassamlashtirilgan, xarakterning iroda yo‘nalishiga asos qilib olingan, uning ijtimoiy-siyosiy qiyofasini namoyish etuvchi belgiga aylantirilgan bo‘ladi.

Samar Nurovning “Maysalarni ayoz urmaydi” romanini ham ana shunday fazilatlarga ega asarlar qatoriga kiritish mumkin. Romanning g‘oyaviy mazmuni unda tasvir etilayotgan hodisalarni bevosita mushohada etish natijasida tug‘ilishini e’tiborga olsak asarda tasvir etilayotgan voqealar oqimini syujet deb atalishi o‘z-o‘zidan aniq bo‘lib qoladi. Agar M.Gorkiy tabiri bilan aytadigan bo‘lsak, syujet odamlarning o‘zaro muomalasi, ular oralaridagi qaram-qarshiliklar, bir-birlarini yoqtirish yoki yoqtirmasliklari umuman, kishilar orasidagi munosabatlar-u yoki bu xarakterning, tilning tarixi, o‘sishi, tashkil topib borishidir”.¹

Shu ta’rifdan kelib chiqib “Maysalarni ayoz urmaydi” romanining syujet tuzilishiga yondoshadigan bo‘lsak, Nusratbek xarakterining o‘sishi tashkil topa borishi bosh syujet oqimini tashkil qiladi.

¹ M. Gorkiy. Adabiyot haqida. O‘zdavrnashr, Toshkent, 1962, 34-bet

Nusratbek qishloqda tugʻilib oʻsgan. U oliy maʼlumotli agronom sifatida oʻzi tugʻilib oʻsgan qishloqda faoliyat koʻrsata boshlaydi. Biroq paxta hashoratlari qarshi kurashuvchi dorini ishlatish masalasida jamoa xoʻjaligining raisi bilan chiqisha olmay, raisning uni “agronom emas, yugurdak qilib olmoqchi”ligini anglab shaharga kelib, ilmiy-tadqiqot institutida ishlay boshlaydi. Oʻz qishlogʻi va uning tabiatiga boʻlgan mehr uni dala tomon yetaklaydi. Uningcha “qishloqdan, eldan uzilib yovvoyi odam boʻlib” yashash hayotda oʻz oʻrniga ega boʻlmaganlik bilan barobar. Ana shu masalada bir paytlar muhabbat ramzi, goʻzallik maʼbudasi boʻlib koʻringan sevimli xotini Xolisa bilan ikki qutbga qarab uzoqlashib va begonalashib qoladi:

Yozuvchining bosh qahramon xarakterini mukammal va mantiq asosida berishga harakat qilganini sezish qiyin emas. U asar voqealariga ilonning yogʻini yalagan institut filialining direktori Boʻri Paygʻamov va uning sheriklari tomonidan Nusratning ustidan tuhmat uyushtirish, ilmiy kengashda uning faoliyatini qoniqarsiz topishi orqali uni ishdan boʻshatish bilan nuqta qoʻyishi mumkin edi. U holda asardagi tasvir mantiqi buzilgan boʻlar edi. Shuning uchun ham u Nusratbek xarakterining oʻziga xos vazminligini, haqiqat egilishini, lekin sinmaganligini, hayotning nurli yoʻliga chiqquncha boʻlgan faoliyatini, xarakterning hayot qozonida toblanishini kitobxon koʻz oʻngida jonlantirishda davom etadi. Buning uchun romanga ismi–sharifi aytimasada viloyatning qishloq xoʻjaligi masalalari bilan shugʻullanuvchi rahbarini olib kiradi. Asarda bu rahbar epizodik xarakterida ishtirok etsada, jamiyatning ilgʻor va sogʻlom kuchlari nafasi ufurib turadi. Toʻgʻri, bu rahbar bilan Nusratbek ha deb uchrashavermaydi. Viloyatning bu rahbari filial direktori Boʻri Paygʻamov va uning gumashtalarining Nusratbekning faoliyati haqidagi tuhmat gaplarini ham obdon tinglaydi. Shuningdek, filialning haqiqatgoʻy va vatan taraqqiyoti yoʻlida oʻz vazifalariga sidqidildan yondoshuvchi fidoiyi ilmiy xodimlarining fikrlarini atroflicha oʻrganadi. Asar xotimasida qalbaki olim Boʻri Paygʻamovning niyati oshmaganligi Nusratbekning oʻz sohasining iqtidorli mutaxassisi ekanligi oʻz isbotini topadi.

Xususan viloyat rahbarlari Respublika poytaxtida joylashgan ilmiy-tadqiqot institutining rahbarlari bilan kelishib filialning direktori o‘rinbosarligiga Nusratni tayinlab ketishadi. “Unvoni yo‘q. U shu yerda qoladigan bo‘lsa, ariza berib bo‘shab ketaman!” deb Payg‘amovga o‘z “sadoqati”ni bildirib, kekkayib yurgan ilmiy xodimlar ham jim bo‘lib, laborotoriya, tajriba maydonlariga shug‘ib ketishdi.

Shuni aytish kerakki, yozuvchi tasvirlamoqchi bo‘lgan tipik sharoit va undagi davr muammolari atrofida yuz beradigan qarama-qarshiliklar har xil shaklda bo‘lishi mumkin. “Maysalarni ayoz urmadi” romanida ana shu qarama-qarshiliklar, ya’ni ziddiyat, xarakterlararo kurash va uning oqibatida psixologik holatlar tez-tez o‘rin almashib, navbatlashib, biri ikkinchisini taqoza qilib turadi. Shu sababli romanda obrazlar xarakterlararo kurash shaklidagi konflikt vositasida tipiklashtiradi, individual xususiyatlar bilan ta’minlanadi. Fikrimizning isboti sifatida asar qahramonining quyidagi ruhiy kechinmasiga e’tibor qilaylik. Unda davr muammolarining qadriyatlar asosida qanday hal qilinishiga ishora bor:

“Nusratbek tashqariga chiqqach xo‘rligi keldi. Uzoq-uzoqlarga, hayot ikki karra ikkiday sodda, odamlari bir-biriga do‘st, birodar, go‘dakday sof joylarga bosh olib ketgisi keldi. Biroq bu orzu unga kulgili tuyulib, uyalib ketdi. “Temir asri”. Hayot murakkab, odamlar go‘dak emas, hamma joyda kurash talash bor. “Vallomatlar o‘tib ketgan”. Olijanoblik bilan olchoqlik, haqiqat bilan yolg‘on, vallomatlik bilan makr-hiyla, halollik bilan harom yonma-yon. Taraqqiyot esa, ana shu ziddiyatlarning kurashidan iborat. “(Samar Nurov.“Narvon”,10-bet).

Yozuvchi Nusratbekning kechinmalari orqali hayotdagi muhim ijtimoiy-ma’naviy muammolarni tadqiq etishga harakat qiladi. Asar qahramoni bolalik chog‘laridanoq atrofidagi odamlarning taqdiriga katta qiziqish bilan qaraydi, adolatsizlik nohaqliklarni teran his etadi, ular haqida tinimsiz o‘ylaydi. Quyidagi parchadagi Nusratbekning kechinmalari uning xarakteridagi kurashchanlikni ko‘rsatish bilan birga, asar g‘oyasini ochishga, uning nomlanishigamazmun-mohiyatini yoritish qudratiga ega:

“Nusratbek ariqdan sakrab bedapoyaga o‘tdi. Engashib bir tutam yo‘ng‘ichga yuldi. Halqasimon to‘q yashil yaproqlarga tikildi: bu nozik, zumrad yaproqlar qorbo‘ron, hashorat, hatto zararli dorilardan ham qo‘rqmaydi, o‘saveradi, yozda ham, qishda ham yerni tozalab, unga qayta kuch-quvvat bag‘ishlaydi. Butun mavjudodning maskani, rizq-ro‘zi bo‘lmish shu tuproqda o‘sib unadi, undan sharbat emadi, lekin holdan toydirmaydi, qaytaga shu tuproqni yashartiradi. Hatto quyosh ham nur va taftini shu yashil olayotganday.

Ayoz ham urmaydi buni!—Nusratbek onasining so‘zlarini eslab, mehr va havas bilan kaftida ezg‘ilab hidladi. Undan tuproq, quyosh, qirov, chirigan xazonlar, yana...Ahmad brigadr, xola Xolisa, Gulxayri hidi ufrganday bo‘ldi. Ruhi yorishdi. Ishdan haydalgani, Mahmudov, Payg‘amovning kirdikorlari xafa bo‘lishga arzimaydigan ikir-chikirday tuyuldi” (Samar Nurov. “Narvon”, 410-411-betlar). Asar qahramonlarining bu xulosalarida yozuvchining borliqni, turmush hodisalarini kuzatishi, mushohada qilishi, davr muammolari haqidagi qarashlari yotibdi. Boshqacha aytganda, hayot muammolari haqidagi yozuvchi qahramonlari badiiy tafakkur tarzida qahramonlar talqinida ifodalanadi. Chunki, yozuvchi hayotni betaraf, muayyan dunyoqarashidan, g‘oyaviy nuqtai nazardan, biron-bir yo‘sindagi idealdan ajralgan holda aks ettirmaydi. Shuning uchun ham yozuvchi Nusratbek obrazida chin va kamtar insoniy fazilatlarni tashlaydi.

“Ijodiy qahramon obrazida,—deb yozgan edi rus adabiyotshunosi—romanshunosi A.N.Dremov,—ideal bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiqroq holda ifodalanadi. Idealning bevosita ifodalanishiga ehtiyoj doim kuchli bo‘lgan, chunki ibrat sifatidagi obrazning shax shakllanishiga ta’siri beqiyosdir”.¹

Darhaqiqat, romandagi Nusratbek ana shunday obrazlardan. Asarni o‘qigan kitobxon uning faoliyatiga xayrixoxlik bildirdi, Qarshi cho‘lidagi bunyodkorlik ishlarining nimalarning evaziga amalga oshirilgani haqida va davrning hayotiy manzaralari xususida tasavvurga ega bo‘la boradi.

¹ An.Dremov. ideal i geroy. Izdvo “Iskussstvo”, M., 1969, str.20

Davr muammolarini talqin etishda, qisman mavzu talqinida ham Odil Yoqubovning “Diyonat” O‘ktam Usmonovning “Girdob” romanlariga yaqin turadi. Bizningcha Samar Nurov Nusratbek obrazini yaratishda bu asarlardan ijodiy foydalangani seziladi. Xususan, Nusratbekdagi kurashchanlik professor Normurod Shomurodov va yosh tadqiqotchi Azizga o‘xshab ketadi.

Romanda bir qator asosiy obrazlar yaratilganki, bular ham o‘z navbatida muallifning g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasi ochishga, albatta, birinchi o‘rinda Nusratbekning hayot muammolarini tushunishi va uning girdoblaridan chiqishida muhim rol o‘ynaydi.

Roman asosidagi konfliktni qalbaki hayot kechirishni, birovlarining ilmda yangi cho‘qqilarni ko‘zlovchi Bo‘ri Payg‘amov boshchiligidagi kuchlar tashkil etadi. Bo‘ri Payg‘amov hayotda ancha ustamon va pixini yorgan odam. U Nusratbekni shaharda qishloq dardi bilan yonib yurgan kunlarning birida uning iste’dodidan xabardor va bu iste’doddan shuhrati yo‘lida foydalanishni maqsad qilgan Bo‘ri Payg‘amov cho‘lda o‘zi rahbarlik qilayotgan ilmiy-tadqiqot institutiga ishga taklif etadi. Ko‘p o‘tmay, uning institutdagi ilmiy izlanishlari va el-yurt uchun xayrli ishlari davr ruhidan qoloq, manfaatparast, bir paytlar boshini “silagan”, biroq o‘zidan boshqalar kashfiyotini, yuksalishini xush ko‘rmovchi fan dargohiga adashib kirib qolgan direktor Bo‘ri Payg‘amov uchun obro‘si va mavqeiga xavf tug‘dirayotgandek tuyula boshlaydi. Bo‘uri Payg‘amov timsolida ilmiy daraja uchun mansab va zamondan ortda qolmaslik payida bo‘lgan iste’dodsiz olimlarning qiyofasi individuallashgan. U Nusratbekning radiasion biologik va mutagez laboratoriyalaridagi tajriba asosida g‘o‘zaning bargini tabiiy holda to‘kilishi haqidagi maqolasiga sheriklik qiladi. Uning ilmiy ishlari jamlangan kundaliklar va institut ilmiy xodimi, fidoyi tadqiqotchi Ashir Haqqulov tadqiqotlari natijalari asosida monografiya e‘lon qiladi. Nusratbek iste’dodidan foydalanib bo‘lgach, undan qutilish maqsadida institut kengash yig‘ilishida jamoani unga qarshi qo‘yadi. Shu maqsadda axloqan beburd qayinsinglisi Gulxayri va o‘zining bir qator badkir tarafkashlarini Nusratbekka qarshi qo‘yadi.

Asarning boshlanishida yozuvchi Bo'ri Payg'amovning xarakteridagi maqsadni benarvon o'rishiga diqqatimizni qaratadi. Nusratbek shaharda ishlab o'zining "Mehribonligini namoyon etadi. U Nusratbekka hamyurtligi eslatib to'rt devor ichida qog'oz titkilab o'tirishdan ko'ra dalalarga chiqib tajriba olib borishni taklif etadi. Uning bu mulozamatidan keyin Nusratbekda unga nisbatan mehr uyg'onadi". Biroq uning bu "ishq" muamolasida, "o'rtoqlar aytishdi" degan gapida aslida Nusratbekni oldin, uning jurnallarida bosilgan pishiq va jiddiy maqolalarini o'qiganida ko'z ostiga olib qo'ygan, uning ish kabinetiga ham ataylab uni ko'rish, ko'ngliga qo'l solish uchun kirgan edi. Lekin bari-bir ko'ngli pok, qalbi toza Nusratbek bu holatni samimiylikka yo'g'irishdan chiqmagan edi:

Nusratbekka u shu birinchi uchrashuvdayoq yoqdi: bir oz sho'xroq, lekin ochiq, samimiy ekan. Bunday odam bilan ishlasang huzur qilasan. Ayniqsa, "dalaga chiqib, biron foydaliroq ish..." degani...Odamning ichidagini ko'rib turganday-a! Donolar shunday, odamni bir ko'rishdayoq uning ahvoli ruhyasini bilishadi. Kamtarligi-chi! Kimsa, katta bir ilmiy-tadqiqot instituti filalining direktori, fan kandidati, professor. Poytaxtda ortidan ergashib, uyiga "bir piyola choy" ga taklif qilib yurgan yuzlab baobro' do'st-yorlari bo'lishiga qaramay, vaqt topib Nusratbekni ko'rgani kiribdi.

Nusratbekning hayotiga u bilan birga yangi bir sof oqim, zumrad dalalar nafasi ufurib kiradigandek tuyuladi. Ko'ngli yorishib ketdi.

—Boring, xoxlagan yumushingizni beraman,—dedi xayrlashayotib Payg'amov, sidqidildan. Uning boqishlari qat'iy edi. Hayotda ko'zlagan aniq maqsadi bor, o'ziga ishongan kishilarnigina boqishlari mana shunday dalda bo'ladi" (Samar Nurov. Narvon. 228-bet).

Yuqorida aytganimizdek Nusratbekning iste'dodini sezgan va undan o'z o'rnida foydalanishni rajalashtirgan Bo'ri Mavlonovich tez ursatda unga institut laboratoriyasini boshqarishni taklif etadi. Shu maqsadda endigina nafaqa yoshiga yaqinlashgan, biroq fanda bir qator izlanishlar qilgan, xususan, Ashirsoniya zamburug'ini ixtiro qilgan Ashir Haqqulovni nafaqaga chiqarish uchun buyruq

tayyorlaydi. Bo‘ri Payg‘amov xarakteridagi ustamonlik, maqsadni benarvon urishi, ayniqsa, filialda Alisher akani kichkinagina kuzaatish marosimidja namoyon bo‘ladi. U hatto Ashir akaga mukofot puli yozganligini ham pisanda qiladi. Kitobxon kitob sahifalari bo‘ylab Payg‘amovning Nusratbekni o‘ziniki qilib olish maqsadida uni o‘z xizmat mashinasida tajriba maydonlarini aylanishga birga olib chiqishini viloyat markaziga har xil namunalar bilan birga borishini, xonadoniga mehmonlikka chaqirishining guvohi bo‘ladi. Bo‘ri Payg‘amov saxiylik ko‘rsatgan kishi bo‘lib Nusratbekni filial hisobidan poytaxtga o‘n kunlik xizmat safariga jo‘natadi:

“–Davlat jon kuydirib ishlaydigan odamdan hech narsani ayamaydi. Boshqa xodimlarday ekin-tikin, mol-holingiz bo‘lmasa. Endi komandirovkaga ham o‘z hisobingizdan borib kelasizmi? U Nusratbekning qo‘shimcha daromad qidirmay, maoshga qanoat qilib yurganiga hali ham tushuna olmasdi.–Yoki sizni ham “Gavhar qo‘l” kinosidagiday, ilohim, bitta maoshga qarab qolgin-da, deb duoyi band qilishganmi?

–Maosh yetib turibdi.–Nusratbek kuldi. U bahonada bolalarini ko‘rib keladi-bu uning uchun baxt-ku! Payg‘amovning bu hazilidan yana yayrab ketdi.”Xodimlarning turish-turmushiga razm solib, mehribonlik qilib yurar ekan”.

–Uyda bola–chaqa oldida bo‘ling, anchadan buyon ko‘rganingiz yo‘q. Mana bu hisobotlarni institut ilmiy sekretariga topshirib, keyin “Fan” ga o‘tasiz.–Payg‘amov katta konvert berdi.–Buni qishloq xo‘jalik bo‘limiga topshirasiz” (Samar Nurov “Narvon”, 356-bet).

Aslida, bu saxiylikning va mehribonlikning sabablari bor edi. Bu Nusratbekning ixtirolaridan o‘zining doktorlik disertasiyasi uchun foydalanish edi. Yozuvchi buni voqealar kechimi jarayonida va asar syujetida asosiy yo‘nalishini tashkil etgan obrazlar faoliyati asosan mantiqan asoslab beradi. Jumladan, Nusratbekni “o‘ziniki” qilib olish va unga yaqinlashishni maqsad qilib olgan Bo‘ri Payg‘amov tasodifan uning filialda yashaydigan xonasiga “mehmon” bo‘lib keladi. Nusratbek mehmon uchun dasturxon hozirlash taraddudini ichkari-tashqariga kirib

chiqib uning ilmiy-tadqiqot tajribalari qayd etib boradigan kundaalik daftariga ko‘zi tushib qoladi. Kundalikda sanasi ko‘rsatilgan holda biologik kuzatishlar qayd etilgan edi. Payg‘amov kundaliklardagi qaydlarga ko‘zi tushishi bilanoq fan olamiga no‘malum biologiya kataloglari ro‘yxatida yo‘q uch-to‘rt hashorat nomini ko‘rdi. Mana ularning ba‘zilari:

”24-3. Shaftoli daraxtida ning endi urug‘dan chiqqan qurtini ko‘rdim.

2-4. Ikkita voyaga yetmagan Seiphanites topdim.

30-4. Chigit erta ekilgan maydonlarda g‘o‘za unib chiqdi.

29-5. Ertaki g‘uzada ilk gul

13-5. G‘o‘zada kuzgi tunlan qurtlari ko‘rina boshladi...”(Samar Nurov. “Narvon” 324-325-betlar).

Bir paytlar pedagogika institutining biologiya-geografiya fakultetini bir amallab sirtdan bitirgan va bir yo‘lini qilib fan nomzodligi ilmiy darajasiga ega bo‘lgan hamda nafsini hakkalab o‘tib filial direktorligi kursisiga o‘tirgach, fan doktorligi, Fanlar akademiyasining haqiqiy va muxbir a‘zosi bo‘lishini orzu qilib yurgan Bo‘ri Payg‘amov uchun Nusratbekning bu ilmiy-kuzatishlari kalavaning uchini topib bergandek edi. Uning xayollari birdan chuvalashib ketadi. Uning fikricha Nusratbek butun boshli bir institut olimlari qildirayotgan muammoni bir o‘zi hal qilib qo‘ygan-u lekin uning ma‘nosini hali to‘liq tushunmagan ko‘rinadi. Uning kalovlanib, parishon xotirlikda yurishning sababi ham shunda bo‘lsa kerak. Ana shunday o‘ylarni xayolidan o‘tkazgan Bo‘ri Payg‘amov bu izlanishlari natijalarini biron joyda e‘lon qilmagan. Lekin, degan tahlikaga ham tushadi. Bir yo‘lini qilib soddadil Nusratbekdan o‘sha kundalikni oladi.

Ishi bitgach, qanday bo‘lmasin, Nusratbekdan qutilish yo‘lini o‘ylay boshlaydi. Nusratbekni gunohkor qilib ko‘rsatish maqsadida uni o‘sha davr tartib-intizomi bilan shug‘ullanuvchi drujinachilar qo‘liga topshiradi. Pichoq bo‘g‘ziga yetgan Nusratbek Payg‘amovning bu xatti-harakati uchun uning yuziga tuflaydi.

Ana shu jarayonda yozuvchi Payg‘amovning maslak-maqsadini ochish niyatida salbiy kuchlar harakat qilayotgan syujet oqimiga, ikkiyuzlamachi,

xushomadgo'y kimsalarni olib kiradi. Ular ishtirokidagi voqealar oqimi, ya'ni Nusratbekni badnom qilish va shu asosda ishdan bo'shatilishi masalasi fan dargohiga addashib kirib qolgan Payg'amovning jirkanch qiyofasini yanada jonlantiradi. Bu o'rinda yozuvchi Payg'amov xarakteridagi amalga oshirmoqchi bo'lgan ishini obdon pishitishini, unga zamin tayyorlash borasidagi ustakorligini bosqichma-bosqich tasvirlab borganini e'tirof etish kerak. Xususan, Payg'amovning Nusratbekka "Siz ish uchastkaning mutasaddisi, boshingiz bilan javob berasiz. U joydagi tajribalarning ahamiyati hammadan ham ko'ra sizga ayon edi", "Maqsadim, yana takrorlayman yaxshi, hushyor ishlaylik! Yuqoridan gap eshitmaylik. Kollektivimiz nomiga dog' tushmasin" deya tanbeh berishlari asosida isbotlab beradi.

Bo'ri Payg'amov Nusratbekni o'z xoxishi bilan ishdan ketishini tashkil etadi. Chunki bu usul, uni Nusratbekka unchalik yomon ko'rsatmas edi. Shuning uchun uni ishdan rasmiy holda bo'shatmaydi, konkursdan yiqitishni—o'tkazmaslikni qo'llamaydi. Aksincha o'z gumashtalari bilan institut filialining tajribalar yakuni muhokama etiladigan "kichik kengash"da uning faoliyatini muhokama qilishadi. Shu o'rinda Payg'amovning xushomadgo'ylaridan biri baqaloq Dallolovning nutqi berilgan parchaga e'tibor beraylik:

—Bo'limda keyinggi paytlarda ahvol og'irlashib ketdi. Intizom bo'sh. Laboratoriyalar, garchi direksiya hamma sharoitni muhayyo qilib qo'ygan bo'lsa ham, jihozlanmagan. Aytishga uyat, tajrib o'tkazish uchun goho kolba topilmaydi. Y. Bitta lampochka nima degan narsa; koridor necha oydan buyon qorong'i. Kechirasiz, o'rtoqlar, mashinistkaning-ku, umuman yoniga yaqinlashib bo'lmaydi. Doim band. Institut emas, redaksiya bo'lib qoldi bu joy! Qachon qaramang, qanaqadir maqolalar yozish bilan band. Tajriba uchastkasiga borib kelay desang, shofyor: "Nusrat akam u yoqqa bormoqchi, bu yoqqa bormoqchi, deydi. Parnikning oynalari sinib yotibdi,—Dalolov ilmiy ishlar haqida lom-mim demadi" qo'ltig'ida yashirib yurgan "toshlarini" Nusratbekka otib-otib, direktorga sadoqatini bildirdi.—aytgan bilan ado bo'lmaydi, tartibsizliklarni nonni halollob

yeng-da, o'rtoq! Qachongacha Bo'ri Mavlonovichga boqimanda bo'lib yurasiz?!" (Samar Nurov. "Narvon", 406-bet).

Shuni ham unutmaslik kerakki, Samar Nurovning ushbu romani sobiq sho'ro davri mafkurasining ta'siri ostida yozilganligi yaqqol sezilib turibdi. Bu holat asardagi konflik asosida yotgan davr muammolarining hal etilishida va asar qahramonlar taqdiri hal etilayotgan tasvir lavhalarida mavjud. Bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas edi. Shuning uchun ham asar voqealarining yechimini berish jarayonida jamiyatni boshqargan mafkuraviy rahbar tashkilotlarining yetakchilik qiluvchilik faoliyat ustivorligi mavjud. Nusratbekning jamiyatning ilg'or a'zosi sifatidagi fazilatlar ham, paxtachilik sohasida katta ahamiyatga molik tadqiqotlarning muallifi sifatida ham ana shu tashkilotlar tomonidan e'tirof etiladi va o'z xarakterida qobiliyat va iste'dod qirralar, o'z davrining talablariga javob bera oladigan el-yurtga va mehnatga fidoiylik kabi insoniy fazilatlar jamuljam edi.

Mualif Bo'ri Payg'amovni davrning salbiy tipi darajasida uning tarjimai holiga, o'sib ulg'aygan oilasidagi muhit tasvirlariga ham keng o'rin ajratgan. Ana shu jarayonda ham davr mafkurasining badiiy ijodga–badiiy tafakkur talqiniga o'tkazgan tazyiqini sezamiz. Xususan, Bo'ri Payg'amov obrazi va u bilan bog'liq tafsilotlar badiiy to'qimaning mahsulimi yoki hayot-haqiqatiga oid voqealar, shaxslar pratotiplari mavjudmi–yo'qmi bu bizga qorong'u narsa. Buning ustiga asarni bu taxlitda o'rganish alohida masala.

–Yozuvchi-ya'ni Samar Nurovning o'zi bu xususda yozma yoki og'zaki ravishda fikrini ochiq aytganmi–yo'qmi bu bizga qorong'i. Shuningdek, biz o'zbek adabiytanqidchiligi va adabiyotshunosligidagi Samar Nurov ijodi tahlil etilgan ilmiy manbalarda yozuvchi ijodiy laboratoriyasiga oid kuzatishlarni uchratmadik. Shuning uchun ham yozuvchining Bo'ri Payg'amov obrazini o'z ijodiy niyatiga asosan davrning salbiy tipi sifatidagi tasvirida davr ijodiy jarayonidagi mafkuraviy yo'lni tutgani ayon. Shu maqsadda tasvirda Bo'ri Payg'amovning o'spirinlik davriga ekskursiya qilinadi. Uning otasi Mavlon raislik lavozimida ishlagan

kezlari xalq dushmani sifatida davlat siyosatiga qarshi, borgan shaxs sifatida harakat qiladi:

“Ertasi kuni qishloqda “Mavlon xalq dushmani ekan”, degan shumxabar tarqaldi. Kolxozga raykombobo kelgan rais uni ergashtirib, Mavlonni dalasiga olib boribdi; Paykalni bir chetidagi g‘o‘zalarni sigir yeb yurgan ekan. Besh-olti egatdagi nishab joylarni suv bosibdi. Jahli chiqqan raykom bobo raisdan:

–Mavlon qayerda?–deb so‘rabdi.

–Uyiga ketgandir.

–Odamlar urushda jon olib, jon berib yotganda, bu fribgar har bir chigiti yovga o‘q bo‘lib, bir fashistni yostig‘ini quritadigan paxtani ko‘llatib molga yedirib qo‘yibdi! Bu halq dushmaning ishi!–deb yuboribdi jahl ustida.

Oradan yana bir kun o‘tgach yangi xabar tarqaldi:

–Mavlon, qamoqda bekor nonxo‘rlik qilib yotguncha urushga ketaman, debdi...

“Mavlon brigad” shu ketgancha dom-daraksiz. Jangda biron ish ko‘rsatib keyin xabar beraman, deganmi yoki boshqa bir sababi bormi, qahraton qish boshlandi ham undan darak bo‘lmadi. Har kuni tong bo‘zarmasdan yangi brigadir kelib, darvozani tayoq bilan qarsillatib uradi:

–Hoy, ariq qazishga-yovv!!

–Hoy, yaxob berishga, sho‘r yuvishga chiqinglar-ov!!

–Go‘ng tashishga-yovv!!

–Dalaga-yo, dalaga!!!...” (Samar Nurov. “Narvon”. 434-betlar)

Shu tariqa Bo‘ri Payg‘amovning hayot qozonida toblanganligini, shaharga borib avval qishloq xo‘jalik texnikumida o‘qigani, ijarada turgan kezlari uy egasining qiziga uylangani, so‘ngra pedagogika institutining tabiat-geografiya fakultetini bitirgani, shaharlik qaynonaning yo‘l-yo‘rig‘i bilan hayotda qanday yashash kerakligi mahoratiga ega bo‘lganligi hikoya qilinadi. Adabiy fon sifatida tanlangan bu tasvirlar, yuqorida aytganimizdek, davr manzarasini ko‘rsatish

vazifasini bajargan. Bizningcha adib bunday shablon tasvir usulidan qochish kerak edi.

Demoqchimizki, Bo‘ri Payg‘amovdek davrning salbiy tipini yaratishda, o‘ziga xos ijodiy izlanish-yangicha yo‘l tutilsa asarda boshqa asarlardagi tasvirga o‘xshamagan, badiiy shablondan uzoqroq, yangi badiiy topilma singari orginallik yuzaga kelar edi.

Biz bu fikrlarimiz bilan muallifni biron-bir asarga taqlidchilik qilgan demoqchi emasmiz. Aslini olganda barcha xalqlar adabiyotida yaratilayotgan asarlar ijodiy tajribalar va an‘analari asosida yuzaga keladi.

E’tirof etish kerakki, yozuvchi davrning o‘ziga xos salbiy tipi sanalgan Bo‘ri Payg‘amovning soxta obro‘, yuksak lavozim va o‘tkinchi shon-shuhrat uchun hech narsadan chekinmaydigan qalbaki qiyofasini ochib bera olgan. Muallifning bu badiiy muvaffaqiyati ayniqsa asar xotimasida Bo‘ri Mavlonovichning siri ochilib, olimlikdagi soxta iste’dodi–ko‘chirmachiligi oshkor bo‘lgach ham uning o‘z obro‘-e’tibori uchun chirmashib yotishidagi munofiqliklari mantiqan dalillangan:

–Mening xonimonim sening qo‘lingda, boshqa najotkorim yo‘q,–Bo‘ri Payg‘amov kissasidan Nusratbek nomiga yozilgan yangi “Mehnat daftarchasi”ni olib qo‘ydi. – Eskisini yoqib yubor. U bilan birga mening qabohatlarim ham kuyib ketsin. Hohlasang, ko‘milgan ariqlarni qayta ochib, qiyomatlik aka-uka tutinaylik. Sen ham menday yolg‘iz ekansan.–U bu so‘zlarni sidqidildan aytayotgan edi. Lekin bu gap Nusratbekning ko‘nglin yumshatish o‘rniga, nafratini oshirdi.

–Aka deb bo‘ldim,–dedi u cho‘rt kesib.–Endi menga sizday aka kerak emas!

–Menga kerak. Mayli, da‘vongdan kechmasang ham mayli. Menga senday halol uka kerak, o‘shanda, balki o‘zgarib, boshqa odam bo‘lib qolarmidim...”(Samar Nurov. “Narvon”, 445-bet)

–Romandagi bu parchalarni o‘qiyotgan, xususan Bo‘ri Payg‘amovning munofiqlikka yuz tutgan qiyofasini sahifama-sahifa kuzatgan kitobxonning yodiga xalqning “bukrini go‘r tuzatadi” degan maqoli yodiga tushadi. Chunki u insoniylikni oyoqosti qilgan, iste’dod uchun to‘g‘anoq bo‘lgan soxta olimning endi

tavbasiga tayanganiga, pushaymon qilayotganiga, bir yumalab, beozor va beg'ubor odamga aylanib qolgani haqida xulosa chiqarishga shoshilmaydi. Ana shunday xulosa chiqarishga shoshilmaslikka yozuvchining tasviridagi o'ziga xos badiiy talqin sababchi. Bu tasvirlarda yozuvchi Bo'ri Payg'amovning nihoyatda olijanob, halol go'zal inson darajasiga ko'tarilishi yoki ko'tarilmasligi to'g'risida fikr bildirishmaydi, qahramon taqdiridagi o'zgarishdan darak bermaydi.

Asar xotimasida Samar Nurovning o'ziga xos badiiy mahoratining muhim bir xususiyati namoyon bo'ladi. Bu avvalo, uning g'oyaviy konsepsiyasini tashuvchi bosh qahramon talqinida ko'rinadi. Sal yuqoriroqda Nusratbekning hayotida ro'y bergan o'zgarishni, ya'ni uning tuhmat balolaridan qutilib, pok va kurashuvchan insonligi, undagi olimlik va rahbarlik qobiliyatining e'tirof etilgani xususida to'xtalgan edik.

Asar konfliktida asosiy o'rin tutuvchi Bo'ri Payg'amovga aloqador voqealarga uzil-kesil nuqta qo'yilmagani, uning taqdirining bundan keyin qanday bo'lishi bashorat qilib aytilmagani; hayotidagi bo'lajak o'zgarishlar yakka-yu, yagona to'xtamga keltirib qo'yilmagani "Maysalarni ayoz urmaydi" romaniga alohida tabiiylik, hayotiylik baxsh etadi. Eng muhimi, romandagi davr muammolari, qahramonlarning xatti-harakatlari, fikr-o'ylari, mulohazalari, kechinmalari roman janriga xos bo'lgan katta miqyosdagi epik tafakkur talablari asosida tasvirlanadi.

Mazkur asar ana shunday g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan Oybek, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Primqul Qodirov kabi romannavislarimizning an'analarini davom etkazib, uni o'z davri muammolari bilan boyitdi. Samar Nurov davr muammolarining iliy-texnika taraqqiyotidan kelib chiqib, insonning o'z davri hayoti, taqdiri, baxt-saodati, quvonch-shodliklari, g'am-alamlariga bevosita bog'lanadigan, nurli kelajak zaminini hozirlashda juda katta ahamiyat kasb etadigan hayotning muhim ijtimoiy-ma'naviy muammolarini ko'tarib chiqadi va ularni Nusratbek, Ashir aka, Ahmad tog'a singari obrazlar talqinida berishga intiladi.

Asarda muallif Bo‘ri Payog‘amovdan boshqa nari borsa ikki-uchta (Dallolov, Jasur Mahmudov, Payg‘amovning institutda sirdan o‘qiydigan jiyani–SH.U) salbiy orbaz tasvirini beradi. Bunday kelib qaraganda, salbiy obrazlarga kam o‘rin bergandek tuyuladi. Biroq shunday bo‘lsada ana shu kam sonli salbiy tiplar bosh qahramonning xarakterini yaqqolroq ko‘rsatishga, asarda tasvirlangan davr muammolari mohiyatini ochishga, roman g‘oyasining qiyomigayetuviga xizmat qildirgan.

Shuni alohida qayd etish kerakki, asarda xalqning oddiy mehnatkash vakili Ahmad tog‘a obrazi muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi Ahmad tog‘aning haqqoniy va tabiiy xarakterini tasvirlashda mahoratini namoyish eta olgan. U kitobxon yodida juda yaxshi o‘rnashib qoladi. Bunga muallif uning xarakteridagi individual jihatlarni topib tasvirlashga erishadi. Tasvirda Ahmad brigadir xatti-harakati va xarakteriga shuningdek oilaviy hayotiga oid syujet chiziqlari talaygina.

Badiiy ijodda shunday bir yashovchanlik ijodiy an‘ana mavjudki, bu an‘ana barcha xalqlar adabiyotida uchraydi. Bu biron bir yoki ikki uch obrazning mustaqil asar va janr hisoblanuvchi asarlarda faoliyat ko‘rsatishidir. Yoki bir voqea asosida tasvirlangan voqealar hikoya janri nomida e‘lon – nashr etilib keyinchalik yozilajak qissa va romanlar mazmuniga singdirilib yuboriladi. Yoyinki, o‘sha katta janrdagi asarlarda maxsus bob sifatida asar syujeti va kompazitsiyasi tarkibiga kiritiladi. Ma‘lumki, hikoya janri deyilganda inson hayotidagi uncha katta bo‘lmagan bir voqea tasviri, bir-biriga uzviy bog‘liq qisqa muddat davomida kechgan bir necha voqea, bu tasvirlanayotgan voqealarning janri talabiga binoan hajman kichik, syujeti sodda ishtirok etuvchi personajlar soni kam bo‘lishini taqoza etadi.¹

Bunga misol tariqasida uzoqqa bormasdan o‘zimizning milliy adabiyotimizda–yangi o‘zbek adabiyotida yaratilgan asarlarni ko‘rsatishimiz mumkin. Xususan, mumtoz adibimizning o‘tmishi mavzusidagi bir qator hikoyalari mazmun mohiyati e‘tibori va obrazlari tarkibi bilan “O‘tmishdan

¹ Bu haqda qarang: Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi, –T., O‘qituvchi, 1996, 248-bet; D. Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati–T., Akademya nashr, 2010, 393-394-betlar

ertaklar” qissasi syujetiga singdirishib yuborilgan. Shuningdek, Said Ahmadning “Jimjitlik” romani badiiy to‘qimasida qayta tug‘ilgan Mustaqil davri o‘zbek adabiyotining faol namoyondalaridan biri Xurshid Do‘smuhammadning “Bozor” hikoyasida olg‘a surilgan badiiy g‘oya va obrazlar, shuningdek bir qator hikoyalarda “umr kechirgan” Qadriya obrazi uning “Bozor” romanida ham “faoliyat” ko‘rsatadi. Albatta, bu hikoyalardagi syujet chiziqlari va obrazlar roman va qissalar syujet va kompozitsiyasidagi bir butunlikka tutashib ketgan.

Badiiy ijoddagi ana shu tajriba Samar Nurovning “Maysalarni ayoz urmaydi” romanida ham ko‘zga tashlanadi va anchayin ijobiy va ijodkorlik yo‘sinida o‘z badiiy yechimini topgan. Yozuvchi “Maysalarni ayoz urmaydi” romanidan ancha yillar oldin, xususan, o‘tgan asrning 70-yillarining boshida “Beda hidi” hikoyasi e‘lon qilingan edi. Hikoyada hayotda bo‘lib o‘tgan qisqa voqelar ishtirokchisi Ahmad brigadr ham asosiy obraz sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Mazkur hikoyaning janri xususiyati, haqida na bir bor to‘xtasak, shuni qayd etish joizki, u ancha baqquvat bo‘lib mazmun va shakl jihatidan janr chegarasini yorib chiqish xarakterida. U yetti fasldan iborat bo‘lib salgina “ishlov” berib qissa deb e‘lon qilsa arziydigan asardir. Asarning hajmi va undagi mazmun yuki shuni taqoza etadi. Asarning ana shu xususiyatidan kelib chiqib yozuvchi bu hikoyani “Maysalarni ayoz urmaydi” romanining boshlanish qismiga “payvand” qiladi.

Yozuvchi Ahmad Brigadir obraziga romanda ham atta o‘rin ajratgan. Bosh qahramon Nusratbekka tug‘ishgan tog‘adan ham mehribon bo‘lgan Ahmad brigadr o‘z davri muammolari hisoblangan – paxtachilikni rivojlantirish, turmush farovonligini oshiish va ijtimoiy hayotning ko‘plab sohalarida faol ishtirok etadi.

Ahmad brigadr hayotida, ayniqsa yoz-kuzda paxtadan boshqa narsani ko‘rmas, qulog‘iga paxtadan boshqa narsa kirmas, yerlarni g‘o‘zapoyadan tozalab, shudgor qilib qo‘ygandan keyingina uy-ro‘zg‘or ishlariga qarar, to‘y-ko‘pkariga borar edi. Mutaxassislar bilan paxta ekiladigan yerlarga kimyoviy dorilarni solishga qarshi edi. Uning xatti-harakatlari, qiyofasi, Nusratbekning ilmiy faoliyatiga hamnafas bo‘lishi o‘z zamondosh paxtakorlari uchun namunadir.

Nusratbek o'z ilmiy tajribasining ko'p qismini Ahmad brigadr dalasida o'tkazar edi. Shuning uchun o'z kundaligida Ahmad brigadrning nomi bir necha joyda eslatilib, uning mulohaza va tajribalari keltirilgandi. Kundalik bilan tanishgan Bo'ri Payg'amov bu "topildi"dan xursand bo'lib, uning brigadasini institut tajriba maydonlari hisobiga o'tkazish rejasida Nusratbekka bu rejasini sezdirman holda uni mashinasida Ahmad brigadirning dalasiga olib boradi. Ahmad brigadirning Payg'amov bilan qilgan suhbatida undagi paxtakorlik kasbiga bo'lgan mas'uliyati, paxtachilikning murakkab soha ekanligi yana bir bor eslatiladi:

"Brigadir direktorga oldin suvga yolchimay qolgan majmag'il g'o'zalarni ko'rsatdi:

—Bu tabiatning hech insofi yo'q ekan. Sabil na plonni biladi, na majburiyatni!

—Bu paykaldagi ekinlar Ahmad brigadrning dardi, tashvishi edi. Bo'ri Payg'amov buni boshqacha tushundi...

Qaramabsiz ekinga, asat, asat-a, hozir!

Payg'amovning "asat-asat-a" deb pisanda qilgani Ahmad brigadrga og'ir botdi. Bolasini oftob urgan otaday g'o'zalarga yuragi achib joni halqumiga kelib ne g'amda yuribdi-yu, manavi "xo'jayin"ning ta'na-dashnomi o'tib tushdi...

—Aka,—Ahmad brigadrning tovushi juda yumshoq, muloyim eshitildi,—Shu g'o'zalardi ko'rdiz-a?!

—Ha, ko'rdim,nimaydi?!—Payg'amovning ham jahli chiqib ketdi...

—Ko'rgan bo'lsangiz, shu ekin jonivorlar qirq kundan buyon kechayu-kundiz yigirma to'rt soat changga belanib, ildiziyu tanasi tappotda titrab turibdi, men sizga aytsam. Siz kunduzi idorada, tunda uyga kirib, eshik, derazalarni bekitib yotasiz.—Bu jonivorlarning tili bo'lmasa arz qiladigan, oyog'i bo'lmasa qochib bekina. Shoxlari guli emas, barglarini ham yulqib bitkazdi-ku tappot" (Samar Nurov. "Narvon". 331-332-betlar)

Muallif ana shu dialogda turg'unlik yillariga xos hayotiy umumlashmani bera olgan. Payg'amov nutqida ayniqsa, davr rahbarlik madaniyatiga mansub illatlar-

ma'muriy buyruqbozlik, boshqaruv usuli, soxta obro' orttirish Ahmad brigadir nutqida esa yozni-yoz, qishni-qish demasdan g'o'za paykalida ketmon urgan dehqonning har qanday og'ir mehnat sharoitlarida ham arziini hech kim tinglamaslik, xalqning boshidagi jabr-sitam, oddiy mehnatkashning qadr-qimmatini oyoq-osti qilinishi. Bu ikki qutbdagi obrazlar o'rtasidagi shiddatli to'qnashuv davrining asosiy muhri ko'zga tashlanib turadi. Turg'unlik yillarining bunday hayotiy ko'rinishlari romanining zamonaviy ruhini, haqqoniyligini, va eng muhimi, uning badiiy estetik ta'sir baxshiligidini ta'minlangan omillardir.

Tasvirdagi Ahmad tog'aning shaxsiy va oilaviy hayotiga keng o'rin berilishi yozuvchining g'oyaviy konsepsiyasini yorqin yuzaga chiqishiga imkon bergan. Xususan, Nusratbekning o'z xotini Xolisa va Payg'amovning qayinsinglisi Gulxayri o'rtasida qovrilib yurgan kezlari Ahmad brigadir o'z sarguzashtini hikoya qiladi. Kitobxon bu sarguzashtda Ahmad brigadirning yoshlikda opa-singillarning opasini sevib, lekin onasining qistovi bilan singlisiga uylanganining, ishq savdosidek bedavo dard bilan hayoti o'z iziga tushib ketganidan guvoh bo'ladi.

Bu sarguzashtning Nusratbek uchun dalda sifatida aytilgan bo'lsada, unda muallif milliy urf-odatlar va qadriyatlarning umrboqiyiligini, ota-ona razilligining hayot mazmunini belgilashini ta'kidlash mavjud. Bu ayniqsa Ahmad brigadirning quyidagi so'zlarida o'z aksini topgan:

“–Bu ishda birov-biroviga maslahat berish qiyin, jiyan. Ishq-muhabbat degani bir marta keladi, u ham yoshlikda. Qirq-ellikka kirib, don olishib yuradiganlarni man buzuvchi, deb tushunaman. Keyingisi mushukning “mov”ga kelganiday gap. Qiz-ayol, yigit-erkak bo'lib, oila qurib, bola-chaqali bo'lganidan keyingisi ishq bo'lsa ham zo'raki ishq. Yana kim biladi, deysan?–Ahmad brigadir ko'nglidagini aytolmaganini, o'zi sezib turardi. Nusratbekka ham dalda berish o'rniga boshini aylantirdi qaytaga. Shuning uchun o'zidan jahli chiqdi.–Dunyo keng. Odamlar har xil. Birovga ishq bolaligida, birovga ishq bolaligida, birovga o'ttiz-qirq yoshida ham kelar...Yozda, hatto tirimakda gullaydigan daraxtlar ham bor-ku? Yuraging

buyurganini qil, lekin noinsoflik ko'chasiga kirma sira. Keyin umr bo'yi pushaymon bo'lib yurasan.

Bu so'zlarning har biri Nusratbekka qamchiday qattiq botdi. Miyasining tarklari ochilib ketganday hushyor tortdi”.

Yozuvchi romandagi mazkur syujet chizig'ini o'ylab topishda ham ustozlar ijodiy tajribasidan foydalangan ko'rinadi. Xususan, Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar”idagi Otabekning qaynotasinikidan qug'in qilinib yarim tunda usta Olimnikidan panoh topib, uning sarguzashtini tinglagandek, Samar Nurovning “Maysalarni ayoz urmaydi” romanining bosh qahramoni Nusratbekning ishdan bo'shatilib, oilaviy va sevgi bo'ronlarida yurgan kezlari Ahmad tog'a uni uyga olib kelib mehmon qiladi, uning dardini tinglab, dardlashadi va o'z sarguzashtini aytib unga pand-nasihat qiladi.

Asarda g'o'za zararkunandasi oqqanot hashoratiga qirg'in keltirgan biologik usulning ixtirochisi Ashir Haqqulov obrazi gavdalandirildi va muallif shunga erishganki biz Haqqulovni yaxshi ko'rib qolamiz, uning paxta–uchun paxtakor uchun sidqidildan qayg'urishi, dehqonning istiqboli, yer, tuproq, tabiatning sofliги to'g'risidagi qarashlariga aslo befarq qarash mumkin emas. Bu ilmiy xodimning faoliyati tabiatni himoya qilish, uning mo'jizasi bo'lgan inson istiqboli yo'lidagi ezgulik ishlariga baxshida. U birovning haqiga xiyonat qilmaydi. Boylikka xuruj qo'ymagan, boriga shukr qilib, bola-chaqasini ham hovlida o'zi yetishtirgan ekin-tekini hisobiga boqadi. Lekin uning bu katarona hayotini va ilmiy-tadqiqotchilikka bo'lgan layoqatini filial direktori Bo'ri Payg'amov ko'rib-ko'rmaslikka, bilib-bilmaslikka oldi.

Undagi halollik va insoniy fazilati o'z o'rniga ishga qabul qilingan Nusratbekka bo'lgan munosabatda yaqqol namoyon bo'ladi:

“–Mening sizdan hech ginam yo'q,—dedi Ashir aka, qovog'i solinib.—Qaytaga boshog'riqdan qutuldim...

–Siz kelmaganingizda ham men bari bir ketar edim...Lekin, men szni ogohlantirib qo'yay, Nusratjon,—Ashir aka oriq bo'ynini cho'zib, atrofga qaradi,

tovushi pasaydi,—yoshsiz hali anovi Olayiyn Qarag‘ayidan hazar qiling. Ish bitgach, sizni sindirishi mumkin” (280-bet).

Ashir akaning ogohlantirishi esa, o‘z isbotini kitob sahifalarida topganligini kitobxon yaxshi eslaydi. Ashir Haqqulov vujudida soxta obro‘ orttirish yo‘lidagi nayrangbozlikdan iborat jirkanch niyatlarga, olimlikni ko‘zbo‘yamachilikka yo‘yilishiga qarshi g‘azab junbushga keladi. Uning xarakteridagi haqiqatgo‘ylik adolatini tiklashda – Nusratbekni buhtonlar o‘pqonidan qutqaradi, Payg‘amovning soxta va ko‘chirmakash olimligini fosh etadi. U Payg‘amovning monografiyasida keltirilgani kuzatuvlar Nusratbekning kundaligidan ko‘chirilgani bu tajribalar paxta maydonida sinab ko‘rilganda uning oliy partiya maktabida o‘qishda bo‘lgan paytga to‘g‘ri kelishini Dehqonovning xushomadgo‘ylikni yoqtirmaydigan haqiqiy iste’dod egasi ekanligi haqida Payg‘amovning esa ilmiy xodimiga hasad ko‘zi bilan qarashi va iste’dodli olimni ko‘rolmaslik, uning qadr-qimmatini poymol etishi, izzat-nafsiga tegishi xususidagi fikrlarning tegishli tashkilotga yozma ravishda bildiradi.

Zamonaviy mavzuda asar yozishning ham o‘ziga xos qiyin va mas’uliyatli tomonlari bor. Bu murakkablik shundaki, yozuvchi davrning dolzarb ijtimoiy muammolari haqida fikr yuritishi va uni chuqur badiiy tahlil etishi kerak. Shuning uchun ijobiy va salbiy obrazlarni o‘z badiiy g‘oyaviy niyatiga binoan asar syujetiga olib kiradi. Boshqacha aytganda har bir obrazga ma’lum ma’noda vazifa yuklaydi. Shu nuqtai-nazardan romandagi Gulxayri obrazi bajargan badiiy-estetik vazifa kitobxonni unchalik qoniqtirmaydi.

Roman boshlaridagi tasvirda, poyezdda, Nasafga kelishayotganida u Nusratbek bilan tanishadi. Keyingi tasvirlarda uning Bo‘ri Payg‘amovning qayinsinglisi ekanligi, qaddi-qomatda sohibjamol ayolligi, fan nomzodi ilmiy darajasiga egaligi bayon qilinadi. Biroq u qayerda, qanday tashkilotda ishlashi ham ochilmaydi. Guyo u Nusratbekni yo‘ldan urish, unda erkaklik hirsini qo‘zg‘atish uchun asarga kiritilgandek:”–Keldim,—Gulxayri hech tortinmay chorpoyaga chiqib bir chetga o‘tirdi. Yuzi, ko‘zlari oy nurida notabiiy oqarinqirab ko‘rinadi.—Ish bilan

bo‘lib uyga ketolmadim. Shiyponda xotin-qizlar bo‘lsa yotib qolarman, debkelayotgandim...

Uning butun vujudi atlasga o‘rab qo‘yilgan harorat. Dudog‘i, bo‘yinlari terlab, to‘zg‘igan soch tolalari bo‘yniga yopishgan. Bu yoqimli harorat yetilgan, gullagan ayol vujudining xushbo‘y hidi edi. Titrog‘i Nusratbekni karaxt qilib qo‘ydi. Havo yana isib ketdimi, qaydam, terga botdi. Ko‘ziga oy nurida cho‘milib yetgan dalalar ham ko‘rinmay qoldi:

–Gulxayri, jonim...

–Aynimang,–Gulxayri dasturxonni yig‘ishtirib, o‘rnidan turdi.

Nusratbek mulzam bo‘lib, yerga qaradi”.(290-291-betlar)

Xullas, Gulxayri xarakteri tasvirida badiiy dalillangan talqinlar mavjudki, bu o‘z navbatida esda qolarli personaj sifatida ko‘z tashlansa-da, u asar syujetiga singishib ketmagan.

Xullas, har bir yozuvchi hayot muammolarini badiiy obrazlar shakliga solib, kitobxonlarga yetkazishda o‘z iqtidoriga mansub tasvir usullarini va badiiy to‘qima jarayonlarni tanlaydi. Individual yo‘ldan boradi. Bunda tasvirlanayotgan voqelikni tushunish, baholash, uni badiiy vositalarida nafosat olamiga ko‘chirish mahorati, talanti, kuchi hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa badiiy asarning hayotiylik, ta’sirchanlik va hayotbaxshlik qudratini oshiradi.

3.2. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin

O'zbek tarixiy romanchiligi Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", Cho'lponning "Kecha va kunduz", S.Ayniyning "Qullar" romanlari yozilganidan buyon yetmish yil davomida aytarli darajada rivojlanib ketmadi. Yaxshiki, Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo", Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" ("Humoyun va Akbar"), "Ona lochin vidosi", Maqsud Qoriyevning "Ibn Sino", M.Alining "Buyuk saltanat"i, Mirmuhsinning "Me'mor", "Temur Malik", Jumaniyoz Sharipovning "Xorazm", Asad Dilmurodning "Mahmud Torobiy", Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanlari o'zbek tarixiy nasrini bir muncha boyitdi. Bu qatorda Omon Muxtorning "Aflotun", "Tepalikdagi xaroba", "Ishq fasli" kabi roman-badialari, Mirkarim Osim, Xudoyberdi To'xtaboyev, Mahkam Mahmud, Isfandiyor, G'ulom Karimning tarixiy qissalarida ham xalqimizning tarixiy taqdirida kechgan muhim, murakkab, hayajonli davrlar qalamga olingani quvonarlidir.

Ammo, afsuski, uzoq yillar (yarim asr) davomida "O'tgan kunlar" hamda "Kecha va kunduz" romanlariga tenglasha oladigan tarixiy asar bunyod etilmagan edi. Mana endi yangi avlodlarga notanish millib adibimiz, marhum Samar Nuriyning "Qora tong" romani ("Sharq" nashriyoti, 2003) qo'limizga tegdi. Mublag'asiz aytish kerakki, "Qora tong" o'zining badiiy epik ko'lamdorligi, badiiy til nafosati va sujetning tarangligi, kutilmagan burilishlarga, ziddiyatli kolliziyalarga, qahramonlar aro keskin to'qnashuvlarga, ayovsiz kurashlarga boyligi bilan, xalq milliy ruhini to'laqonli, ravshan munozaralarda ko'rsatilgani bilan muallifni Qodiriy va Cho'lpon romanchilik maktabining izdoshlaridan biri paydo bo'lganini anglaymiz. Shu vaqtga qadar chorizm mustamlakachiligi davriga bag'ishlangan tarixiy roman (Xudoyberdi To'xtaboyev, "Qasoskorning oltin boshi", Murodjon Mansurov, "Judolik diyori", Tog'ay Murod, "Otamdan qolgan dalalar")lar "Qora tong" romani uchun zamin, poydevor xizmatini o'taganligini e'tirof etish kerak. Ammo, faqat "Qora tong" romanida buyuk tarixiy qahramonlar va "buyuk" xoinlarning xarakterlari, xalq taqdirini goh qahramonlik, goh fojeiylik

tarafga burib yuborgan qilmishlari beqiyos teranlik, haqqoniylik bilan, epopeya ko'lamida badiiy aksini topdi. Romanda Samarqandning "oq podsho" qo'shinlari tarafidan bosib olinishi, Zirabuloq jangi, Katta to'ra isyoni, xalq g'oziylari – vatan farzandlari keng ko'lamda tasvirlangan. Yozuvchining mazkur tarixiy romanida XIX asr ikkinchi yarmida Turkistonda bo'lib o'tgan voqealar tilga olingan. Xususan, asarda Rossiya imperiyasining yurtimizga tajovuzi, Buxoro amiri Muzaffarxonning yurt taqdiri hal qilinayotgan nozik fursatda jur'atsizligi, amirning valiahdi Abdumalik Katta to'raning dushmanga qarshi ayovsiz kurashi, uning Qarshi va Shahrisabzdagi faoliyati tasvirlangan.

Adibning tarixiy mavzudagi birinchi asari bo'lishiga qaramasdan u tarixiy roman janrlari talablariga to'liq javob beradi. Ma'lumki, tarixiy asarlarda o'tmish voqeligini tasvirlashning asosiy mezonlaridan biri uning tarixiy haqiqatni hujjatlilik asosida yoritishidir. Shuning uchun ham yozuvchi roman voqealarini tasvirlashdan oldin tarixiy asarlarga murojaat qiladi. Jumladan, tasvirlanajak voqealarning haqqoniyligini kitobxonga o'qtirish maqsadida tarixchi Avaz Muhammad Attor Ho'qandiyning "Tarixi Jahonnamoiy" asaridan quyidagi parchani keltiradi: "... Milodiy 1867-yili saraton oyining o'rtalarida sulh tuzildi. Buxoro amiri Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on va ularga taalluqli bo'lgan yerlarni hamda o'ruslar istilo qilgan mavzelarni Rusiyaga berdi. Bunga qo'shimcha katta mablag' to'lashni bo'yniga oldi. Buxoro mashaqatida ularning siyosiy irodasi ta'sis topdi. Shu vaqtda quyosh dalv burjining oxiriga yetgan edi. Buxoro amirining sulhidan olti oy ilgari Farg'ona xoni Sayyid Muhammad Xudoyorxon va Turkiston sipohsolori Kaufman o'rtalarida ham sulh bitimi bo'lgan edi va adovatu xusumat o'rnini amniyat egalladi, mamlakat rihofiti esa tijoratga aylandi. Qon to'kilish va mulku madaniyat xarobalig'iga sabab bo'lgan janggu jadallar yo'q bo'ldi. Shu voqealar yuz berayotgan bir paytda Qarshi valiysi Abdumalik to'ra Buxoro xoni amir Muzaffarning katta o'g'li Shahrisabz kenagaslarining ulug'lari va Sodiq to'ra binni Kenasari to'ra Ablay Sulton yurtdoshlari ila Nasorolarga qarshi ko'tarib, Buxoro amirligi va saltanatiga da'vo qildi".

Marhum yozuvchining do'sti va kasbdoshi, iste'dodli adibimiz Xudoyberdi To'xtaboyev "Ayovsiz haqiqat" deb atalgan mo'jazgina kirish so'zida asarning ko'lamdorligini to'g'ri ko'rsatgan: "Bunday katta tarixiy asarning to'qima obrasiz yaratilishi, ehtimol, jahon badiiy adabiyotida ilk tajribadir. Bu uslub adibning imkoniyatini cheklab, voqealar shiddatini bir oz susaytirsada, lekin kitobxon real tarixiy shaxslar bilan uchrashganidan ko'ngli to'q bo'lib, asar ishtirokchilarining tarjimai holi, fe'l-atvori, xatti-harakatlari, quvonchu iztiroblari, o'ziga xos milliy tafakkur tarziga oshno bo'ladi. "Qora tong" romanini o'qishim bilanoq do'stimning kashfidan quvonib ketdim. Buyuk Qodiriyning shoh asari "O'tgan kunlar"da qudratli, makkor, g'irrom bosqinchilarning olisdagi sharpasi: "O'g'lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo'shinda edi. Almati ustidagi (Qodiriy asarida "Avliyo ota" deyilgan – SH.U) o'ris bilan to'qnashuvimizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va qahramonona shahid bo'ldi!" deya Qanoatsho tilidan bu mudhish yov vahshatini faqat eslatib o'tsa, bu turkumda ("Qora tong" romanida tasvirlangan bir turkum janglarda Sh.U) kitobxon qattol dushman bilan yuzma-yuz to'qnashib, uning yovuz basharasini ko'radi, qabohatli niyatlari, qonli kirdikorlaridan ogoh bo'ladi. Tarixning ko'pgina sahifalari hozirgacha ochilmay kelmoqda, uning bir qancha sahifalari bir yoqlama, uzuq-yuluq tarzda, chala yoritilgan". Xudoyberdi To'xtaboyevning bu fikrlari haqqoniy. Ammo e'tirozli o'rinlari ham bor. "Qora tong" romanida amir Muzaffar, K.P. fon-Kaufman, V.V.Vereshagin, Huzor hokimi shahzoda Abdumalik Katta to'ra, Karimquli biy, Xudoyor to'qsabo, general Jo'rabek, Aziz So'fi, Ahmad Donish Hofiz Ro'ziboy kabi tarixiy shaxslar ham, Oysuluv, Baxshi, Boybo'ri va Boysari kabi xalq vakillari to'qima obrazlari ham bor. Ikkala turkumdagi qahramonlar ham romanda voqea hodisalarni kutilmagan tarafga burib yuboruvchi asosiy kuchlardir.

Agar "O'tgan kunlar" romanida Xudoyorxon va uning vazirlari Musulmonqul, Abdurahmon parvonachi va boshqa tarixiy shaxslar epizodik sahnalarda ko'rinib, Otabek va Kumush, Yusufbek hoji va O'zbek Oyim kabi badiiy to'qima obrazlar asosiy syujetni harakatlantiruvchi kuchlar bo'lsa, Samar

Nuriyning “Qora tong” romanida tarixiy shaxslar ham, badiiy to’qma obrazlar ham voqealarning asosiy qahramonlaridir.

Umuman olganda, Samar Nurovning mazkur romanidagi tasvir uslubida A.Qodiriy ijodiy maktabining ta’siri yaqqol sezilib turadi. Buni har bir ijodiy unsurda ko’rishimiz mumkin. Masalan, roman boblarining nomlanishiga e’tibor beraylik. “O’tgan kunlar”da “Otabek Yusufbek hoji o’g’li”, “Bek oshiq”, “Musulmonqul”, “Quvlanish”, “Majburiyat”, “Raqib izidan”, “Qipchoqqa qirg’in” kabi nomlansa “Qora tong”da “yuzi qaroluq bo’ldi”, “Qiyot”, “Talon Samarqand, Nolon Samarqand, Vayron Samarqand”, “Visol”, Bekning o’rinda adib ijodidagi bu ijodiy o’rganishni e’tirof etgan adabiyotshunos nufuzli nashrlaridan birida “Qodiriy maktabiga munosib roman” degan e’tirofiga qo’shilish kerak.

Roman boshlanishdanoq shiddatli voqealarga boy. Muallifnin mahorati – amir Muzaffarni nuqul qorabo’yoqda, chorizm qo’shnilariga qarshi xalq harakatining yo’lboshchisi Abdumalik to’rani faqat yorqin bo’yoqlarda, biryoqlama tasvirlamaydi. Adib Amir Muzaffarning avvalgi vaqtlarda imkoni boricha Buxoro saltanatini chor Rossiyasi bosqinidan himoya qilib, bir qancha janglar qilganini, lekin, dushmanning makr-xiylasiga uchib, vatan mudofaachilariga qarshi xoinlarcha qilmishlarini haqqoniy tasvirlaydi. Amir Muzaffar hatto chor Rossiyasi qo’shinlari ustidan g’alaba qozonayotgan o’z o’g’liga Abdumalik to’raga xoinlik qilib, ig’vogarlarni yuborib, uning qo’shinlarini parokandalikka uchratadi. Lekin, bosqinchilarga qaram bo’lgach, yuragida kelgindi yoxlardan qasos olish umidi uyg’onadi, ammo buning ilojini topolmay azob chekadi.

Undagi bunday ruhiy holat ayniqsa, Amirning Kesh kenagaslari isyonini bostirish jarayonida bir paytlar Buxoroga qochib kelib, o’zini mang’it sultonlari xizmatiga topshirgan o’zini Chingiz vorisi hisoblagan, ajdodlari Dashti Qipchoqda o’z qabiladoshlariga xoinlik qilgan Sodiq to’ra Kenesari o’g’lining Karmanani ishg’ol etganida yaqqol ko’zga tashlanadi: “Amirning rangquti uchib, yupqa lablari pichirladi: - Tangri bizni gunohlarimiz uchun yana ikki o’t orasiga tashlab

sinayotir. Biron osuda dam yo'q... Amir ko'pdin buyon shul xavfni sezib, vahimada qovrilib yurardi...

Amirning soqolini tutamlagan uzun barmoqlari asabiy titradi:

- Bul bosqindin nechuk bizni oldinroq xabardor etmadingiz?

“Jonni bekorga bermagan ekan!” – To'qsaboning nafasi ichiga tushib ketdi:

- Xatirchida uch kun betob bo'lib yotgan erdik. Amir parishon holda soqolin o'ychan silab qo'ydi. To'qsabo chiqib ketgach, hudaychiga buyurdi.

- Maslahat bor, tamomi sarkardayu va umaro jam bo'lsin!

Mashvarat qisqa bo'ldi. Amir alarning fikrini eshitgach, to'raning ishiyu, kenagaslarni qidirishdan voz kechib, ayni aytda poytaxt Buxoroi sharif muhofazasini eng zarur sanab, lashkarni orqaga qaytarishga farmon berdi“. (“Qora tong” romani , 131-132 betlar).

Muallif romanida chorizm qo'shinlari bosqini boshlangan vaqtda vaziyatni benihoya murakkablashtirgan barcha holatlarni ishonchli tarixiy manbalarga suyanib, haqqoniy tasvirlaydi. Asarda ma'rifatchi Ahmad Donish amir Muzaffar tomonidan siylansa-da, u amirni xalqqa cheksiz jabr-zulm qilayotgani uchun yomon ko'radi. U bir necha marta Peturburgga borib, Rossiyadagi taraqqiyotni ko'rgani uchun, „ruslar ma'rifat keltiradi, bu yerdagi jaholat, hurofotlar o'zaro qirg'inlarga chek qo'yadi“ deb ishonadi. Amir Muzaffarning to'ng'ich o'g'li Abdumalik to'ra alloma Donishning bu fikriga qo'shilmaydi. „O'ris bizni qul qilib olg'och, g'ulombachchalarga hikmat o'rgatadimi? U, Turkistonni „hikmat o'rgatish“ uchun bosib olajatirmi?! „Hikmat“ini ko'rsatib qo'yur“.

Darvoqe, Amir Muzaffar xayolot kasaliga giriftor bo'lgach Ahmad Donishni asosan munajjimligi uchun saroyda saqlab turgan edi. Yaltoqlanishni, xushomad va riyokorlik ko'chasidan o'tmagan Ahmad Donish amir huzuriga chorlaganda borar, boshqa payt panada o'z ishlarini bajarib yurar edi. Bora-bora ular o'rtasidagi munosabatlarga sovuqlik tushadi. Shu sabab Ahmad Donish betob Amirning nazaridan uzoqroqqa bo'lish uchun G'uzor (romanda Huzor tarzida yozilgan – Sh.U.) raisligi vazifasiga ketadi.

Katta to'ra –xalq yo'l boshchisi haq bo'lib chiqadi. Chor generali fon-Kaufman amir Muzaffarni aldab, haqoratli, o'lka aholisini qul qiluvchi sulh shartnomasiga qo'l qo'ydiradi. Bu shartnomaga ko'ra, butun Turkiston bosqinchilar qo'lga o'tadi, faqat Buxoro va unga qarashli ayrim viloyatlargina amir Muzaffar qo'lida nomiga „mustaqil davlat“ bo'lib qoladi. Har yili yurtning yarim boyliklarini oq podshohga boj-hirojga to'lab turuvchi davlatni mustaqil deyish mumkinmi? Xalq mudofaachilari buni yaxshi tushunadilar. Asoratda, qullikda yashashga rozi bo'lmagan xalq, uning ko'plab yo'l boshchilari qattiq qarshilik janglarni boshlaydilar. Ammo, amir Muzaffar va ayrim sotqin boylar xiyonati bilan xalq jihodchilari mag'lubiyatga uchraydilar.

Adib, ana shu tarixiy mag'lubiyatga zamin tayyotlagan hukmdorlar va xalqning har asosiy jaholatga, g'aflatga, hurofotga berilganini, ahil, jips bo'lishga aqli yetmasligini, sevgi uchun o'z farzandlarini dahshatli o'limga hukm qilishni, inson qadr-qimmati oyoqosti qilinayotganini, ko'pchilik xalq oqsoqollari mansab uchun iymonini ham sotuvchi xoinlar ekanligini yorqin xarakterlar, fojiali qismatlar orqali ravshan tasvirlaydi.

Romanning 12 –bobi „Talon Samarqand, Nolon Samarqand, Vayron Samarqand“ deb ataladi. Bu bobda adib Samarqand aholisining chor qo'shinlari tomonidan ommaviy qirg'in qilinishiga doir tarixiy manbalar va hujjatlarning muhim qismlarini o'z holicha keltiradi, ammo bu hujjatlar asar syujeti, voqealar rivojiga to'sqinlik qilmaydi, aksincha vaziyatni ravshanlashtiradi, dramatismni kuchaytiradi. Bu o'rinda muallifning Avaz Muhammad Attor Ho'qandiyning "Tarixi Jahonnamoiy", rus sayyohi va rassomi V.Vereshchaginning "1868-yilda Samarqand" nomli xotira-kitobi va rus imperiyasining generali K.P.Kaufmannning Peterburgga yuborib turgan axborotlaridan mohirlik bilan foydalanganini qayd etish zarur. Bu manbalar romanning tarixiy hujjatlilikini oshirish bilan birga tarixiy haqiqatning badiiy talqindagi realligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynagan. Xususan, yozuvchi V.Vereshchaginining kitobidan quyidagi parchani keltirar ekan, bu bilan Samarqandning vayron bo'lgani-yu, uning talanganini real bo'yoqlarda

tasvirlashga harakat qiladi: "Askarlarga do'konlarni talashga ruxsat berilganida, u yoqdan nimalarni olib chiqishmadi deysiz! Ular yerli aholining bir-biridan chiroyli va nafis kiyimlarini kiyib, taqinchoqlarini taqib, shunday g'alati holatga tushishgan ediki, ko'rgan kishi kulgidan o'zini sira tiyolmas edi. Bu yerda arzimasi bir, ikki so'mga entograf uchun butun boshli xazinaga arziydigan buyumlarni sotib olish mumkin edi. Yong'in paytida qanchadan-qancha mo'jizalar – ko'hna yodgorliklar, o'ymakor darvozalar, ustunlar yonib ketdiki buning o'zi dahshat! Ayniqsa, yaradorlarimiz va zamdaraklarimizga qarab o'q otilgan Sherdor madrasasiga butun qahri-g'azabini sochgandi: "La'nati masjiddagilarni hammasini nayzaga sanchdim" deb maqtangandi...

General Kaufman ko'z o'ngimda aniq jonlanib turibdi. Shuncha alg'ob-dalg'ovdan keyin u yonida qurol topilgani uchun ushlangan yoki boshqa noxush ishlarda gumonsirab qo'lga olingan turli-tuman odamlarni saroyida sudrab, jazoga hukm qilardi. Zobitlar qurshovida safar o'rindig'iga yastanib olgan olijanob Konstantin Petrovich Kaufman to'xtovsiz papiros chekar va mutlaqo shafqatsiz ohangda: "Otib tashlansin, otib tashlansin, otib tashlansin, otib tashlansin!" degan buyruqni takrorlardi, xolos."(S.Nurov. "Qora tong", 76-77-betlar).

Aka-uka o'smirlar Boybo'ri va Boysari fojeasi, akasining otining fojeali qismati, sofdil, begunoh sevishganlar Oysuluv bilan Baxshi fojealari asar syujetining kulminatsiyasini tashkil etadi. Xuddi shu sevishganlarga turli qahramonlarning yo salbiy, yo ijobiy munosabati, shafqatsiz xurofotchi odamlar va hayrihoh, mard, olijanob odamlarning o'zaro ayovsiz to'qnashuvlari romanning drammatizmga boy, eng go'zal sahifalarini tashkil etadi. Xalqning mard o'g'loni Avaz romanda jozibali ajoyib qahramon darajasiga ko'tarilgan.

"Oysuluv nozik qo'llarini yana Baxshining bo'yniga soldi, ingichka barmoqlari titrar, yuragining ko'krak qafasini teshib chiqmoqchidek, "duk-duk-duk" urishi butun olamga eshitar, ko'zlari katta ochiq bo'lsada Baxshidaghi boshqa hech narsani ko'rmas, ichida nimalarnidir pichirlab Allohdan iltijo qilganda issiq nafaso Baxshining bo'yinlarini yondirardi: "Ota-enam arvohlari, qanotajon,

men gunohkorni kechiringlar, yo'limni to'smanglar! Qaynonajon! Meni kelin tushirib, ro'zg'orni ixtiyoringa berganda bir sevingan edingiz. Ulingiz shahid ketib, meni Baxshi bilan qochirganda ikki marta sevingan edingiz. Emdi... Emdi paymonam to'ldi. Har daqiqa ajalni kutib yashashga toqatim yo'q. Emdi... bu yog'ini yana tangriga soldim!" Qaynotasi Karimqulbiyni berahm ko'sa akasini esladi: "Uyiga o't, diydasiga tuproq to'lsin alarning!..." So'ng yana mehribon qaynonasini esladi, diydasi yumshadi. Bul osuda tun, jimjit ovul qaynonasiga o'xshardi. "Bechora, mushfiqqinam, meni taqdirimga achinib, kuyunib, duolar qilib yurgandir" (S. Nurov. "Qora tong", 142-144-betlar).

Sevishganlarning cheksiz fojealari tasvirida Samar Nuriy xalqning milliy urf-odatlarini chuqur bilishini ko'ramiz. "Gunohkor"larni jazolash yoki afv etish, himoya qilish uchun shariat qonunlarini yetarli bo'lmagan hollarda xalqona demokratiya usulu – har ikki tomonning o'zi vakil qilib saylangan hakamlarning bahs-munozarasi, tortishuvi, o'z fikrlarini dalillab berishlari asarda juda yorqin tasvirlangan. Asarning boshlanishida "lanjroq" ko'ringan shahzoda-Abdumalik to'ra Vatan himoyasi uchun janglarda juda katta obro' qozonadi, xalqning mehr-muhabbatini qozonadi va xalq farzandlarining fojeiy qismatini yengillashtirish, ularni o'limdan olib qolish uchun faol harakat qiladi. Sevishganlar Oysuluv va Baxshini otning dumiga bog'lab, sudratish yoki toshbo'ron qilib o'ldirish tarafdorlariga qarata xalq yo'lboshchisi Abdumalik to'ra bunday deydi:

"Baxshi kim? O'zlaringni kuychilarnig. Sherabodu Xuzoru Qarshiga birdek xizmat qiladi... Zug'um, zo'ravonlik, johilligu nodonlik alardan bizga meros qoldi agar bilsang! Shul sabab biz Samarqand muhorabasinda o'zimizdan soni –sanog'I yigirma-o'ttiz marta kam nasora qo'shinidan yengildir! Tikanu jangal ekkan kishi hech vaqt sarxil meva terib yemagan, gulu rayhon hidlamagan. Nima eksa o'shani o'rgan. Shul sabab Umarxon eshon bobomiz o'g'illariga nuxta solib gung, qizlariga tushov o'rib qulu – zobin qilib ketdi. Yog'iy qo'lga butun elni og'ziga kalit solib, kishanlab topshirdi. Bizning hazrat otamiz ham o'shalar tarbiyasida o'sganlar!"

Abdumalik to'ra xalqning ko'zini ochish uchun jon kuydirib, unga g'aflatning sabablarini tushuntiradi. Odamlar Eshon boboga o'sha bag'ritoshligi, shafqatsizligi uchun rahmat aytishdimi? Yo'q! Bu hukmdor el qarg'ishiga uchrab, o'zi ham qashqirlarga yem bo'lib ketdi-kafansiz, mozorsiz! Inson bolasi uchun el qarg'ishidan og'irroq jazo yo'q bu dunyoda!

Xalq yo'l boshchisi Abdumalik to'ra faqat so'zda emas, xalq farzandlari qiynalib qolganida ham amalda yordam beradi. Makkor dushman xalqning botir yo'l boshchilarini yo'qotishga qaror qilasi.

“Qora tong” romanida o'sha olovli yillarda jafokash xalqimizning boshiga tushgan, ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan jabr, zulm, xo'rlik va haqorat, bosqinchilarning shafqatsiz qabih basharalari ravshan tasvirlanadi. Bosqinchilar yerli xalqning milliy g'ururini, tarixiy xotirasini, ilm-ma'rifatini, muqaddas dinini, insoniy qadr-qimmatini shafqatsiz poymol qildilar, xalqni aqlsiz, ongsiz hayvon darajasiga tushirishga urinadilar va afsuski, zolimlik bilan shunga erishdilar ham.

“Urush va tinchlik” roman-epopeyasini eslatuvchi “Qora tong” romani ayrim kamchiliklarga qaramay, istiqlol davri o'zbek badiiy nasrining shoh asarlaridan biri qoladi, deb ishonamiz.

III bob yuzasidan xulosalar

1. Samar Nurov o'z ijodiy faoliyatida roman janrida ham qalam tebratib sezilarli ijodiy muvaffaqiyatlarga erishdi.
2. Adib romanlari zamonaviy va tarixiy mavzularda yozilganligi bilan xarakterlidir.
3. Davr muammolarini aks ettirish nuqtai nazaridan yozuvchining "Maysalarni ayoz urmaydi" romani XX asrning so'nggi choragi o'zbek prozasida o'ziga xos yangilik bo'ldi.
4. Romanda muallif kitobxonni davr va jamiyatdagi zamondoshlar haqida mushohada yuritishga yetakladi.
5. Romanda davr qahramonlari ijtimoiy muhit hozirlagan tipik sharoit ichida insoniy xarakterlarni namoyon etadi.
6. Romandagi obrazlar xarakteri o'z navbatida tipik va individualligi bilan ham kitobxon e'tiborini tortadi.
7. Samar Nurovning "Qora tong" nomli tarixiy romani o'zbek prozasidagi mazkur janrning mavzu doirasini kengaytirdi.
8. Tarixiy mavzu bo'yicha hikoya qiluvchi adibning mazkur romanida A.Qodiriyning ijodidan ilhomlangan va ulug' adib ijodiy ta'sirini ko'ramiz. Mazkur roman hali o'zbek adabiyotida, xususan, prozasida badiiy talqin etilmagan tarixiy mavzu – XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning muhim bir bo'lagi hisoblangan Buxoro amirligi muzofoti Rossiya imperiyasining tajovuzi, Qarshi, Shahrisabz, G'uzor, Yakkabog' kabi hududlarning bosib olinishi, amirning valiahdi Abdumalikning dushmanga qarshi ayovsiz kurashi tasvirlangan.
9. Roman muallifi tarixiy janr talablarini yaxshi o'zlashtirgan. Buni biz asarning hujjatlilikka tayanib yozilganidan ko'rishimiz mumkin.
10. Romanda yozuvchi tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirish borasida o'z mahoratini namoyish etgan. Xususan, tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar ham, badiiy to'qima obrazlar ham badiiylik mezonida berilgan.

UMUMIY XULOSALAR

Samar Nurov ijodining o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'z davri zamonasining muhim dolzarb muammolari haqida qalam tebratgan.

-Bu xususiyatning ijodkorning ko'pgina hikoya va ocherklarida, ayniqsa "Rais", "Maysalarning ayozi o'rmaydi" kabi yirik asarlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

-Samar Nurovning hikoya, qissa va romanlarida, ular sobiq sovet mafkurasi tazyiqi hukm surgan paytda yaratilgan bo'lsada, hayot haqiqati, jamiyatdagi muammolar realistik tasvir asosida badiiy aks ettirilgan.

-To'g'ri yozuvchining sovet davri yaratilgan (darvoqe bu ijodning aksariyat qismi sovet sho'ro zamonida yaratilganini xam unutmaylik.) asarlarida-hikoya va ocherklarida, qissa va romanlarida davr mafkurasining muhri shundoq sezilib turadi. Bu ayniqsa, qahramonlar nutqida muammolar bayonidagi sovet davri atamalarining yozilishi kommunistik partiya o'sha yozuvchilarning jamiyatdagi yetakchi roli tasvirlarida mavjud bunday ijodiy jarayon sobiq sho'ro davrida ijod qilgan barcha shoir va yozuvchilarga xos bo'lgan majburiy ijodiy ekanligini ham e'tirof etish darkor. Nima bo'lganda ham o'sha yozuvchilar asarlari kabi (Samar Nurov asarlarini ham badiiy ijod mahsuli sifatida baholash kerak. Chunki ularda o'z davrining-Siz bilan bizga zamondosh bo'lgan odamlar hayotidagi, jamiyatdagi muhim muammolar va og'riq nuqtalar qalamga olingan.

-Samar Nurov asarlari mavzu va g'oyaning dolzarbligi jig'atidangina emas, badiiy xususiyatlari bilan ham diqqatga sazovordir. Uning prozasidagi ko'pgina hikoyalari syujet va kompozitsiya qurilishi jihatidan ham, badiiy uslub jihatidan ham, obrazlar va xarakterlar ham xarakterlidir.

-Shunisi e'tiborliki Samar Nurov ijodi asardan-asarga o'sib bordi. Adib ijodidagi bunday tadrijiylikning bzaga chiqishida uning juda yoshlik chog'laridan xalq ichida bo'ldi, xalq hayotining tubdan o'rgandi.

Shu bilan birga ustozlar mahoratini qunt bilan o'rganishi, o'z ustida jiddiy ishlashi katta ahamiyat kasb etadi.

-Samar Nurovning ijodiy yuksalishida jahon va o'zbek hikoyachilik maktabi bitmas tuganmas ijod maktabi bo'lganligini e'tirof etish kerak.

Shu sababli, ziyrak kitobxonlar uchun manzur bo'ladigan hikoyalar yozdi. Bu hikoyalar hayotning muhim muammolari va ijtimoiy masalalarni tasvirlagan adabiy jamoatchilikning e'tiborini qozondi.

-Samar Nurovning o'zbek hikoyachiligi janri taraqqiyotida qo'shgan hissasi ham sezilarlidir. Uning ayniqsa, O'zbekiston xalq yozuvchisi Rahmat Fayziy ta'rifi bilan aytganda "shingil hikoyalari bilan o'zbek adabiyotida unutilayotgan janrga qayta jon bag'ishladi". Adib bu hikoyalarda xalqimiz mentaletiga xos bo'lgan aql-zakovat va salohiyat namunasiga ega bo'lgan insonlar qiyofasini yorqin obrazlarda aks ettirdi. Eng muhimi, bu hikoyalarda xalq hikmatlari va umrboqiy qadriyatlari qayta jonlandi.

-Samar Nurov asarlariga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan yana biri shundaki, ularda Ona-Yurtimiz, xususan, Qashqadaryo nafasi. Dashtimiz tafti sezilib turadi. Asarlarda tasvirlangan adabiy makon ham qashqa vohasidagi bizga tanish bo'lgan manzaralar va manzillarning tanlanishi kitobxonda vatanparvarlik hissini yanada orttiradi.

-Samar Nurov "Rais" qissasida o'z davri, ya'ni sobiq sho'ro davridagi turg'unlik yillaridagi chirkin holatlar talqin etiladi. Darhaqiqat asrda badiiy talqin etilgan ijtimoiy voqealar, ayniqsa, qayta qurish davridagi sobiq markazning nayranglari, tajavuzkorliklari, "paxta ishi", "o'zbeklar ishi" deb atalgan tadbirning chirkinligi va yaramasligini oldindan tasvirlagan badiiy talqinlaridir.

-Adibning "Qora tong" romanining o'zbek adabiyotidagi tarixiy mavzu haqida hikoya qiluvchi asarlar sonini va sifatini ko'paytirgan va ziynatlagan asar sifatda baholaosh kerak. Asarda tarixiy mavzuning talqin etilishi adabiyotshunosligimiz tomonidan qodiriy ijodiy maktabiga munosibliigi haqida markaziy nashrlarda bildirilgan fikrlarni ma'qullaymiz.

-Adib ijodi mustaqillik yaratib bergan imkoniyatlar asosida yangicha sayqal topdi. "Qora tong" trixiy romani buning yorqin misolidir. Roman o'zbek xalqi

hayotining , xususan mazlum Turkistonning muhim bir bo‘lagi bo‘lgan Buxora amirligi muzofotidagi xalq hayotining katta bir tarixiy davrini qamrab olib aks ettirgan asardir.

-Adib ushbu romanida o‘zbek milliy tarixiy prozasi tasvir usullaridan ijodiy foydalanib, tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. "O'zbekiston", 2003

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Toshkent. 1997

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari.

1. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin . –T.: O'zbekiston, 1998. -30-b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T., Ma'naviyat. 2008.-167-b.
3. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor- ma'naviyatga, kelajakka e'tibor//Sharq yulduzi. -T., 2009. -№3. –B.3-11
4. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O'zbekiston, 2001. -80-b.

IV. Asosiy ilmiy adabiyotlar

5. Adabiy tur va janrlar. Uch jildlik.1-jild. –T.: Fan, 1991, -382-b.
6. Aristotel. Poetika. Ruschadan M.Mahmudov va U.To'ychiyev tarjimasi. – T.: Adabiyot va san'at, 1980. -150 b.
7. Beshinskiy V.G. Adabiy orzular. –T.: Adabiyot va san'at, 1977. -261-b
8. Boltaboyev H. Hujjatlar tili va badiiylik sehri. Mehrga yo'g'rilgan ijod. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008. 62-68-b.
9. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002. -500-b.

10. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006. -446-b.
11. Yoqubov I. Muhammad Ali ijodida tarixiy jarayon kontsepsiyasi va liro-romantik talqin. – T.: Fan, 2007. – 52-b.
12. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O'zbekiston, 2008. – 536-b.
13. Karimov H. Davr va inson. –T.: Fan, 1992. -128-b.
14. Karimov H. Tarixiy shaxs va badiiy obraz. – T.: 1999. 151-b.
15. Karimov H. O'zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008.- 122-b.
16. Karimov N; Mamajonov S; Nazarov B., Normatov U., SHarafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. –T.: O'qituvchi, 1999. – 544 –b.
17. Kattabekov A. Tarix saboqlari. – T.; Fan, 1986. -96-b.
18. Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat. – T.: Fan, 1982. -128-b.
19. Mamajonov S. Uslub jilolari. –T.: Adabiyot va san'at, 1992. -219-b.
20. Mehrga yo'g'rilgan ijod. To'plam. –T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008.-138-b.
21. Mirvaliyev S. Tarixiylik va zamonaviylik. –T.: Adabiyot va san'at, 1979. -196-b.
22. Mirvaliyev S. Roman va zamon. –T.: Fan, 1983. -56-b.
23. Mirzayev S. Hayot va adabiyot. – T.: Sharq, 2001. -304-b.
24. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Ma'naviyat, 2000. – 112-b.
25. Normatov U. Nasrimiz an'analari. –T.: Adabiyot va san'at, 1978. -162-b.
26. Normatov U. Ijodkorning dahlsiz dunyosi. –T.: Mumtoz so'z, 2008.-313-b.
27. Pardayeva Z. Badiiy estetik tafakkur rivoji va o'zbek romanchiligi. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. -100-b.
28. Sodiq S. Roman va tanqid. –T. : Fan, 2008. – 120-b.
29. Sattorova B. Milliy xarakter va badiiy talqin. – T.: Fan, 2007, - 118-b.

30. Somejonov I. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. –T.: O'zbekiston Milliy kytubxonasi, 2009. -226-b.

31. To'rayev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – T.: Universitet, 2001. -165-b.

32. To'rayev D. Davr va ijod ma'suliyati. –T.: Yangi asr avlodi, 2004. -229-b.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

33. To'ychiyev A. O'zbek romanlarida makon va zamon. –T.: Mumtoz so'z, 2009. -149-b.

34. Tog'ayev O. Adiblar va janrlar. –T.: Adabiyot va san'at, 1976. -352-b.

35. Qodirov P. Amir Temur siymosi. –T.: Sharq, 2007. -245-b.

36. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademnashr, 2010. -397-b.

37. Qo'shjonov M. Ijod ma'suliyati. –T.: Adabiyot va san'at, 1981. -351-b.

38. Qo'shjonov M. O'zbek romanchiligining rivojlanish bosqichlari va janr xususiyatlari/ Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. –T.: Fan, 1991, 1-jild. B.299-382.

39. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. –T.: Yangi asr avlodi, 2002. -198-b.

40. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. –T.: Fan, 2007. – 196-b.

41. XX asr o'zbek adabiyoti masalalari. Maqolalar to'plami. –T.: Fan, 2012. -248-b.

VI. Badiiy adabiyotlar

42. Nurov S. Oltin vodi. –T.: O'zbekiston, 1972. -64-b.

43. Nurov S. Beda hidi. –T.: Adabiyot va san'at, 1975. -96-b.

44. Samar Nur. Bodom guli. –T.: Yosh gvardiya, 1980. -96-b.

45. Nurov S. Maysalarni ayoz urmaydi. –T.:

46. Nurov S. Rais. –T.: Adabiyot va san'at, 1981. -208-b.

47. Nurov S. Narvon. –T.: T. Sharq, 2007.

49. Nurov S. Qora tong, -T. Sharq, 2003. -464-b

VII. Davriy nashrlar, to‘plamlarda chop etilgan maqolalar

- 50.Otaboyev.A. Shu kunlar nafasi. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1999. 23fevral
- 51.Mahmudova Z. ijod psixologiyasi haqida. O‘zbek tili va adabiyoti. T. 2003.
- 52.Rustamova M. Hozirgi hikoyachilikda ruhiyat talqini. O‘zbek tili va adabiyoti. T. 2004
- Vladimirova N. Ildizlarga nazar solaylik. Sharq yulduzi. 1991. 8 son. 19
- 53.Xudoyberganov.N. Shaklan asaru, mazmunanchi?. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2000. 22sentabr
- 54.Malik.T. Qiyomat qarz. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2002. 1 fevral.
- 55.Matyoqubov.S. Badiiy psixologizm qirralari. O‘zbek tili va adabiyoti. T. 2006.
- 56.Normatov.U. Milliy nasrimiz tamoyillari. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1999. 7mart.

VIII. Internet saytlari.

www.literatura.uz

www.ziyonet.uz

www.ziyouz.com